


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Bakalavriatning o'zbek filologiyasi yo'nalishi uchun

**«MILLIY UYG'ONISH DAVRI
O'ZBEK ADABIYOTI»
fanidan**

MA'RUZALAR MATNI



FARG'ONA - 2011

TUZUVCHILAR:

Y.SOLIJONOV

Filologiya fanlari doktori

A.SABIRDINOV

Filologiya fanlari doktori

TAQRIZCHI:

N.SOLIEV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

UMUMIY SOAT – 180

MA'RUZA – 36

AMALIY – 28

SEMINAR – 28

VUSTAQIL ISH - 88

Ma'ruza matni
Farg'ona Davlat universiteti
filologiya fakulteti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining
2011 yil __ avgustdagi yig'ilishida
muhokama qilinib ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

Y.SOLIJONOV

1-MAVZU: KIRISH. XX ASR O'ZBEK ADABIYOTINI DAVRLASHTIRISH

DARS REJASI:

1. Kursning mohiyati, maqsad va vazifasi.
2. Milliy uyg'onish jarayonining shakllanishi.
3. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
4. Mustaqillik va milliy mafkura.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» ni o'rganish muamolari. Uni davrlashtirish borasidagi munozaralar.
3. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., 1995.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik 4,5-jild. T., 1978-80.
5. B.Qosimov, U.Dolimov. Ma'rifat darg'alari. T., 1990
6. Milliy uyg'onish. Ilmiy maqolalar to'plami. ToshDU, 1993.

TAYANCH IBORALAR:

1. Milliy uyg'onish atamasining mohiyati.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining chegarasi.
3. Mustaqillik g'oyasining kirib kelishi.
4. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

Darsning maqsadi: Kursning maqsad va vazifalari, taraqqiyot bosqichlaridagi o'ziga xosliklar, davrlashtirish borasidagi tortishuvlar hamda mustaqillik davrida adabiyotga munosabatning yangilanganligi haqida ma'lumot berish.

«Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» kursi mustaqilligimiz mevasi sifatida maydonga keldi. Istiqlolga erishganimizdan keyin ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek adabiyotining yangilanishi kontsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj kuchaydi. O'zbek adabiyotining yangilanish jarayonini chegaralash borasida ancha tortishuvlar bo'lib o'tdi. Adabiyotshunos U.Normatov boshchiligidagi bir guruh olimlar o'rta ta'lim maktablari uchun tuzgan dasturda «Milliy uyg'onish davri adabiyoti» 1905 yildan boshlanadi deb belgilaydilar. Ayrim adabiyotshunoslar Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, ya'ni XIX asrning 90 yillaridan boshlashni taklif qiladilar. B.Qosimov rahbarligidagi yana bir guruh olimlar «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» rus istilochilarining Toshkentni bosib olishdan, ya'ni 1985 yildan 1929 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olishni taklif qiladilar. Bu taklif ma'qul topilib alohida kurs sifatida oliy o'quv yurtlarida o'rganilish uchun vazirlik tomonidan chiqarilgan o'quv rejasiga kiritildi.

Ko'rinadiki, «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» qariyb 65 yillik jarayonni o'z ichiga oladi. Ilgari bunday bo'linish bo'lgan emas. Istiqlolga qadar o'zbek adabiyoti an'anaviy ikki qismga bo'lib o'rganiladi. Bu bo'linishga 1917 yilning 7 noyabri chegara qilib olinadi. YA'ni: I qism - «O'zbek adabiyoti tarixi», II qism - «O'zbek sovet adabiyoti» deb yuritilardi va ular o'rtasiga xitoy devori tortilgan edi. Studentlarga ushbu bo'linishning zararli oqibatlari to'g'risida batafsil tushuntirib beraman.

Va nihoyat, SSSR ning tarqalishi, uning qo'l ostidagi respublikalarning milliy mustaqillikka erishuvi tariximizni to'g'ri va haqqoniy yoritish imkonini berdi. Darhaqiqat, tarixga xolisona nazar tashlansa, umumadabiyotimizda yangilanish jarayoni XIX asrning 2-yarmidan boshlanganini sezish mumkin. Uch xonlikka bo'lingan, bu xonliklar o'rtasida va ularning o'z ichida o'zaro uzluksiz urush-janjallarning ro'y berishi xalqni juda toliqtirdi. Adabiyot esa o'z xalqi ko'nglining jarchisi sifatida bu voqealarga befarq qarayolmasligi aniq edi. SHu boisdan unda hayotga, voqelikka real qarash, munosabatida tanqidiy ruh kuchaydi.

Bu yangilanish xususiyatlari XIX asrning 90 yillaridan boshlab yangi bosqichga ko'tarildi. Ma'naviy hayotimizga jadidchilik harakatining kirib kelishi adabiyotga yangi kuch va parvoz bag'ishladi. Jadid adabiyoti qadimlarning, bolshevistik mafkura hamda mahalliy hukumatning jiddiy qarshiligi va shiddatli tazyiqiga qaramay, to'laqonli adabiyotga aylanish yo'llarini izladi,

shakllandi va taraqqiyot yo'liga kirdi. O'z dargohiga yangicha g'oya va qahramonlarni olib kirdi, unda ilgari ko'rinmagan janrlar paydo bo'ldi. Jadidlar adabiyotga birinchi bo'lib **mustaqillik g'oyasini** olib kirdilar va uning uchun kurashdilar. Diktaturaga asoslangan sovet hukumati 20-yillarning o'rtalaridan boshlab uni yo'qotishga kirishdi. 30-yillarning oxiriga kelib maqsadiga erishdi.

Ko'p asrlik adabiyotimizning qonuniy merosxo'ri bo'lgan, mustamlakachilikning millat va vatan uchun halokatli oqibatini teran anglab etgan, mohiyatan yangi adabiyotning butun ruhi hamda mazmunini xalqning milliy uyg'onish jarayoni tashkil etadi. Adabiyot paydo bo'lgandan beri erkka, hurlikka, istiqlolga tashna bo'lib, yashagan va yashaydi. Bu tashnaligini qondirmoq uchun muttasil ravishda yangidan yangi buloqlarning ko'zini ochishga, uning shifobaxsh suvlaridan odamzodni bahramand etishga xarakat qilaveradi. Insonni milliy, irqiy, diniy, ahloqiy va boshqa har qanday cheklanishlardan xoli qilish, uning hayotda emin-erkin yashashini adabiyotning doimiy yo'ldoshi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Bu yo'lda adabiyot ne-ne to'siqlarga uchrasa-da, qanchadan qancha erk kuychilari qatliom qilinsa-da, hech qachon o'z maqsadidan, ya'ni istiqlol orzusidan voz kechmadi, buyuk maqsadga erishish yo'lida kurashni davom ettiraverdi. Binobarin, adabiyotning sukut saqlashga mutlaqo xaqqi yo'q. U bir lahza bo'lsin, «Sukutga tolar ekan, bu sukut xalqning inqilobi bilan baravar bo'ladi» degan edi Saltikov-SHedrin. SHuning uchun u doimo erk qo'ng'irog'ini chalib turishga burchlidir.

SHu ma'noda jadidchilik xarakati Turkistandagi milliy uyg'onishning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi bo'lsa, jadid adabiyoti ushbu jarayonning badiy ifodasi edi. Bu adabiyot faqat g'oyaviy-estetik jihatdangina emas, balki adabiy-estetik jihatdan ham ko'p asrlik o'zbek adabiyotining eng porloq sahifalarini tashkil etadi. Ayni paytda jadid adabiyoti va keng ma'noda milliy uyg'onish davri adabiyoti boshqa juda ko'p xususiyatlari bilan ham xozirgi o'zbek adabiyoti, binobarin, XX asr adabiyotining sarchashmasi sifatida ham qadrlidir.

O'zbek adabiyoti ming yillar davomida asosan SHarq xalqlari adabiyoti an'analari doirasida, arab, fors, hind adabiyotlari bilan hamkorlikda, islom dini falsafasi, tasavvuf ta'limoti ta'sirida rivojlandi XIX asr oxiri, XX asr boshlarida u yangi bir ma'naviy olamga, Evropa madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz bura boshladi. Bu hodisa sho'ro hokimiyati yillarida uzoq vaqt «O'rta Osiyoning Rusiyaga qo'shib olinishining progressiv ahamiyati» tarzida baholanib kelindi. To'g'ri, «falokatning sharofati» deganlaridek, o'tgan asrning ikkinchi yarmida xalqimiz boshiga tushgan kulfat, tariximizning «eng kir, qora kunlari» bo'lib qolgan rus istelochilari tomonidan yurtimizning zabt etilishi oqibatida bu yerda Evropa tartib-qoidalari, fan va madaniyati, adabiyoti yangiliklari ham kirib kela boshladi. Biroq bu hodisa faqat Rusiya tomonidan bosib olingan Turkiston xalqlari hayotidagina emas, deyarli barcha SHarq mamlakatlarida, G'arb mustamlakachilarining qo'li etmagan olis xududlarda ham sodir bo'di. Jahonning biror burchagida ma'naviy va madaniy hayotda, ilm-fanda, adabiy tafakkurda paydo bo'lgan yangiliklarning o'zga xududlarga tarqalishi qonuniy, tabiiy holdir.

Turkistonda Rusiya mustamlakachilik siyosatining asoratli aravasi ish boshlagan XIX asrning 2-yarmidan boshlab xalqimiz tarixida yangi davr - Milliy uyg'onish, o'zlikni anglash harakati boshlandi. Bu harakatning boshida ma'rifatparvar ziyolilar turdilar. Ular yangilik tarafdori targ'ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar va xalqimizni savodli bo'lishga undadilar. Bu taraqqiyparvar ziyolilar yangi o'zbek adabiyoti asoschilari - millatning, vatanning chin o'g'lonlari, millat madaniyati, adabiyotining fidoyilari edilar: ular jahonga Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur singari ulug' siymolarni bergan buyuk Turon yurti keyingi asrlarda jahon madaniy taraqqiyotidan orqada qolganligini teran tushundilar; millat qaddini rostlab olishining bosh yo'li - taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, Evropa madaniyati, adabiyotidan o'rganish, G'arb va SHarq tajribalarini umumlashtirish orqali ijodiy samaralarga erishayotgan hind, arab va turk adabiyoti, madaniyati namoyondalaridan o'rnak olishga chaqirdilar va bu yo'lda g'ayrat-shijoat bilan amaliy ishga kirishdilar. Natijada ibrat bo'larli hayratomuz ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi: g'oyat qisqa fursat ichida o'zbek adabiyotida yangilanish kurtaklari paydo bo'la boshladi. Bu hol rus mustamlakachilarini xushyorlikka, zulm kishanlarini qattiqroq bog'lashga undardi.

Qizil imperiya qaror topib mustahkamlana boshlagan va SSSRda sotsializm to'la g'alaba qozondi deb jar solingan 30-yillarning oxiridan boshlab, mamlakatda har qanday milliy g'oyaga, birinchi navbatda mustaqillik g'oyasiga chek qo'yildi. Bu boradagi har qanday fikr va harakat millatchilik sifatida talqin qilindi, sho'rolar hukumatiga qarshi harakat deb baholanib shafqatsiz madh qilindi. Aksincha, sotsialistik g'oyani jamiyatning barcha sohalariga singdirish, amaliyotga kiritish davlatning bosh siyosatiga aylandi. Hukumatning bu tazyiqi kompartiyaning adabiyot ustidan yakkahokimlik diktaturasini o'rnatishi o'zbek adabiyotining yo'l va yo'nalishini, ijodiy metod va usullarini tubdan o'zgartirib yubordi. U biz yuqorida ta'kidlaganimiz 30 yillardan boshlab chinakam ma'noda «o'zbek sovet adabiyoti» ga aylanib bordi va «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik umumsovet adabiyotining tarkibiy qismlaridan biri» bo'lib qoldi.

SHu o'rinda «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» ning chegarasini aniqlab olishimiz darkor. ToshDUning bir guruh adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan, 1997 yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan foydalanishga tavsiya etilgan namunaviy dasturning «Uqtirish xati» da bu davr adabiyotining o'rganish ob'ekti 1865-1929 yillar deb belgilangan. Aslida adabiyotning yangilanish jarayonini aniq raqamlar, yillar bilan chegaralab bo'lmasligini ta'kidlash joiz. CHunki uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lgan adabiy jarayon bir kundayoki bir oyda o'zgarib, yangilanib qolmaydi. Uning ustiga bunday chegaralashdan yana sovet davri adabiyotini davrlashtirishda asos qilib olingan tarixiy printsipning xidi kelib turibdi. SHu yerda bu printsipning mohiyati, adabiy jarayonga keltirgan salbiy ta'siri to'g'risida studentlarga to'laroq gapirib beraman. SHuning uchun ham men bu davr adabiyotining qamrovini kengroq olishni, ya'ni XIX asrning 2-yarmidan to XX asrning 40 yillariga qadar belgilashni taklif qilaman. CHunki rus kolonizatorlari Markaziy Osiyoga bostirib kirishni Qozog'iston orqali XIX asrning 50-yillaridan boshlaganlar. Milliy uyg'onish jarayoni va istiqloq g'oyasini ko'tarib chiqqan millatparvar va erkarparvar ziyolilarni qatag'on qilib tugatish XX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Agar dasturda ko'rsatilganidek, «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» 1929 yilgacha davom etdi xolos deb cheklansak, keyingi o'n yillik e'tibordan chetda qoladi. Bu adabiy jarayonning to'liq o'rganilishiga salbiy ta'sir qiladi.

Binobarin, «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» amal qilgan yillarni belgilashda mazkur yangi adabiyotning maydonga kelishi shart-sharoitlari, manbalari, shakllanish va taraqqiyot yo'llari, bosqichlari, xususiyatlari va tabiiyki, namoyondalarining ijodiy hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini hisobga olish lozim. Demak, qariyb 90 yillik adabiy jarayonni o'rganar ekanmiz, shubhasiz, mohiyatiga ko'ra yangi adabiyot deb tan olingan «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» ni quyidagi 3 taraqqiyot bosqichiga bo'lib o'rganilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ilk mustamlakachilik davri - XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha
2. Jadidchilik davri - XIX asrning 90-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha
3. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri (20-40-yillar)

Albatta, bu taraqqiyot bosqichlarini nomlash ham boshqa barcha nomlar singari shartlidir. CHunki har bir atama, avvalo muayyan hodisaning muayyan qisminigina qamrab oladi. Ikkinchidan, bunday nomlash muayyan hodisayohud tushunchaga nisbatan beriladi. YUqoridagi bosqichlarni belgilashda masalaning g'oyaviy jihatlariga ko'proq urg'u berilayotgani bejiz emas. Bundan keyingi darslarimizda mazkur taraqqiyot bosqichlarini va shu davrda yashab ijod qilgan adabiyot namoyondalarini alohida-alohida o'rganib chiqamiz.

5. **Muammoli masalaga javoblar:** yuz yildan oshiqroq davrni o'z ichiga olgan «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti»ni keng va to'g'ri o'rganish mustaqillik sharofati bilan amalga osha boshladi. Ma'lumki adabiy hodisa turli siyosiy, mafkuraviy o'zgarishlar qolipiga sig'maydi. SHu bois uni siyosiy maydoniga voqeliklar bilan bog'lab, chegaralab bo'lmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fanning asosiy mazmunini aniqlang.
2. Fanning maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
3. «Milliy uyg'onish davri» atamasining mazmunini izohlang.

4. «Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti» fani qamrab olgan davr va uning mohiyati nimadan iborat?
5. Mustaqillikka qadar oʻzbek adabiyoti qanday davrlashtirilgan?
6. «Sovet adabiyoti» qaysi davrdan chegaralangan va nima uchun?
7. Milliy uygʻonish davri sifatida qaysi yillarni belgilash oʻrinli?
8. 30-yillarda milliy ziyolilar nega tugatilgan?
9. 75 yil davomida necha marta qatagʻon uyushtirilgan?
10. «Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti» qanday bosqichlarga boʻlib oʻrganiladi?

2- MAVZU: ILK MUSTAMLAKACHILIK DAVRI OʻZBEK ADABIYOTI

DARS REJASI:

1. Adabiyotning yangilanishi.
2. Ilk mustamlakatchilik davri oʻzbek adabiyotini oʻrganish borasidagi muammo va munozaradir. Adabiyotning yangilanishi.
3. Satira va yumorning vujudga kelishi.
4. Qoʻqon adabiy muhiti haqida. Xiva va Buxoro adabiy muhiti.
5. Adabiyot namoyondalari toʻgʻrisida maʼlumot.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Istiqlol va maʼnaviyat. T., 1994.
2. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 5-jild, T., 1980.
3. B.Qosimov. Izlay-izlay topganim, T., 1983.
4. A.Jalolov. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi oʻzbek maʼrifatparvarlari.

TAYANCH IBORALAR:

1. XIX asrning 2-yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot qanday edi?
2. Rusiya istelosining boshlanishi va ojizlik sabablari.
3. Oʻzbek adabiyotida yangilanish jarayonining boshlanishi.
4. Muqimiy va uning hajviyalari.
5. Satirik va yumoristik asarlar.
6. Maʼrifatparvarlik gʻoyasining yangi bosqichga koʻtarilishi.
7. Furqatning maʼrifatparvarlik ruhidagi sheʼrlari.
8. Avaz Oʻtar oʻgʻli ijodi.
9. Xorazm adabiy muhiti.
10. Miriy va uning merosi.
11. Qoʻqon adabiy muhiti va Nodim ijodi.
12. Anbar otin ijodi.

Darsning maqsadi: Ilk mustamlakatchilik davri oʻzbek adabiyoti nomoyandalari, tarixiy va adabiy muhit bu davrda yaratilgan asarlar, muammolari haqida maʼlumot berish.

Turkistonda mustamlakachilik davrining boshlanishi bilan oʻzbek adabiyotida ham yangilanish jarayoni roʻy bera boshladi. Anʼanaviy adabiy harakatchilik koʻproq qadimiy Qoʻqon, Xeva, Samarqand va Buxoroda rivoj topdi. Xeva va Buxoro har holda maʼlum bir payt rus bosqinidan xoli boʻlib, koʻproq mumtoz adabiyotimiz anʼanalari asosida taraqqiy topgan boʻlsa, Qoʻqon adabiy muhiti oʻziga xos yangilanish yoʻlidan bordi. Qoʻqon adabiy muhitida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhayyir, Muhyi kabilar alohida rol oʻynadilar. Bu shoirlar anʼanaviy usullardan chekinmagan holda adabiyotga yangi mavzu va yangicha ruh olib kirdilar. Bulardan ayniqsa, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabilarning ijodiy yangilanishi xarakterlidir.

MUQIMIY /1850-1903/ ilk mustamlakachilik davri adabiyotining yangilanishiga eng munosib xissa qoʻshgan ijodkordir. Uning ijodida garchi aruz vazni etakchi, mumtoz lirik janrlar ustun boʻlib qolgan boʻlsada, shoir asarlari mazmunida jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Anʼanaviy ishq mavzusidan ijtimoiy muammolarni qamrab oluvchi gʻazallar, muhammaslar, murabba va ruboiylar dunyoga kela boshladi. Ularda oshiqning nolasiyor-maʼshuqaning jabru-sitamidan emas,

balki jamiyatning zulmidan, tengsizligidan ekanligi anglashilib turadi. Misol uchun Muqimiyning qo'shiqqa aylanib ketgan mashhur «SHunchalar» radifli g'azalini olib ko'raylik:

Zulm ila qahru g'azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshig'i bechoraga ozor qilmoq shunchalar.

Bundan tashqari, Muqimiy g'azallar mazmunida o'zgarish yasabgina qolmay, lirik turda **sayohatnoma** shaklini vujudga kelishiga ham munosib hissa qo'shdi. Siz shoirning uch bo'limdan iborat «Sayohatnoma» asarini bilasiz u bilan maktabda tanishgansiz. O'tkir satirik usuldayozilgan bu asarda Muqimiy qishloqlardagi vayronalik, qishloq ahlining og'ir hayoti, ochligi «kelsa kishi yeyar tariq» kabi, mahalliy boy va amaldorlarning ochko'zligi, poraxo'rliги m: «Tagjoy olur moxovdan ham», zolimligi «Qilmishlari ozor ekan» ni ro'y-rost ochib beradi va so'ngida «Dunyo qurilgan dor ekan» degan haqgo'y xulosaga keladi.

Muqimiy «Sayohatnoma»sining o'ziga xos qimmat shundaki, shoir mehnatkash xalq mehnati hisobiga ayshu ishrat qilayotgan amaldorlarni nomma-nom fosh etadi. Asarning o'zi lirik qahramon - shoirning faryodi bilan boshlanishini yaxshi bilasiz.

Bu davr adabiyotida **hajviyot** oyoqqa turdi, bu adabiyotning tom ma'noda demokratik ruh olishga ko'hmaklashdi. Hajviyot o'zining ikki qanoti - satira va yumor bilan baland parvoz qildi. O'zining an'anaviy ildiziga ega bo'lgan hajviyot shu yerda mumtoz adabiyotimiz namoyondalari A.Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy kabilarning hajviy asarlari to'g'risida ma'lumot beraman yangicha ko'rinishlar kasb etdi. Bu yangilik hajviy asarlarning adresli, ya'ni ob'ektki va sub'ektki ekanligida ko'rindi. Bu borada ham Muqimiy peshvolik qildi.

Muqimiydan o'rnak olgan Zavqiy «Qirq olti kishini afsona qildim, kim chiqsa o'qiydi Mo'yimarakka» deb «Rasta ahli haqida hajv»iniyozdi. Albatta, bu jasorati jazosiz qolmaydi. Hajviyada nomma-nom zikr qilingan shahar boylari va zodagonlari shoirga qarshi ochiq hujum boshlaydilar. Uni do'stlari, shahar hunarmandlari himoya qiladilar va jarima to'lab kafillikka oladilar.

XIX asrning 2-yarmidagi adabiy jarayonda Xeva adabiy muhiti ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davrda Xorazm taxtini asosan shoir Muhammad Rahimxon - Feruz boshqardi. Tarixchi va adabiyotshunos olimlarning fikricha, u O'rta Osiy xonlari orasida eng ziyolisi edi. 47 yil taxtda o'tirgan Muhammad Rahimxon 1865-1912 davrida Xorazm mamlakati ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan gullab-yashnadi. Xon xalqining tinchligini ko'zlab, tishini qayrab turgan Rusiya bilan til topisha oldi: u bilan shartnoma tuzdi, unga go'yo vassal bo'lib, mustaqil ish yuritdi. Xon asosiy e'tiborni obodonchilikka hamda adabiyot va sanoatni rivojlantirishga qaratdi. 1874 yildayoq Xevaga litografiya bosmaxonasi keltirdi. Saroyda yuzdan ortiq shoiru olimga homiylik qilib, adabiy, tarixiy va tarjima asarlari yaratilishiga bosh-qosh bo'ldi. Birgina tarjima ishlari bilan 82 olim shug'ullangan. Natijada bu yillarda jahon adabiyotining yuzlab shoh asarlari o'zbek tiliga o'girildi.

Feruz topshirig'i bilan Axmad Tabibiy 1869-1911 «Majmuat "ustoz-shogird"-shuaroyi Feruzshohi» tazkirasini yaratdi. Unda xon va shoir Feruzning o'zidan tashqari Komil, Avaz O'tar, Muhammad Rasulmirzo singari 30 ijodkor asarlaridan namunalar berilgan. Bu davrda Xorazmda ayniqsa sheoriyat g'oyat rivojlangan. CHunki xonning o'zi ulkan shoir edi. Bu haqda alohida gaplashamiz.

Adabiyotda ikki tillilik /zullisonaynlik/ an'anasi davom etdi. Ijodkorlar asosan madrasada ta'lim olganliklari tufayli arab va fors tillarini yaxshi bilardilar. SHu bois bu tillarda ko'pchilik ijod qildi. XIX asrning 2-yarmida yangilanayotgan o'zbek adabiyotida vatanparvarlik, xalqchilik g'oyalari ustivor yo'nalish sifatida ko'zga tashlana boshlandi. O'zbek demokratik shoirlari ijodida Vatan taqdiri bilan kuyinchaklik, Vatan ishq, Vatandan dil uzolmaslik kabi motivlar baralla yangrab turdi. SHu ma'noda adabiyotda «g'urbat motivi» yangicha ma'no kasb etdi. Buning mohiyati YAssaviy, Furqat va Bobur asarlari bilan Muqimiy, Furqat, Komil asarlari misolida tushuntirib beraman.

Ilk mustamlakachilik davri adabiyotining muhim g'oyaviy yo'nalishlaridan yana biri **ma'rifatparvarlik**dir. Aslida ma'rifatparvarlik mavzusi o'zbek adabiyotining doimiy yo'ldoshi bo'lib kelgan. XIX asrning 2-yarmida esa bu mavzu o'z oldiga yangicha maqsad va vazifani qo'ydi.

Ma'lumki, Rusiya istelosidan keyin Turkiston xalqi rus fan-texnikasi va u orqali Evropa madaniyati bilan yuzma-yuz keldi. Ularni qabul qilish va o'zlashtirishga ma'naviy ehtiyoj tug'ildi. Aslida har qanday yangi g'oya xalqning taraqqiyotga intilishi zaminida tug'iladi va shu bilan jamiyatning konservativ qarashlariga qaqshatqich zarba beradi. CHorizmning mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqini jaholatda, qoloqlik va maxdudlikda saqlashga qaratilgandi. Eski maktablarni ta'qiqlash, borlarini ham obro'sizlantirish, tor, mutaassiblik va o'ta asrchilik - qoloq usullarini rag'batlantirish yo'lidan borildi.

XIX asrning 2-yarmida dunyoga kelgan o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti yirik vakillaridan biri Furqat /1858-1909/dir. Juda ko'p manbalarda shoir ijodidagi ma'rifatparvarlik motivlari asosan Toshkentda yashagan paytda boshlanganligi aytiladi. Bu biryozlama bahodir. Zero, shoir ijodiga sinchiklab nazar tashlansa, bu g'oya Furqatning ilk ijodiy qadamlaridan boshlab hamkorligini ko'rish mumkin. U o'quvchilik paytidayoq: «Mening maktab aro bo'ldur murodim, xatimdek chiqsa imlo-yu savodim» deb bejiz aytmagan. SHoir butun ijodi davomida zamonaviy ilm, fan va madaniyatga intilish, targ'ib qilishga intildi. Furqat dunyoqarashidagi bunday intilish, o'zgarish, ijodidagi ma'rifatparvarlik motivlari uning YAngi Marg'ilonda yashagan paytida yanada kuchaygan va o'zining ilk samaralarini bergandi. SHoirning maorifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Nag'ma bazmi xususida», «Vistavka xususida», «Teatr haqida manzuma» singari o'nlab she'rlari o'zi ko'rgan voqea-hodisalar asosida vujudga keldi.

Adabiyotimiz tarixida ma'rifatparvarlik an'analarini yangicha sharoitda izchil davom ettirgan va boyitgan shoirlardan yana biri xorazmlik Avaz O'tar o'g'lidir. 1884-1919. Uning asarlarida ma'rifatparvarlik keng ma'noda insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatning kelajagi haqida jon kuydirish darajasiga ko'tarildi. SHoirning «Xalq», «Fidoyi xalqim», «Maktab», «Millat», «Til» kabi o'nlab she'rlarida erkinlik, ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik g'oyalari o'zining mukammal ifodasini topgan. Avaz O'tar o'g'lining ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlarida isyonkorlik kuchli. Xalqning zulm iskanjasida yashashi, uning tanazzulga yuz tutishi, eng avvalo, ilmsizligidir.

Endi XIX asrning 2-yarmida yangilanayotgan davr adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan ayrim ijodkorlarning merosi, o'ziga xosligi, mahorati bilan tanishib chiqamiz. Bular Xorazm adabiy muhitidan Komil, Bayoniy, Feruz, Buxoro adabiy muhitidan Miriy, Qo'qon adabiy muhitidan Nodim, Anbar otindir.

Xorazm adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishida KOMIL 1825-1899 muhim o'rin tutadi. Xevada tug'ilgan va yashab ijod qilgan bu shoirning asl ismi Muhammadniyoz bo'lib, Komil uning adabiy taxallusi, Xorazmiy esa tug'ilgan yurtiga nisbatan keyin adabiyotshunos va tarixchilar tomonidan berilgan nisbapdir. O'zi hech qaerda, hech qachon Xorazmiy degan atamani ishlatmagan. U shoir, tarjimon, xattot, musiqashunos va davlat arbobi sifatida mashhur bo'lgan. Komil Muhammad Rahimxon Feruz saroyida mirzaboshi lavozimida ishlagan. 1873 yildan umrining oxirigacha devonbegi lavozimini egallagan. Ikki marta S-Peterburg va Toshkentga sayohat qilgan.

Komil ijodini badiiy san'atlar gulshani deyish mumkin. Binobarin, shoir o'z poetik mahoratining yuksakligi bilan Xorazm adabiy muhitida muhim o'rin tutadi va ayni paytda bu adabiy jarayonning rivojlanishiga ta'sir ham etadi. SHu yerda mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan va Komil ijodida ko'p qo'llanib yangicha ko'rinish kasb etgan adabiy sanoatlar haqida misollar bilan isbotlab beraman. Kitobat, muqobala, jamou taqsim, tashbeh, muqarrar, talmeh san'atlarining har biriga misollar keltirib, yozdirib qo'yaman. Masalan, shoir quyidagi misralarda mubolag'aning eng yuqori ko'rinishi hisoblangan g'ulu san'atini qo'llagan:

Jamoling vasfi tahririn tamom etmak emas mumkin -

Qalam - ashjor esa, daryo - siyoh, osmon - qog'oz.

Xorazm adabiy muhitining ulkan namoyandalaridan yana biri Muhammad YUusuf Bayoniy 1840-1923 timsolida tarixchi olimni ko'ramiz. Ayni paytda u shoir va xattot sifatida ham mashhur bo'lgan. SHoirning o'zi tartib bergan «Devoni Bayoniy» - qo'lyozma nusxasi bizga to'la etib kelgan. Bayoniy ham o'z zamondoshlari singari lirik turning o'ndan ziyod janrida qalam tebratgan. Lekin biz bu erda Bayoniyning «SHajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» deb nomlangan

tarixiy asarlari to'g'risida gaplashamiz. Chunki tariximizni o'rganishga g'oyat katta e'tibor berilayotgan shu kunlarda adibning bu tarixiy asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini, siyosiy-ijtimoiy hodisalarni o'rganishda g'oyat nodir manbadir. Tarixchi olim o'z asarlarida rus imperiyasining O'rta Osiyoni zabt etish davomidagi butun dahshatli qilmishlarini ro'y-rost ko'rsatadi.

«SHajarayi Xorazmshohiy» asari 1873-1914 yillar voqealarini o'z ichiga oladi. Demak, u Ogahiyning «Iqboli Feruziy» asaridan keyingi tarixdir. Bayoniy ham ustozlari Munis va Ogahiyilar singari o'zi ko'rgan, guvoh bo'lgan va bilgan voqealarini qalamga oladiki, undagi ko'p faktlar arxiv hujjatlariga mos keladi. SHu jihatdan bu asar X sinf darsligiga kiritilganligi va u orqali mamlakatimizning hozirgi mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan e'tiborlidir. U orqaliyoshlarni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalaymiz.

Buxoro adabiy muhitining yirik vakili, o'zbek, fors-tojik, ozarbayjon tillari va adabiyotlarini yaxshi bilgan, o'z ijodi bilan faqat Buxoroda emas, balki Farg'ona vodiysida ham shuhrat qozongan zullisonayn shoir OCHILMUROD MIRIY Ne'matullo o'g'li (1839-1899) Kattaqo'rg'onning Eshonqishloq mavzeida tug'ilgan. Kattaqo'rg'on va Buxoro madrasalarida ta'lim oladi. Miriy ko'proq hajviy she'rlaryozgan va adresli tanqidni she'riyatda birinchi bo'lib qo'llagan. U jismonan majruh bo'lsa ham aqlan etuk odam bo'lgan. SHoir o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan zullisonayn ijodkordir. Miriy lirikasining mavzu doirasi ancha keng bo'lib, uning lirik qahramoni davrining ilg'or kishisi, tushkunlikka tushmaydigan, kulfat va qiyinchiliklar oldida bosh egmaydigan insondir. Lirik qahramoniyoriga izhori dilini, maktubini an'anaviy saboyoki mug'anniy, qushlar orqali emas, balki zamonaviy telegraf orqali yuboradi.

Miriy merosi g'azallar, muxammaslar, masnaviylar va ko'proq dostonlardan iborat. Ularning ko'pchiligi hajviy yo'nalishda yaratilgan. SHoir o'z davrining zolim va hukmron tabaqalarini keskin tanqid ostiga oladi.

NODIM-NAMANGONIY /1844-1910/ XIX asrning boshlaridagi o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Uning adabiy merosi o'zi tartib bergan «Bayozi Nodim»da jamlangan. U g'azallar, muxammaslar, murabba, musaddas, musamman, ruboiy va soqiynomalar yaratgan. Nodim lirikasida insonning rang-barang kayfiyati, kechinmalari, hayot va voqealarga, odamlarga bo'lgan munosabati, o'ylari va qarashlari ifodalangan. Nodim hayot va badiiy ijodda asosan Jomiy, Navoiy, Mashrab qo'lini va yo'lini tutgan shoirdir. Demak, uning asarlarida ishq ilohiy ulug'lanadi, bu ishqni eng yuksak insoniy fazilat sifatida, ko'ngilniyorqin nurga to'ldiruvchi hissiyot sifatida ulug'laydi.

Nodim lirikasida ijtimoiy adolatsizlikdan shikoyat motivlari ko'p uchraydi. Uning faryodi «CHarx bedod»idan, ya'ni teskari aylanuvchi falak zulmidandir. Bunga sababchi bo'lgan zolimlarni keskin tanqid qiladi. Ma'lumki, biz o'rganayotgan davr shoirlari xalqning umumiy ma'naviy va madaniy saviyasini yuqori ko'tarish uchun qayg'urib, ilm-ma'rifatning ahamiyatiga ko'proq e'tibor berganlar. Nodim ham bu davrda ma'rifatparvar zamondoshlariga jo'rovoz bo'ldi. U «Ko'ngulni oftobi ma'rifat birla munavvar et» deya zamondoshlarni ilm nuridan bahramand bo'lishga da'vat etadi. Umrining oxirlarida shoir Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi ilm va fan-texnika taraqqiy etgan shaharlarga sayohat qiladi. SHu sayohat ta'sirida yirik hajmli manzuma yaratadi. Unda shoir o'z ko'zi bilan ko'rgan voqea-hodisalar, narsalar, transport vositalaridan hayratga tushadi. Nodim Toshkentda gimnaziya ham bo'ladi va Furqatdan so'ng undagi o'qish-o'qitish ishlari afzalliklariniyoritib beradi. Bulardan misollar keltirib o'qib beraman.

Nodim ilmu-ma'rifat borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamd-u sanolar o'qisa, rus chorizmining zulmi ortib, xalqning turmushi kundan-kunga og'irlashib borayotganidan, narx-navo xaddan ziyod ortib, haloyiqning ahvoli tang bo'layotganidan shunchalik tashvishga tushadi va «Ehtiyoj», «hit qildi» kabi hajviy g'azallarida ro'y-rost fikr yuritadi. SHu she'rlarni o'qib, tahlil qilaman, yozdiraman.

Xullas, Nodim-Namangoniy ilk mustamlakachilik davri o'zbek adabiyotining shakllanishi va ravnaq topishiga katta hissa qo'shgan ijodkordir. U o'zining sermahsul va rang-barang poetik merosi bilan insonning zahmatli hayotini tasvirladi, unga Ollohdan madad so'radi, zolimlar va

johillarni fosh qildi, tabiat va inson go'zalligini, ezgulikni kuyladi. SHu fazilatlar bilan mangulikka yashab qoldi.

ANBAR OTIN (1870-1915) Farmonqul qizi Qo'qonda tug'ilib, voyaga yetdi va ijod qildi. U davrining mashhur shoirasi Dilshod Barno maktabida o'qidi va ustozlari nazariga tushdi. SHoiraning yoshligi Qo'qon adabiy muhiti g'oyat rivojlangan davriga to'g'ri keldi. U Muqumiy, Furqat, Muxyiy, Zavqiy, Kamiy, Nodim kabi davrining peshqadam ijodkorlari bilan tanishdi, ular ijodidan bahramand bo'lgan Anbar otindan bizga asosan, «Alifbo», «Qoralar falsafasi» kabi yirik asarlari meros bo'lib qolgan. Arabyozuvidagi 28 harf ta'rifi berilgan «Alifbo» she'rida shoir harflar talaffuzi hamda shaklidan foydalanib, hayot, jamiyat, adolat, zulm to'g'risidagi mulohazalarini bayon etadi. «Qoralar falsafasi» da esa mavjud ijtimoiy tuzum, hayotdagi tengsizlik, kelajak zamon to'g'risidagi orzu-umidlari o'z ifodasini topgan. Asar kirish va to'rtta fasldan iborat. I faslda qora baxt, qora niyat, qora tanli, ammo qalbi oq odamlar, xalqlar haqida; II faslda onalar va ularning hayotdagi o'rni, taqdiri; III fasl: haqiqiy baxti qoralar kimlar ekanligi to'g'risida; IV fasl: qora zulmat, ijtimoiy hayot haqida mulohazalar yuritiladi. SHu asardan ayrim misollarni o'qib, studentlarga tushuntiraman va kerak o'rinlarni yozdiraman.

Muammoli masalaga javoblar: Ilk mustamlakachilik davrida turli adabiy muhit, maktablarning yuzaga kelishi, geografik joylashish, uzoq asrlik an'analardagi, urf-odatlardagi o'ziga xoslik, farqlar, shuningdek, Turkistonning turli xonliklariga bo'linganligi bilan bog'liq edi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bu davr qaysi yillarni o'z ichiga oladi?
2. Rus istilosining boshlanishi qachon va qanday ro'y berdi?
3. Bu davrdagi O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
4. SHu davrdagi adabiy-madaniy hayot haqida gapiring.
5. Rus bosqiniga qarshi qanday kurash olib borildi?
6. Toshkentni bosib olish qanday ro'y berdi?
7. Qo'qon xonligi va Xudoyorxon taqdiri qanday yakunlandi?
8. Toshkent qamali haqida gapiring.
9. Sovet davri mustamlakachiligining oqibatlari haqida qanday fikrdasiz?
10. Ilk mustamlakachilik davri adabiyotining dastlabki qadamlari qanday?

3-MAVZU: ISHOQXON IBRAT (1862-1937) HAYOTI VA IJODI

DARS REJASI:

1. Hayotiy va ijtimoiy – ijodiy faoliyati
2. Ma'rifatparvar shoir.
3. Merosi. Tarixiy asari.
4. Ma'rifatparvar shoir. She'riyatda aks etgan ijtimoiy-siyosiy muammolar.

Adabiyotlar:

1. B. Qosimov, U. Dolimov. Ma'rifat darg'alari T., 1990.
2. U. Dolimov. Ishoqxon Ibrat. Istiqolol fidoyilari turk. T., 1994.
3. Ibrat. Tarixi Farg'ona. T., 1992 yil.

Tayanch iboralar:

1. Ibratning tarjimai holi.
2. Ibrat she'rlari.
3. Hajviyalari.
4. Ilmiy meros.
5. Ibrat-tarixnavis.

Darsning maqsadi: Ishoqxon Ibrat hayoti, ijtimoiy-ijodiy faoliyati, badiiy merosini yoritish.

XX asr jahon tarixiga o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maorifiy hayotida buyuk o'zgarishlar ro'y bergan, millatning o'zligini anglashi, milliy uyg'onishi uchun zamin hozirlangan., milliy mustaqilligimizning tamal toshi qo'yilgan, xad-hisobsiz qurbonlar berish evaziga istiqloлга

erishilgan asr bo'lib kiradi. O'z faoliyatlarini o'tgan asrning so'nggi o'n yilligida boshlagan va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotda muhim o'rin tutgan bir guruh istiqlol kurashchilari, fidoyilari bugungi mustaqil O'zbekiston tarixining oltin sahifalaridan o'rin egalladi. Tariximizda jadidchilik xarakati deb nom olgan, lekin chorak kam bir asr mobaynida o'z avloldlariga teskari tushuntirilib, qoralanib kelgan bu oqim vakillari birinchi navbatda, maorifni tubdan isloh qilish, millatni maorif yo'li orqali istiqlol bekati olib niyatini ko'zlagan edilar. Bugun biz o'rganayotgan mutafakkir olim, etuk shoir, millatparvar muallim, tarixchi Ishoqxon Ibrat faoliyati ko'lamining kengligi Vatan xalq istiqboli uchun jonini fido qilishdan qaytmagan ma'rifatparvar ziyolilar orasida e'tiborli o'rinlardan birini egallaydi.

Zamondoshlarning guvohlik berishicha, Ishoqxon to'ra o'z zamonining din, dunyoviy fanlar, adabiyot, musiqa, tibbiy fanlar, arxitektorlik, texnika sohasida ustoz komil bo'lgan inson edilar. Ishoqxon 1279 xijriy – 1862 milodiy yili Namanganning To'raqo'rg'on qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ilgan. Otasi Junaydulla xo'ja adabiyotga ixlosmant bo'lib, (Xodim) taxallusi bilan she'rlaryozgan edi. Onasi Xurbibi esa tom savodli ayol bo'lib, qishlog'ida qizlar maktabi ochgan, ijod bilan shug'ullanganlar. Uning eri Junaydulla xo'ja vafoti munosabati bilanyozgan marsiyasi etib kelgan. Ishoqxon mahallasida ochilgan eskicha usuldagi maktablarda besh yil o'qib ham savodli bo'lmagach, onasining qo'lida ta'lim oladi. Bu haqda uning o'zi shunday ma'lumot bergan: «Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida besh yilda 3 adat muallimda o'qib, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o'z uyimizda volidayi marhumamdan o'qib savod chiqardim. Ikki sana qiblag' imdan husnixat mashq etdim.»

1878 yilda Qo'qonga kelib, Muhammad Sidiq Tunqator madrassasiga o'qishga kiradi. Bu paytlarda Qo'qon savdo-sotiq va sanoati rivojlanish yo'liga kirga sha'arlardan edi. Paxta tozalash, sovun ishlab chiqarish, yog'' zavodlari vujudga kela boshlagan, temir yo'llar qurilayotgan, ros maktablari ochilayotgan turli ilmiy madaniy, maishiy muassasalar, fan-texnika yutuqlarini namoish qiladigan ko'rgazmalar ochilayotgan edi. Bundan tashqari, O'rta Osiyodagi boshqa shaharlarga qaraganda adabiy muhit Qo'qon shahrida ancha taraqqiy etgan, bu davrda Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Xaziniy, Muxoiy kabi shoirlar xalq o'rtasida katta obro'ga ega edilar. Ishoqxonning Qo'qon madrassasida taxsil olgan sakkiz yillik davr o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, ma'rifida tub sifat o'zgarishlari ro'y berayotgan paytga to'g'ri keladi. Bu, shubasiz, Ishoqxonning dunyoqarashiga ijobiy ta'tsir qilardi. U adabiy mushoiralarda ishtirok etgan va ijod bilan jiddiy shug'ullana boshlagan. Bo'lajak shoir o'ziga «Ibrat» degan taxallusni qabul qiladi va bu haqda quyidagilarni yozadi:

Ibrat taxallusindir, axfodiy Xazrati Sulton,

SHuhratda – Xoji to'ra, ma'nosini – To'raqo'rg'on

1886 yilda madrassani tamomlab, To'raqo'rg'onga qaytadi va qishlog'ida yangicha usulda maktab ochadi. U o'z maktabida nisbatan ilg'or usullarni qo'lladi, bolalarni tez savodli qilish yo'llarini izladi. Bu aynan jadidlarning usuli ediki Ibrat buni ancha erta amalga oshirganligini alohida ta'kidlash zarur. SHuning uchun ham uning maktabi joxil ulamolar, mutassib ruhoniylar tomonidan ta'qibga uchradi, «Kofirlar maktabi» deb e'lon qilindi. yoshlarni bu maktabga borishdan qaytardilar va chor xukumatning ma'murlari yordami bilan maktabni yoptirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu Ishoqxon to'raning joxil qora guruhlar va chor amaldorlari bilan birinchi to'qnashuvi edi. SHundan so'ng Ibrat onasining iltimosiga ko'ra u kishini olib xaj safariga jo'naydi va ko'p yillar chet ellarda yurishga majbur bo'ladi. Avvalo, onasi 1891 yilda vafot etib, Jidda shahriga dafn etiladi. SHundan keyin Ibrat Turkiya, Bolgariya, Afina, Rim kabi yurtlarga sayohat qiladi. Ancha vaqt Jidda, Qobul shaharlarida istiqomat qiladi. 1892-1896 yillarda Hindistonning Bombay va Kalkutta shaharlarida yashaydi. Bu yerlar katta port shaharlari bo'lganligidang to'rt til – arbailison ishlatiladi. SHu bois Ibrat arab, fors, xind-urdu va ingliz tillarini o'rganadi. Keyinchalik yozadigan asarlari uchun materiallar to'pladi.

Ishoqxon to'ra 1896 yilda Hindistndan Birma orqali Xitoyga, so'ngra Qashqarga o'tadi va bu yerdan ona yurti Namanganga qaytib keladi. Qariyb o'n yillik sayohat undan katta taassurot qoldirgan edi. Ibrat u mamlakatlarda madaniyat va texnika yutuqlari, fan va sanoat yangiliklari

bilan tanishdi. 1911, 1913, 1914 yillarda Toshkentga ham keladi. U qayerda bo'lmasin, ilm-ma'rifat yangiliklarini o'rganadi va xalqini bilimli qilish yo'llarini izladi.

Ishoqxon Ibrat iste'dodli shoir sifatida ham ma'lumdir. U turli mavzularda rangba-rang, go'zal she'rlar yaratgan. U o'zining she'riy asarlarini to'play, «Devoni Ibrat» nomi bilan to'plam xoliga keltirgan – ammo bu qo'lyozma devon 1937 yilda shoir qamoqqa olinishi munosabati bilan o'tkazilgan tintuvda olib ketilgan va yo'qotilgan. Unga qaramay, uning ayrim she'rlari vaqtli matbuot saxifalari, varaq-varaq qog'ozlar, o'sha vaqtda tuzilgan zamondosh shoirlarning bayozlari orqali yetib kelgan. Ibrat asosan o'zbek, qisman fors-tojik va arab tillarida ijod qilgan. U Jomiy, Navoiy, Bobur va Mashrablarni o'ziga ustoz deb bilgan. SHoirning ko'pchilik g'azallari an'anaviy usuldayozilgan bo'lib, oshiq-g ma'shuqa hajrida azob chiqayotganligini ifodalaydi. Uning she'riyati yuksak badiiyligi, go'zalligi, soddaligi bilan ajralib turadi. Fikrlarimiz asossiz bo'lib qolmasligi uchun shoirning quyidagi g'azalini keltiraylik:

Sarv bo'ylik xush qadam ra'no sifat, xush keldingiz,
YUrishing tovus kibi barno sifat, xush keldingiz.
Lablaring shahdu shakar, oq tishlaring durdonadur,
Ko'zlaring bodomitar Laylo sifat, xush keldingiz.
Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt,
Nur diydami, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz.

Ayni paytda Ibrat o'z she'rlari bilan chor hukumati va mahalliy amaldorlarning xalq boshiga solayotgan kulfatlari haqida bong urdi. SHoir o'zining «Bo'lubdur» radifli hajviyasida davrning illatlarini dadillik bilan ochib tashlaydi:

Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,
Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur.
Olim ila faqirda zuhdu amal bo'lunmay,
YOinki amri maoruf go'yo nihon bo'lubdur.
Madrasalar ichinda ko'p fitna birla sho'rish,
Har kunda o'n xil urush, oq salla non bo'lubdur.
Qassobu qo'yfurushlar, jangu jadal urushlar,
Bechoralar puliga go'sht ustuxon bo'lubdur.
Ellikboshi deganlar uy boshida eganlar,
O'z mansabiga mag'rur go'yoki xon bo'lubdur.

SHoirning 14 band 84 misradan iborat «Qarz» radifli musaddasi bor. Bu asar 1913 yilda «Turkiston viloyatining gazetisi» da chop etilgan. SHoirning ushbu musaddasida mustamlaka Turkistondagi kambag'al dehqonlarning hisobsiz soliqlar natijasida boshiga tushgan cheksiz musibatlar, qimmatchilik, ocharchilik tufayli bardoshi qurigan xalqning og'ir ahvoli tasvirlanadi. CHor hukumati mustamlaka o'lkani asosan paxta bazasiga aylantirib, paxtaning tannarxini kamaytirish, boshqa mahsulotlarning bahosini oshirish evaziga xalqning turmushini nochor ahvolga keltirib qo'ydi. Paxtani etishtirib ham tegishli daromad ola olmayotgan dehqonlar qarz olishga majbur bo'lar, keyin esa qarzini to'lolmay, arzimagan pul evaziga tirikchilik qilib turgan bir parcha yerlarini ham sotishga majbur bo'lganliklarini ifodalaydi.

Farg'onada bu vaqtida beqaraz kimsa yo'q,
Ming so'm aqalli qarzi bo'lsa, qorni to'q.
Sarf xarajat aylab o'zin ayladi uluq,
Bechoralarni qilgusi bordir chuluk-chuluk.
Keldi bo'larni boshiga birdan baloyi qarz,
Bo'ldi tamom shohu gado mabtaloyi qarz.
Bormi bu vaqt hech kishi qarz bo'lmagan?
Bordur hammada qarz, agar bo'lsa unmagan.
YO qarzi yo'q bo'lurki, onodin tug'ulmagan,
YO faqru faqo ichra bu dunyoni olmagan.
Keldi bo'larni boshiga birdan baloyi qarz,

Bo'ldi tamom xalqi jahon muhtalofi qarz.

Ibrat iste'dodini sho'irgina emas, ayni paytda ulkan olim ham edi. Undan katta ilmiy meros ham qolgan. «Lug'ati sitta al-sina» bu asar olti tillik lug'at bo'lib, unda o'zbekcha-ruscha-arabcha-forscha-turkcha-hindcha so'zlar ma'nosi berilgan, e «Jome ul-xutut» /«YOzuvlar majmuasi»/, «Mezon ul-zamon», «Zamon o'lchovi», «Tarixi Farg'ona» asarlari shular jumlasidandir. Ibratning «Lug'ati sita al-sina» asari 1901 yilda Toshkentdagi Ilpin litografiyasida bosib chiqargan. Muallif bu lug'atida avvalo mahalliy aholining rus tiliga va SHarq tillariga bo'lgan qiziqishini hisobga olgan. Rus tilini o'rganish va o'zlari tashlik etgan yangi maktablarida bu tilni o'rgatishni orzu qilgan o'zbek ziyolilari, usuli savtiya maktabining o'qituvchi va o'quvchilari bu asarning yaratilishidan xursand bo'ldilar. Lug'at xiyla murakkab tuzilgan bo'lib, unda dastlab o'zbekcha so'zlar berilgan. Keyin shu so'zning arabcha, forsa, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. Lug'at mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 sahifadan iborat. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qism alfavit tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Bu qismda so'zlarning feollarning noganiq va kelasi zamon shakllarida tarjimalari bilan berilgan. Ibrat mazkur asariga material to'plar ekan, jonli tilda ko'p qo'llaniladigan eng faol so'zlarni tanlab olishga e'tibor bergan. Unda iste'moldan chiqqan eski so'zlarni qariyb uchratamiz. Muallif lug'atdagi so'zlarni keng xalq ommasiga tanish va tushunarli bo'lsin uchun arabyozuvida tuzgan. Hatto o'ruscha so'zlarni ham arabyozuvida beradiki, muallif bu mushkul vazifani mahorat bilan ado etgan.

Asarning ikkinchi qismi 37 bobchadan iborat bo'lib, fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, hashoratlar va parrandalar, oziq-ovqat nomlari va boshqa narsa-predmetlarning nomlarini o'z ichiga oladi. Bu qismda avval arabcha, keyin uning forsacha, turkcha, hindcha, o'zbekcha va ruscha tarjimalari berilgan. Mingdan ziyod faol so'zlarni o'z ichiga olgan bu lug'at o'z davrida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hali lug'atshunoslik tarixida bunday ko'p tillilik tajriba olib borilmaganligini hisobga olsak, o'zbek leksikografiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ishoqxon Ibratning «Jemeoul xutut» nomli ilmiy asari eng ibtidoiyo'zuvdan to so'ngi davrlarning mukammalyozuvigacha bosib o'tgan tarixiy yo'liniyoritib berishga bag'ishlangan. Olimning mazkur asari hajman katta bo'lib, 132 betdan iborat. U 1912 yilda o'z bosmaxonasi «Matbaai Ishoqiya»da nashr qilingan. Muallif bu asarning yozilishi tarixi, ko'zda tutgan maqsadi, asarning nomlanishi to'g'risida quyidagilarni yozadi: «Bul xatlarni boqiy va tarix qarori muddao bo'lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdindan va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etib, bu misra mujibi:

Asardurki, olmag'a 'olg 'ay nishon,

Kishi beasardir ketar benishon

mazmuniga botadvin

aylab, royi soqib, arbob xasm va arbobi fazlu kamollariga manzur qilib, millatga nishon qoldirib, ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqini nafo olmoqqa muddao bo'lib, adabiy milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim.» Asar dunyoda mashhur bo'lgan 41 xilyozuv sistemasi haqida ma'lumot beradi.

Ishoqxon Ibrat chin qalbidan o'z xalqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istagan va bu istagini amalga oshirish uchun bilimini, kuch-g'ayratini, mablag'ini ayamagan zot edi. U tilshunoslikka oid asarlaridan tashqari xalqimiz tarixiga bag'ishlangan «Tarixi madaniyat» va «Tarixi Farg'ona» asarlarini ham yaratdi. Bu asarlarni yaratishda Ibrat SHarq, rus va Evropa sharqshunoslarining ilmiy asarlaridan ham bahramand bo'ldi. Tarixiy asarlarida ro'y bergan voqea-hodisalarni haqqoniyyoritishga urindi. Ibratning quyidagi so'zlari uning asar yaratishda ko'zda tutgan maqsadini, estetik tamoyilini yaqqol ifdalaydi: «Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaro'iy bo'lib, jug'rofiy, madaniyyoki sano'iy bo'lmay, faqat u xonlarning urushlari birla ado qiladurlar. Binobarin, men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maktab va aqlning kosasiga sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zixurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabi tarixlardan ko'proq yozdim. Bu «Tarixi Farg'ona»ni yozmoqdin maqsad izhoi hunaryoki musannif qatoriga kirmakyoki taomni tiriklik yo'lidan bo'lmay, balki bani basharning tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat

va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin kelaturgonlar o'tganlarning turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamonni tarozu qilib, vazniki bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur.»

«Tarixi Farg'ona» asari XIX asrning boshlaridan to Xudoyorxon xukmronligi tugatilib, ruslar tomonidan bosib olinishigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Tarixchi olim Amir Umarxon saltanatini qalamga olar ekan, uning shoirlik iqtidoriga yuksak baho beradi, xonni «jannatmakon» deb taoriflaydi, odil xon sifatida ulug'laydi. Ibrat o'z asarida Umarxon davrini ilm-fan, madaniyat va adabiyot-sanoat rivojlangan davr sifatida baholaydi. Uning saroyida ijod qilgan Fazliy Namangoniy, Sultonxon to'ra Ado, Xijlat, Afsus, Gulxaniy, Maxmur, Hozin, G'oziy, Nodir kabi shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Keyin taxtni egallagan o'g'li Muhammad Alixon xukmronlik qilgan davr to'g'risida ma'lumot beradi. Tarixchi olim bu davr haqida gapirar ekan, Qo'qon xonligining Buxoro amirligi bo'lgan to'qnashuvlari, uning sabablarini ham xaqqoniyyoritadi. Madalixonning maishatga berilganligi, xalq bilan ishi bo'lmay qolganligi uning inqiroziga sabab bo'lganligini yashirmaydi. Ayni paytda Nasurulloning Qo'qonda o'tkazgan qirg'iniga alohida to'xtaladi, ayniqsa Nodira va nabiralarning amir Nasurullo tomonidan o'ldirilishi voqeasiniyoritar ekan, o'zining hayajoni va nafratini yashirmaydi. Asarda Nodira bir mushtipar ayol emas, balki jasoratli, mag'rur ona, norasida go'daklarning qo'rqmas himoyachisi, amirning yaxshiyona qilmishlarini fosh etuvchi botir ayol sifatida namoyon bo'ladi. U amirga bo'lga o'z nafratini ochiq aytishdan tap tortmaydi. SHoira va malikaning bu jasorati asarda quyidagicha ifodalanadi: «Ey zolim! Otasi senga osiy bo'lgan, bu norasida senga nima guno' qildi? Berahm zolim, qizil qonga bo'yading! Sen ham mendek nuriychashmingdan ajrab, honavayron bo'!» deb alfos ila og'ziga nima kelsa, qaytarmay, amirni hech pisan qilmay turganda, ona yaqinlarining hammasini so'ydirgan ekan. SHu bilan birga Ibrat bu mash'um voqealarniyozar ekan, o'sha davr shoirlarining tarix she'rlaridan foydalanadi, amirni «botir qassob» deb ataydi.

Olim ushbu asarida o'zi tasvirlagan Qo'qon xonlarining faoliyatini xronologik tarzda bayon qiladi. Ayniqsa, Qo'qon xonligining so'nggi xukmdori Xudoyorxon davriga va uning faoliyatiga keng o'rin beradi. Ibrat asarida tarixning qonli saxifasi bo'lgan qipoq qirg'iniga maxsus to'ztaadi. Xudoyorxon Bilqillamada Musulmonqulni tor-mor keltirib, uning lashkarlarini qirib tashlash bilangina cheklanmaydi. Farg'ona vodiysida hamda Toshkentda yashovchi qipchoq aholisiniyoshu qari, bola-chaqa demay qilichdan o'tkazishga farmon beradi. Bu haqda siz A. Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida o'qigansiz.

Ibrat «Tarixi Farg'ona» asarida Ma'dalixon va Xudoyorxonlarning maishatparastligini, nodon va joxilligini, atrofidagi manfur shaxslarning gaplariga kirib, mamlakatni xarob qilganliklarini ro'y-rost ochib tashlaydi. Mana shu qilmishlari evaziga biri Buxoro Amirligi, ikkinchisi Rusiyaning imperiyasi tomonidan osongina zabt etildi. Muallif asarda Rusiyaning bosqinchilik yurishlarini asarning 104-155 betlarida keng va xaqqoniyyoritib beradi.

Muammoli masalaga javob: Ibrat she'riyatida davrning dolzarb masalalari kengyoritiladi. Ularda Turkistondagi dehqonlarning soliqlaridan ezilgan og'ir 'olati («Qarz»radifli she'rida), nizolarning avj olishi, parokandaliklar («Bo'libdur» radifli g'azalida), amaldorlarning xalqqa zalm o'tkazishlari («Ellikboshlar»radifli g'azalida),fan-texnika borasidagi yangiliklar («Vagon keldi», «Foyizdin» g'azallari) kengyoritilgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ibratning hayot yo'li haqida gapiring?
2. Ibrat qaysi chet el mamlakatlarida bo'ldi?
3. Ibratning ilmiy-adabiy merosi haqida gapiring?
5. Ibrat she'rlari qanday mavzulardayozilgan?
6. Ibratning lug''ati qanday tuzilgan?
7. Ibrat tarixchi olim sifatida
8. «Tarixi Farg'ona» asarining yaratilishi va qamrab olingan davr

9. Rus istilosining fosh etilishi?
10. Ibrat ijodi va ma'rifatparvarlik faoliyatining ahamiyati?
11. Ibrat ochgan maktablar va unga munosabat?

4-MAVZU: JADIDCHILIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI (XIX ASRNING OXIRI, XX ASRNING 20-YILLARIGACHA)

DARS REJASI:

1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.
2. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, muammo va tortishuvlar.
3. Jadidlarning maorif, matbuot va teatr sohasidagi islohotlari.
5. Jadid adabiyotining paydo bo'lishi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., 1995.
3. Qosimov B. Jadidchilik. "Milliy uyg'onish" to'plami. ToshDU. 1993.
4. Rizaev SH. Jadid dramasi. T., 1997.
5. Solijonov Y. Tong yulduzlari. F., 1995.

TAYANCH IBORALAR:

1. Ijtimoiy-siyosiy sharoit va jadidchilik harakati.
2. Jadidlarning asosiy maqsadlari.
3. Maorif va islohot.
4. Jadidlar, matbuot va teatr.
5. Jadid adabiyotining bosh g'oyasi.
6. Jadid adabiyotida vujudga kelgan yangi janrlar.
7. Daramatik tur.
8. Epik tur.

Darsning maqsadi: Jadidchilik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, bu adabiyotni yuzaga keltirgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy omillar, jadid adabiyoti namoandalari ijodiniyoritish.

Jadidchilik harakati Turkistonga XIX asrning 90-yillarida kirib kelgan va ommaviy tus ola boshlagan. Bu harakatning paydo bo'lishi qirim-tatar ma'rifatparvar Ismoilbey Mustafobey o'g'li Gaspirali nomi bilan bog'langan. Bu ilg'or ta'limotning paydo bo'lishi mustamlaka Turkistonning og'ir davriga to'g'ri keldi. O'lkada rus shovinizmi avj olgan, ikkiyoqlama zulm xalqning tinkamadorini quritgan, bu aholining norozilik ko'tarishlariga sabab bo'layotgan edi. Ayniqsa, XX asr boshlarida xalqimiz ahvoli juda og'irlashdi. Birinchi rus inqilobi deb atalga 1905 yilgi qonli voqealar va uning oqibatlari Turkistonning boshiga ham qora kunlarni soldi.

Jadidchilik harakati mana shu ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitning mahsuli, hayot talabi, ehtiyoj farzandi sifatida dunyoga keldi. Bu tabiiy, tarixiy hol edi. Chunki rus mustamlakachilari amalga oshirayotgan istibdod siyosatining mudhish oqibatlarini 1-bo'lib jadid - ziyolilar payqadilar. Jadidizm yangilik tarafdorlarini birlashtirgan, prof. B.Qosimov ta'biri bilan aytganda, Turkiston marksizm ta'limoti kirib kelgunga qadar xalqning ongiga singigan ta'limdir. Bu ta'limot o'z dasturi, o'ziga xos tamoyillari va yo'nalishlariga ega edi.

Biz mustamlakachilik davrini o'rganganimizda rus kolonizatorlari maktab - maorif sohasida "sopini o'zidan chiqarish" maqsadida Turkistonda ko'plab rus-tuzem maktablari ocha boshlaganini, ularga ko'proq mahalliy bolalarini qabul qilganliklarini aytgandik. 1916-yilga kelib, O'zbekistondagi rus-tuzem maktablarining soni 212 taga etdi. Aksincha, o'lkadagi eski maktablar iloji boricha kamaytirilib, ta'qiqlanib, kamsitilib yurildi. Akademik Qori-Niyoziy o'z esdaliklaridayozishicha, mashhur rus pedagogi A.V.YAxontov Marg'ilon madrasalarini tekshirib, ularning og'ir ahvoli to'g'risida Farg'ona general-gubernatori Ivanovga axborot yozib beradi va bu holni o'nglash kerakligini aytadi. General gubernator esa YAxontovni huzuriga chorlab, uni qattiq koyiydi va olimning e'tiborini o'lkada ahvol "shunday bo'lishi lozimligiga, chunki bu imperator hazratlarining siyosatiga muvofiq" ekanligiga qaratdi. Demak, xalqni savodsiz, ongsiz, huquqsiz

tarzda tutib turish mustamlakachilarning oliy niyati edi. M.Miropiev degan rus siyosatchisi esa to'g'ridan-to'g'ri "musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi bosh printsip ruslashtirishdir... Ikkinchi printsip - islomni buzish" deya yol-yo'riq bergandi.

Jadidlar o'zlari ochgan maktablarda diniy bilim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitishni ham yo'lga qo'ydilar, rus va boshqa chet tillarini o'rganishga e'tibor berdilar. O'zlari chet ellarga borishib, o'qish-o'qitishning yangicha usullarini o'rganib keldilar, maktablari uchun kitoblar, qo'llanmalar olib qaytdilar. Jadid pedagoglarining o'zi darsliklar yaratdilar va nashr qildilar. Jadidlarning bunday xatti-harakatlari albatta, rus kolonizatorlariga ma'qul tushmasdi. SHuning uchun ular qadimlarni jadidlarga qarshi qayradilar. Qadimlar ularni "kofirlar" deb e'lon qildilar.

Jadidlar o'zlari ochgan maktablarda faqat tez savod chiqarishnigina emas, ayni paytda keng ma'nodagi ma'rifatni, taraqqiyotni ham nazarda tutganlar. SHu ma'noda jadidchilik harakatini birgina ma'rifatparvarlik faoliyati bilan cheklab qo'yish mumkin emas. Binobarin, jadidlar maktab va madrasalarda isloh o'tkazishdan asta-sekin kengroq ma'noda faoliyat ko'rsatishga kirishdilar - hayotni, turmushni yangilash, buning uchun istibdod zanjirlaridan xalos bo'lish masalasini ko'tarib chiqa boshladilar. Zero, mustaqil bo'lma turib, hayotni o'zgartirish, yangilash mumkin emasdir. SHu ma'noda jadidizmyolg'iz ma'rifiy-madaniy oqimgina emas, balki ayni paytda, siyosiy oqim sifatida ham ahamiyatlidir.

Jadidlar o'zlarining bu siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun maorif sohasidan tashqari va teatr kuchiga ham tayandilar. Jadid matbuotining ilk nashri "Tarjumon" gazetasi bo'lib, u 1883 yilda Qrimda I.Gespirali tomonidan chiqarilgan. Gazeta asosan ommani ilm olishga chaqiradi. SHuning uchun ham obunachilar yildan yilga ko'paydi. Bir yining o'zida 320 tadan 1000 taga etdi. Turkistonda uning 200 ta doimiy obunachisi bor edi. Uning ta'sirida Turkistonda ham birin-ketin gazetalar paydo bo'la boshladi. Turkiston jadidlari chiqargan ilk qaldirg'och gazeta "Taraqqiy" bo'lib, u 1906 yilning yanvaridan 31.03 gacha haftada ikki martadan chiqib turdi. Gazetaga Ismoil Obidiy muharrirlik qilgan. Lekin tezda gazeta kofirlar gazetasi debyopildi. 1906-yil sentbridan Munavvarqori muharrirligida "Xurshid", 1907-yildan Avloniy tomonidan "SHuhrat" gazetolari chiqa boshladi. Ammo bu gazetalar ham atigi 2 oydan umr ko'rdilar xolos. 1908 yildan chiqa boshlagan "Osiyo" esa 5 ta soni chiqqach, to'xtadi.

Jadidlarning xalqni uyg'otish uchun foydalangan vositalaridan yana biri teatr edi. Boisi, bu paytda aholining hammasi ham savodli emasdi, har bir xonadonga gazeta va jurnal kirib bora olmas, ularni faqat savodli va puldor odamlargina o'qir edilar. YUzlab, minglab oddiy odamlarga qisqa muddatdan o'zining ayanchli hayotini ko'rsatishning yagona yo'li teatr edi. Zero, Munavvarqori ta'biri bilan aytganda, "Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsam, aybu nuqsonini ko'rib ibrat olur.. Teatr ulug'lar maktabidir".

Dastlab Samarqandda Behbudi, keyin Toshkentda Munavvarqori, Avloniy, Qo'qonda Hamza Hakimzoda tomonidan dramaturgruppalar tashkil etildi. Mazkur dramtruppalarning repertuarlarini ta'minlash maqsadida adiblar sahna asarlari yozishga kirishdilar va adabiyotda dramatik tur paydo bo'ldi. O'zbek dramaturgiyasi va sahnasining birinchi namunasi Mahmudxo'ja Behbudiyning "padarkush" p'esasi bo'lib qoldi. Qisqa muddatda o'nlab dramalar tug'ildi. Abdulla SHahidiy "mahramlar", Nusratulla Qudratillaxo'janing "To'y", A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdulla Badriyning "Axshoq", "Juvonmarg", Hoji Muinning "Ko'knori", "Eski maktab", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak", Hamza Hakimzodaning "Zaharli hayot" dramalari shular jumlasidandir. Bu dramalarning yozilish tarixi, qisqa mazmuni to'g'risida ma'lumot beraman.

Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotning shakli va mazmuniga jiddiy o'zgaishlar olib kirdi. Bu o'zgarishlarning birinchisi adabiyotda hali shu paytgacha ko'rinmagan yangi janrlarning paydo bo'lishida ko'rindi. Avvalo, jadid adabiyotda tamomila yangi publitsistika janri vujudga keldi va XX asr adabiyotida mustahkam o'rin egalladi. Birgina Behbudiyning o'zi 200 dan ziyod publitsistik maqolayozdi. Avloniy, Munavvar qori, Mirmuhsin, Hamza kabilar o'zbek publitsistikasining beshigini tebratgan ijodkor bo'lib qoldilar. Talabalarga ularning publitsistik faoliyatiga oid ayrim ma'lumotlar bilan tanishtiraman.

Jadid adabiyotida she'riyat ruhan yangilandi. Asrlar mobaynida qon-qoniga singigan sokin pand-nasihatdan jangovar murojaatga, keskin targ'ibotga o'tdi va bu bilan xalqning ruhini yangilashga, o'zlarini anglatishga kirishdi. SHaklda asta-sekin aruz vazni qobig'iniyorib chiqishga urinishlar sezildi. Bu borada Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Hamza, CHo'lponlar ibrat ko'rsatdilar. SHE'riyatga millatni asoratdan qutqarish, ozodlik g'oyasi kirib keldi. Bu g'oyalarni esa sokin usulda, ko'hna aruz vaznida ifodalash mumkin emasdi. Fikrlarimni ayrim misollar bilan kengaytiraman.

Jadid adabiyotida realistik proza paydo bo'ldi. Aslida proza o'zbek adabiyotiga begona emas. U adabiyotning ilk shakllanish davridan beri hamroh bo'lib keladi. Ayniqsa, hikoya janri o'zining ma'lum an'alariga egaligi bilan ajralib turadi. Jadid adabiyoti oyoqqa turgan paytga kelib hikoya janri ham mavzusi, ham mazmuni jihatdan yangilanish yo'liga kirdi. Unda realistik unsurlar, hayotiylik, detallarning haqqoniyligi kuchaydi. Bu jihatdan CHo'lponning "Doktor Muhammadyor", "Qurboni jaholat", A. Qodiriyning "Juvonboz", "Uloqda" kabi hikoyalarga to'xtalib, ularni tahlil qilaman. Realistik unsurlarning mustahkam o'rin olishini misollar bilan tushuntiraman.

Epik turning eng yirik janri roman ham jadid adabiyoti bag'rida tug'ildi va voyaga etdi. Dastavval roman atamasi iste'molga kirib keldi. Uni birinchi bo'lib Hamza Hakimzoda tilga oldi va "1908 yilda "haqiqat kimda" nomli o'tmish honlar hayotidan romanyozdim" deydi. Keyinroq shu adibning "YAngi saodatyohud milliy roman" asari dunyoga keldi. Mirmuhsin SHermuhammedovning "Befarزند Ochildiboy" nomli romani ham shu davr 1914-yil mevasidir. Romanda badavlat va mulkdor Ochildiboyning hamda undan qarzdor bo'lib qolgan kambag'al Ko'rahmadning hayoti va fe'l-atvori qiyosan tasvirlanadi va faqir kishi timsolida atroflicha ko'rsatishga harakat qiladi.

O'zbek adabiyotida roman janrining mukammal namunasi bu A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bo'lib, biz bu roman to'g'risida A. Qodiriy hayoti va ijodini o'rganganimizda maxsus to'xtalamiz.

Xullas, shuni alohida qayd etish lozimki, jadid adabiyoti aholini ma'rifat, istiqloлга targ'ib etganligidan uning hamma janrlarida ham publitsistik ruh kuchli edi, grajdanlik tuyg'ulari ustuvor edi, xalqni milliy o'zligini anglashi chaqiriq yetakchi edi. Bu jadid adabiyotining o'ziga xos fazilatlaridir.

Muammoli masalaga javoblar: Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi sabablari sho'ro mafkurasi hukmron bo'lgan davrlarda o'rganilmagan, uning namoyandalari ijodi faqat tanqidiy o'rganilar edi. CHunki jadidlar har qanday mustamlakachilikka bar ham berishni, milliy hamjihatlikni, turli shovinistik qarashlardan holi bo'lgan mustaqil davlatni yuzaga keltirishi, matbuot, idora usuli, o'qitish tizimi borasida tub islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashni ko'zlagan edilar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi.
2. Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi kim edi?
4. Ismoiyl Gaspirali haqida ma'lumot bering?
5. Jadid so'zining ma'nosi nima?
6. Jadidlarning asosiy maqsadlarini ayting?
7. Jadid adabiyotining asosiy g'oyasi qanday bo'lgan?
8. Jadid adabiyoti va ma'rifatparvarlik
9. Jadid adabiyoti va mustaqillik g'oyasi
10. Jadid adabiyotida qanday yangi janrlar vujudga keldi?

5-MAVZU: MAHMUDXO`JA BEHBUDIY IJODI (1875-1919 Y.)

DARS REJASI:

1. Behbudiy - Turkistondagi jadidchilik harakatining boshlovchisi.
2. Behbudiyning tarjimai holi. Uning vafoti tafsilotlari bilan bog'liq muammo va munozaralar.
3. Behbudiyning tarjimai holi.
4. Behbudiy merosi.

ADABIYOTLAR

1. B.Qosimov. Maslakdosh. T., 1994.
2. B.Nazarov. Mahmudxo'ja Behbudiy. O'zbek tili va adab. j. № 3-4. 1992.
3. Y.Solijonov. Tong yulduzi. F., 1995.
4. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
5. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T., 1997.

Darsning maqsadi: Behbudiy tarjimai holi, faolyati, badiiy merosi haqida atroflicha ma'lumot berish.

Prof. A.Sadiy ta'biri bilan aytganda "O'bek milliy adabiyotining negiz-toshini" qo'yganlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy 19-asr oxiri, 20-asr boshlarida Turkistonda keng qanotiyogan jadidchilik harakatining bayroqdori hisoblanadi. O'zbek publitsistikasi, dramaturgiyasi, yangi tizimdagi pedagogikasi taraqqiyotini Behbudiy nomisiz tasavvur etish mumkin emas. Behbudiy 1895 yilda Samarqand viloyatining Zomin tumaniga qarashli Baxshitepa qishlog'ida ruxoniy oilada tug'ilgan. Savodli, ziyoli oilada dunyoga kelgan. Mahmudxo'ja avval qishlog'idagi maktabda, so'ng madrasada o'qidi.yoshligidan boshlab arab, fors, turk tillarini puxta o'rgandi. 1900-yildan boshlab Arabiston, Turkiya, Misr singari mamlakatlarga sayohat qildi. Makkayu-Madinani Ziyorat qidi. Rusiyaning Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg kabi yirik shaharlarida ham bo'ldi. Qayerga bormasin, dastavval u yerdagi maktablarda bolalarni o'qitish, o'qitish usullarini o'rgandi. Darsliklar, kitoblar, qo'llanmalar to'pladi va olib keldi.

SHunday qilib, mufti Mahmudxo'ja Behbudiy xalq maorifining chinakam jonkuyari, milliy qahramonlaridan biriga aylandi. Sayohatdan ona yurtiga qaytgach, bu erda "Usuli savtiya"ga asoslangan jadid maktabi ochadi. O'quvchilar savodxonligini oshirish, o'qitishni yanada yaxshilash maqsadida chet ellardan keltirgan darslik, qo'llanmalardan tashqari o'zi ham bir necha darsliklar yaratadi va o'z hisobidan nashr qiladi. Muallimning "Risoli asbobi savod" (1904), "Kitob ul-Atfol" (1906), "Aholi geografiyasiga kirish", "Mathali jo'g'rofiyai umroni", "Muxtasari jo'g'rofiyai rusi" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi"), "Muntaxabi jo'g'rofiyayi umumiy", "Muxtasari tarixi Islom", (Amaliyoti Islom) kabi darsliklari o'z davrining mashhur dasriklariga aylandi va qayta nashr qilindi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1914- yilda yana bir marta Turkiyaga borib, Samarqand maktablari va kitobxonolari uchun ko'plab kitoblar olib kelgan.

Behbudiy xalqning ko'zini ochishda matbuot hamda teatrning roliga alohida e'tibor bergan. Birinchi Jahon urushi arafasida chiqa boshlagan "Samarqand"gazetasi", "Oyna" jurnalining nashr etilishi bevosita Behbudiy nomi bilan bog'liqdir. Samarqandda teatr truppalari tashkil etish va ularni repertuarlarini mahalliy mualliflarning p'esalari bilan ta'minlash borasida ham Behbudiy g'ayrat ko'rsatgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy nomi Turkiston mustaqilligining bayroqdori sifatida ham qadrlidir. U ijtimoiy - siyosiy faoliyatining ilk bosqichidan boshlab, ozodlik uchun kurashdi. 1917-yilgi fevral, so'ng oktabr to'ntarishlarini alohida xursandchilik bilan kutib oldi. Endi CHor Rossiyasining iskanjasidan xalos bo'lamiz deb umid qildi. Lekin keyingi voqealar umidini puchga chiqardi. SHundan so'ng Behbudiy mustaqillik yo'lida amaliy ishga kirishdi. 1917-yil fevral oyida bo'lib o'tgan umumturkiston musulmonlarining qurultoyida Turkistonni Rusiya tarkibidan ajratib olib, mustaqil davlat tashkil etish talabi bilan chiqdi. Noyabr oyida o'tkazilgan 4-qurultoyda esa Turkiston muxtoriyati tuzilib, uning rahbarlari tarkibiga kiritildi. 1918-yili Samarqandda Behbudiy tashabbusi va harakati bilan "Musulmon ishchi va dehqonlari sho'rosi" tashkil qilindi.

Albatta, bunday jasoratli harakatlar xalqning ko'zini ilm nuri bilan ochishga intilishlar, mustaqil Turkiston uchun kurashish yangi proletar hukumatiga ham, eski Buxoro amirligiga hamyoqmas edi. SHuning uchun undan qutulish yo'llari izlandi, topildi va tezda ishga solindi va

shunday qilib, istiqlolimiz bayroqdori, o'zbek xalqining jonkuyar farzandi mufti Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yilda Qarshi shahrida qo'lga olinib, pinhona o'ldirib yuborildi. Uning o'limi haqida xabar 2 yildan keyingina ma'lum bo'ldi.

Behbudiy (forscha: 1. YAxshilik, sog'lomlik; 2. Foyda, najot) juda oz umr ko'rdi. Atigi 44yoshda halok bo'ldi. Ammo shu qisqa umri mobaynida juda katta hayrli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Ham muallim, ham noshir, ham teatrshunos, ham adib, ham mufti, ham siyosiy arbob sifatida faoliyat ko'rsatdi va barchasida o'chmas iz qoldirdi. Undan 200 dan ziyod ilmiy - publitsistik maqolalar, 7 ta darslik, "Sayohat xotiralari kitobi", "Vasiyatnoma", "Padarkush" dramasi meros bo'lib qoldi. Hali bu hammasi emas, izlanish davom etayapti, umid qilamizki, bu sermahsul adibning yana ko'plab yangi asarlari topiladi. Hozircha uning 1997-yil bosilib chiqqan "Tanlangan asarlariga 12 tagina maqolasi kiritilgan xolos. Ayni paytda uning so'nggi yillarda topilgan "Oq elpig'ichli chinli xotin" nomli hikoyasi va "Sayohat xotiralari" hamda "Vasiyatnoma"si o'rin olgan.

Behbudiy eng avvalo, publitsistik sifatida mashhur bo'ldi. Inqilobgacha bo'lgan matbuot sahifalarida Behbudiychalik faollik ko'rsatgan boshqa bir publitsistikni topish mushkul. Uning maqolalari faqat Turkiston doirasidagina emas, balki Kavkaz, Volga bo'yi matbuotida ham tez-tez bosilib turardi. Uning maqolalarida ma'rifat muammolaridan tortib, ijtimoiy adolatsizlik muammolarigacha dadil ko'tarilardi. Muallimning maqolalari asosan ilm olishga chiqirish, til o'rganishga da'vat bilan sug'orilgan. "YOshlarga murojaat", "O'quvchilargayordam kerak", "Ibtidoiy maktablarning tartibsizligiyohud taraqqiyotning yo'li", "Bizga isloh kerak", "Muhtaramyoshlarga murojaat", "Etiyoj millat", "Bizni kemirguvchi illatlar", "A'molimizyoiniki murodimiz", "Bayoni hol", "Millatni kim isloh etar?", "Haq olinur, berilmas" singari maqolalarida millatni tanazzulga sudraguvchi illatlar - ortiqcha sarf-harajatlar, loqaydlik, ishyoqmaslik, savodsizlik, ongsizlikka qarshi o't ochiladi. Behbudiyning ta'kidlashicha, millatni o'stirish, uni olamga tanitish, jamiyatni taraqqiy ettirishning yagona yo'li ilmdadir: "haqiqatda taraqqiy va taomil uchun birinchi yo'l va asos maktubdur..."yoki "ilm - maorifatsiz hech bir millat hayot maydonida tura olmas". "Teatr nadur?" maqolasida esa bu savolga o'zi javob berib, "Teatr ibratnomadur, teatr vazxonadir, teatr tazir adibidur" deya javob beradi. Uning ta'kidlashicha, teatr ibodatxona ekan, uni xalq orasiga ko'proq olib kirish kerak.

Behbudiyning o'limidan 2 yil o'tgandan keyin uning "Vasiyatnoma"si e'lon qilindi. Behbudiyning shogirdi, zamondoshi hoji Muin tomonidan "Inqilob" jurnalining 1922-yil 1-sonida bosilgan bu "Vasiyatnoma"dan ma'lum bo'lishicha, Behbudiy hazratlari shunday dahshatli daqiqalarda ham o'zining shaxsiy taqdiri haqida emas, balki kelajak avlodi taqdiri to'g'risida qayg'uradi: "Biz o'z taqdirimizni bilib turibmiz, xotirjam turib oxiratimizni kutmoqdamiz, jonimizni, hayotimizni xalqimiz ma'rifati yo'lga bag'ishlaganimiz bilan taskin topmoqdamiz" deydi-da, shogirdlariga murojaat qiladi: "...Ey, Turkiston maorifi ishlarida bo'lg'on o'rtoq va o'g'lonlarim! Men o'zim garchi bandi bo'lsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib o'taman. Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizar! Maorifgayordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Mumkin qadar yangi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi!"

Boshida qilich o'ynab turganda Ulug'bek ilmu-ma'rifatni o'yladi; hasad va ig'vo qurboni bo'lib saroydan chiqib ketayotganda Navoiy kelajakdan umidvor bo'ldi. Ko'z oldida jallod pichog'i qayrashayotganda Behbudiy hazratlari ham avlodini ilmsiz qoldirmaslikni o'tindi. Bu haqiqiy ma'nodagi jasorat va u ibratga loyiqdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek milliy dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. U 1911-yilda mazkur janrning birinchi namunasi bo'lgan "Padarkush" dramasi yaratdi. Drama dastlab 1912-yilda "Turon" gazetasida chop etildi. Asar to'la ma'noda xalqni ma'rifatli bo'lishga chaqiradi, o'z g'ururini anglashga, maorif va madaniyatni rivojlantirishga da'vat etadi. Albatta, bunday yuksak g'oyani ilgari surgan asarning dunyog kelishiga CHor hukumati ham Turkistonning mustabid

amaldorlari ham qattiq to'sqinlik qildilar. Senzura uni e'lon qilishga mutlaqo ruxsat bermadi. Behbudiy esa buning yo'lini izlay boshladi. Oxiri muallif dramani "Rusiyaning frantsuz istibdodidan qutulishi va Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman" degan izoh bilan senzuraдан ruxsat olishga muvaffaq bo'ldi. P'esa tez orada butun Turkistonga mashhur bo'lib ketdi. 1913-yildan boshlab Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Namangan, Kattaqo'rg'on, Buxoro shaharlaridagi dramtruppa tomonidan sahnaga qo'yildi. O'sha davr gazetasining yozishicha, dastlab Samarqandda qo'yilgan tomoshada "xalq nihoyatda ko'p bo'lib, bilek etmagani va joyning yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi. Ibodatxonaning borliq o'rni 320 nafarga kifoya qilardi. Yana 50 qadar o'rin hozirlangan bo'lsa ham kifoya etmadi. Belatlar bir ikki kun avvalyoshlarni g'ayrati bilan sotilib tamom bo'lib edi."

"Padarkush" dramasi asosini ma'rifatparvar g'oyasi tashkil etadi. Asar nomlanishining o'ziyiq shunga ishora qilib turibdi. Drama to'lig'icha "Padarkushyoki "O'qimag'on bolaning holi" deb atalgan. Muallif asarni "O'zbekiston maishatidan olingan ibodatnoma. 3 parda, 4 manzarali milliy 1-fojea" deb izohlaydi. Bu "ibratnoma" va "ilmiy fojea" iboralari alohida ahamiyatga egadir. Muallif Turkiston xalqi faqat o'qish, ilm egallash, ma'rifatli bo'lish bilangina taraqqiy etishi, dunyoga tanilishi mumkin degan qat'iy fikrni ilgari surdi. Dramadagi boy uning o'g'li Toshmurod obrazlari orqali jamiyatda ro'y berayotgan hamma baxtsizlik va jamiki illatlarning ildizi johillikda, ilmga ma'rifatga loqayd qarashdadir, demoqchi bo'ladi Behbudiy. Boy o'zining mol dunyosiga ishonib, ilmi odamlarni mutlaqo mensimaydi, yolg'iz o'g'lini o'qitishni xohlamaydi. Uning fikricha, "dunyoning sababi, izzati boylikdadir. SHuning uchun ham "odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladilar", hatto musulmonlar nari tursin, o'ris va armanlar-da , izzat qilurlar". O'qiganlarning esa hatto emakka noni ham yo'qtur deb masxaralaydi. Toshmurod ham ana shunday ruhda tarbiyalangan. Toshmurodning johil, hudbin beadab, mehsiz bo'lib o'sayotganligi dramaning boshlanishidayoq bilinadi. U xonaga kirar ekan, na otasiga, na mehmon domullaga salom beradi. Beodoblarcha dag'allik va loqaydlik bilan tomoshaga borishini aytib, otasidan pul so'raydi. Unga qo'pol muomala qiladi. Andishasizlik bilan gapini qaytaradi. Domulla bilan boyni suhbatidan anglashilishicha, Toshmurod voyaga etib qolganligiga qaramay, na eski maktabda, na yangi maktabda, na madrasada o'qimaydi. Otasi uni o'qitmoqni o'ylamaydi ham. Boyligim o'zinga-da, o'g'linga-da yetadi. Davrimda o'ynab olsin deb o'z holiga tashlab qo'ygan. Bundan havoyi bo'lib ketgan Toshmurod bema'ni bolalarga qo'shilib, maishatga beriladi. Oxir -oqibat boy o'z beparvoligining jazosini tortadi, maishatlariga pul yetmay qolgach, ulfatlari Toshmurodni otasining pulidan o'g'irlab kelishga yuboradilar. Ota-onasiga zarracha bo'lmagan boyvachcha bu shartga darhol ko'nadi. Tangriqul bilan uyga borib, otasini o'ldirishadi-da, pulga ega bo'lgach, mayxonada maishatni davom ettiradilar.

Dramada muallifning g'oyaviy niyatlarini tashuvchi, o'zida ma'rifatparvarlik g'oyasini mujassamlashtirgan obrazlar domulla va ziyolidir. Ularning ikkisi ham maqsadlarning mushtarakligi bilan bir-biriga yaqin, fikr doirasi jihatidan esa farqlanadilar. Domulla yangi fikrli qishloq mullasi, ilmning qadriga yetgan har bir odam uchun "o'qimoq qarz ham ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxirat" deb bilgan kishidir. Uningcha, boyvacha had savodli bo'lsa, shariat ilmi va zarurati dinini bilsa, ishi yurishadi. Turkistondayoshlar o'qimaganligidan keyingi paytda barcha savdo ishlari ajnabiylar qo'lga o'tib ketdi, yurt xarobalikka yuz tutmoqda. O'qimagan odam bundan keyin xor-zor bo'ladi. Lekin boy domullaning bu gaplariga parvo qilmaydi, uni nazar pisand qilmay, uydin haydab chiqaradi.

Ziyolining qarashlari va fikri orqali Behbudiy o'z g'oyalarini kengroq ifodalaydi. Muallifning ziyoli tilidan ta'kidlashicha, "...Ilmu hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur." Ziyolining fikricha, Turkiston xalqining ro'shnolikka erishmog'i, ravnaq topmog'i uchun 2 toifadagi olimlar zarur. Domullaning qarashlaridan farqli o'laroq, ziyoli har ikki toifadagi ulamolar faqat o'z yurtimizda o'qish bilan cheklanib qolmay, chet ellarda ham ta'lim olmoqliklari shartdir, deydi. Masalan, "Olimai diniy", ya'ni diniy yo'nalishdagi ulamo avvalo o'z yurtimizdagi madrasalarda o'qib, arab, fors, turk va hatto rus itlini o'rganib, so'ngra Makka, Madina, Misr,

Istambul kabi ulug' shaharlarda "ulumi diniyani chuqur o'zlashtirib, komil mullo bo'lmoqligi kerak.

Ziyoli, ayniqsa, ikkinchi toifa- "olimi zamoni" -zamonaviy yo'nalishdagi ulamolarni etishtirishga alohida e'tibor beradi. Bu toifadagi yoshlar dastavval, albatta din ilmi egallash, millatimiz tarixi va tilini mukammal bilib olganlaridan keyin hukumatning nizomli maktablari-gimnaziya va shahar maktablariga kirib o'qishlari, ularni tomomlagach, Peterburg, Moskov dorilfununlariga kirib, "duxturlik, qonunchilik, injenerlik, sudoyalik, ilmi hikmat, muallimlik" sohalarini egallashlari lozimdur. SHu bilangina kifoyalanib qolmay, bolalarimizni Farangiston, Amirqo, Istambul mamlakatlariga o'qitmoq uchun yuborishimiz zarur. Bu ishda sohovatpesha boylarimiz ibrat ko'rsatmoqlari kerak. Boy esa alla qachon mudray boshlan, hatto bir tomonga og'ib hurrak ota boshlaydi. Bu g'oyat ta'sirli manzaradir. Behbudiy aytmochiki, Ziyoli jon kuydirib kelajagimiz haqida qayg'urayapti, u umid qilgan boylar esa g'aflat uyqusida. SHundan so'ng ziyoli boylarimizning holi shu bo'lsa, "Ilohi hudoyo Biz turkistonliklarga raming kelsun" deb yig'lab chiqib ketadi.

Xuddi mana shu manzara dramaning finaliga ozuqa beradi. Boy o'z bolasining taqdiriga beparvoligi, loqaydligining jazosini tortadi. To'g'ri, dramada boyning o'g'li Toshmurod emas, uning ulfati Tangriqul pichoqlaydi. Ammo bu asarning "padarkush", ya'ni ota qotili deb atalishiga xalaqit bermaydi. Ayniqsa, bu yerda umumlashma xulosa kuchayadi: otaning, o'limiga, keng ma'noda Turkistonning inqiroziga o'g'ildagi, umumanyoshlardagi johillik, norasolik, ilmsizlik, maishatbozlik, xudbinlik sababchi bo'ldi degan fikr ilgari suriladi. Bunday kuchli umumlashma xulosa drama oxirida Ziyolining quyidagi so'zlari orqali yanada ta'sirchan jaranglaydi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bevatanu bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zaruratu xorliklar xammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir". Ha, ulug' alloma Behbudiyning bashorat qilishicha, dunyoga taraqqiy qilgan xalq faqat ilm vositasi bilangina kamolotga erishishi mumkin xolos.

Muammoli masalaga javob: Keyingi yillarda matbuotda («O'zbekiston adabiyoti va sanoati» gazetasining 1994-1995 yil sonlarida) professor B.Qosimovning «Behbudiyning qabri qaerda?», jurnalist Sayidning «Behbudiyning qatl etgan kim?», «Majburiy «Haj» tafsilotlari», professor N.Karimovning («Jamiyat va boshqaruv» jurn., 1998 yil 1-son) «Behbudiyning so'nggi safari» maqolalari e'lon qilinadi. Ushbu maqolalar masalaga yangichayondoshuvi, ilmiy yangiligi bilan ajralib turadi. Ushbu masala ko'plab tadqiqotlarga, o'rganilishlarga muhtojdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Behbudiy jadidchilik harakatining asoschisi sifatida.
2. Behbudiyning tarjimai holi haqida gapiring.
3. Behbudiy qaysi shaharlarga sayyohat qildi?
4. Sayohatdan qanday maqsad bilan qaytdi?
5. Behbudiy merosi qanday asarlardan iborat?
6. Behbudiy va «Usuli jadidiya» maktabi.
7. Behbudiy va matbuot.
8. Behbudiyning rus mustamlakachiligiga munosabati qanday edi?
9. Uning publitsistik merosini sharhlang.
10. Behbudiy va teatr.
11. Behbudiyning o'limi tafsilotlari haqida nimalarni bilasiz?
12. Behbudiy va o'zbek teatri.
13. «Padarkush» - birinchi o'zbek dramasi sifatida.
14. Dramaning yaratilish tarixi.
15. Dramada qanday g'oya ilgari surilgan?
16. Asar dramatik turning qaysi janrida yozilgan?
17. Domullo va Ziyoli obrazlari ortasida qanday farq bor?
18. Boyni o'ldirgan kim?
19. Drama nima uchun «Padarkush» deb atalgan?
20. Dramaning ahamiyati haqida gapiring.

6-MAVZU: ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODI

1-MA'RUZA

Dars rejasi:

1. A.Avloniyning tarjimai holi.
2. Ma'rifatparvarlik faoliyati.
3. Avloniy merosi.

Adabiyotlar

1. B.Qosimov. Izlay-izlay topganim. T., 1984.
2. B.Qosimov., U.Dolimov. ma'rifat darg'alari. T., 1992
3. I.Solijonov. Tong yulduzlari. F., 1995.
5. A.Avloniy. O'son millat. T., 1994.

Tayanch iboralar

1. Avloniyning hayoti va pedagogik yo'li.
2. Avloniy darsliklari.
3. Avloniy- shoir.
4. Avloniy dramalari haqida ma'lumot.
5. «Turkiy Gulistonyohud ahloq» asari va tarbiya.

Darsning maqsadi: Abdulla Avloniy tarjimai holi, faoliyati, adabiy merosi to'g'risida ma'lumotlar berish, asarning tahlil etish.

Hozirgi o'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan XX asr uyg'onish davrining yalovbardorlaridan biri Abdulla Miravlon o'g'li Avloniy 1878-yilning 12 iyulida Toshkent shahrida tikuvchi oilasida tug'ildi. Yoshligi o'zi dunyoga kelgan Mirobod mahallasida o'tdi. Dastlab mahallasidagi maktabda, so'ngra madrasada o'qidi. Arab, fors, tatar, turk, rus tillarini o'rgandi. XX asr boshlarida ko'p chiqib tarqalayotgan ruscha, tatarcha gazeta va jurnallar va kitoblarni qiziqib mutoalaa qildi. Bu paytda Toshkentda ham ma'rifatparvarlik harakati boshlangan edi. Avloniy ana shu harakatning tashabbuskorilaridan biri Saidrasul Aziziy bilan yaqinlashdi. Uningyordami bilan Avloniy 1904-yilda o'z mahallasi Mirobodda «Usuli saftiya» maktabini tashkil etdi. Abdulla Avloniy ustoz Aziziy singari xalqni ma'rifatli qilish ishiga ham ilmiy, ham amaliyyondashdi. Aziziyning «Ustozi avval», «Ustozi soni» darsliklari ta'sirida «Birinch muallim», «Ikkinchi muallim» darsliklarini yozdi. Bu kitoblar ustozining darsliklariga taqlid bo'lib qolmaganligidan 1917-yilgacha har biri 3-4 martadan ko'p nusxada qayta nashr ettirilgan.

Abdulla Avloniy Toshkent ma'rifatparvarlik faoliyatini kengaytirish, maktablarni ko'paytirish, o'quvchilarni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida «hayriya jamiyati»ni tashkil etadi. Uningyordamida ko'p savob ishlarni amalga oshirdi. Bolsheviklarning qizil shiorlariga ishongan Avloniy oktabr to'ntarilishini g'oyat xushnudlik bilan kutib oldi. Uning xizmatiga kirib astoydil ishladi. 1918-yildayoq bolsheviklar safiga kirdi. «Kommunistik partiya monifesti»ni birinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qildi. Eski shahar ijroya qo'mitasining raisi, Turkbyuroning bo'lim mudiri, Afg'onistondagi sovet elchixonasida bosh konsul lavozimlarida ishladi. Keyingi yillarda turli gazeta va jurnallar muharriri, O'rta Osiyo kommunistik universiteti hamda O'rta Osiyo Davlat universitetining professori sifatida xizmat qildi. Qayerda qanday vazifada ishlamasin sotsialistik jamiyatnign otashin targ'ibotchisi, millatning ruhini yangilash tarafdori, maorifda isloh o'tkazish tashabbuskori bo'lib qoldi.

Abdulla Avloniy 1934-yili 25- avgust kuni kasalligi tufayli olamdan o'tdi. Biroq totalitar sovet tuzumi o'zining ana shunday sodiq fuqorosini ham ayab o'tirmadi, keyinroq «xalq dushmani», «millatchi», «jadid»lar qatoriga qo'shib qoralashdan tortinmadi. Chunki Avloniy umr bo'yi xalqini ma'rifatli qilish uchun kurashgan edi. U ham S. Aziziy, M. Behbudiy, Munavvar qori singari o'zbek milliy pedagogikasining kamol topishini kutganlardan biridir.

Avloniy domlaning ma'rifatparvarlik olamidagi faoliyatidagi eng muhim, - eng ibratli tomonlaridan biri shundaki, u vatan muhabbatini xalqi va ona tiliga bo'lgan muhabbati bilan chambarchas holda ulug'ladi. Uning ta'kidlashicha, Vatan tug'ilib o'sgan yeringdir, uni qadrlash,

jondan ortiq sevis, yashartirish kerak. Bu ayni paytda tilga, madaniyatga, xalqqa, tarixga muxabbat tuyg'usi bilan hamohangdir. Har bir insonning tug'ilib o'sgan bitta Vatani bo'lganidek, «har bir millatning dunyoda borligi ko'rsatadurgon oinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir».

Avloniy shoir sifatida ham o'z avlodiga katta meros qoldirdi. O'zining she'rlariga «hijron» deb taxallus qo'ydi. SHoirning to'rt qismdan iborat «Adabiyotyohud milliy she'rlar» nomli majmuasi 1901-1918-yillar orasida bir nechta nashr qilindi. Avloniyning poetik merosi ishqi namunalardan holidir. Bu shoir ijodining o'ziga xos jihati bo'lib, ko'proq ijtimoiy muammolarni element-yurt g'amini muhimroq deb bilganligidan, xalq va Vatan baxtsizligi, dardu tashvishlari oldida har qanday shaxsiy muhabbatni rad etganligidan dalolat beradi. SHoir o'z xalqini tezroq johillikdan xalos bo'lishga ko'zini ilm nuri bilan ravshan qilishga chaqiradi, bir-biriga nisbatan mehr-u shafqat o'rniga shaxsiy adovat urug'larini sochuvchi kimsalarni ezgulikka chorlaydi. «Dunyo fojiasindan», «Taajjublik hollar», «Falakdan bir shikoyat», «Aholi olamdan bir namuna», «Fig'on bulbul», «Turkiston tuprog'ini xitob» kabi ko'plab she'rlarida Avloniy beva-bechoralarning bu «olamni o'rab olgan g'avg'o»lardan xoru, farog'atdan benasib qolib azob chekayotganliklarini ifodalaydi. O'zining na o'tmishini bilmaydigan, na istiqbolidan umidi bo'lmagan, millatning vujudi tobora torayib borayotganligidan tashvishga tushadi.

A.Avloniy o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotini «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darsliklari, «Turkiy Gulistonyohd ahoq» nomli tarbiyaviy asari bilan boyitdi. Ummuta'lim maktablari dasturiga Avloniyning ushbu darsliklaridan namunalar, masallari, XI sinfda esa «Turkiy Gulistonyohd ahloq» kitobining kattagina qismi o'rganish uchun kiritilgan. Adibning «Maktab gulistoni» darsligidan o'rin olgan masallar barchasi I.A.Krilovdan tarjima qilingan.

5-sinf darsligidan Avloniyning «YOlg'onchi cho'pon», «Tulki ila qarg'a» deb atalgan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoya masallari kiritilgan. Ma'lumki, «YOlg'onchi cho'pon» mazmunidagi hikoyatlar xalq og'zaki ijodida ham, mumtoz adabiyotimiz namunalari ham uchraydi.

Avloniyning «Tulki va qarg'a» asari masal janri namunasi bo'la oladi, chunki masal janridagi asarlarda ikki va undan ziyod personaj qatnashadi. Asarning bayoni kinoyaga asoslangan bo'ladli. Sirtidan qaraganda, bayon etilayotgan hodisa ikki qismdan tashkil topgandek, tuyulsa ham syujeti bir tugun asosiga qurilgan bo'ladi. Masaldagi personajlar mijoziy harakterga ega bo'ladilar.

«Tulki ila Qarg'a» masalida hikoyachilardan tashqari tulki, Laylak va Qarg'a qatnashadilar. Ayyor tulkining tuzog'iga ilingan Laylakni ham, keyin o'zini ham Qarg'a avvalo bilag'onligi va tadbirkorligi bilan xalos etadi. Agar qarg'a bilimdon bo'lmaganda Tulkiga meni yeyishdan oldin:

«Bevatan beg'urur, kafan Qarg'a

Laylak yaxshilik edan qarg'a»

Deb o'qigan dermidi? E'tibor beryapsizmi? Bu tanlangan baytdagi 8 ta so'zdan yettitasida a unlisi ishlatilgan, hammasi bo'lib o'n ikki marta og'iz ochiladi va qarg'a raqibi Tulkining tumshug'idan ozod bo'ladi. Qarg'ani tutqunlikdan xalos qilgan ushbu baytda yana bir hikmatli ibora bor. Bu bevatan so'zidir. Ilmsizlik insoniyatni bevatanu bekafan qiladi degan falsafiy tushuncha XX asr boshlarida ijod qilgan bobokalon adiblarimizning asosiy g'oyasi bo'lib, Behbudiyda ham Avloniyda ham, Fitratda ham, Hamzada ham, So'fizodada ham ko'p takrorlanadi.

O'qituvchi ushbu asarni tushuntirish jarayonida Tulki, Laylak, Qarg'a obrazlariga alohida to'xtalishi lozim. Tulki azaldan ayyorlik va laqmalik timsoli bo'lib kelgan.

Endi qarg'a obrazini tahlil etildi ham Avloniyning novatorligiga urg'u berish kerak bo'ladi. Ma'lumki, Qarg'a xalq og'zaki ijodida ham, mumtoz adabiyotimizda ham, hozirgi zamon adabiyotida ham ko'pincha balohut, har qanday haromdan taf tortmaydigan timsol sifatida tasvirlanib kelingan. Avloniy ijodida mazkur masaldan tashqari yana «Aqlli Qarg'a», «Qarg'a ila Zag'izg'on» singari asarlar ham bor. Ularda ham Qarg'a bilimdon, tadbirkor sifatida talqin qilingan.

«Turkiy Gulistonyohd axloq» boshdan oxirigacha pand nasihatlar asosiga qurilgan asardir. Insoning kundalik turmushida bakor keladigan yaxshi va pand beradiganyomon xulqlar batafsil ifodalanadi. Avloniy uchun dunyo yaxshilik vayomonlikdan tashkil topgan. YAxshi fazilatlarini

egallagan inson albatta zamonasining yetuk kishisi bo'la oladi.yomon xulqlar esa hayotni tanazzulga olib boradi. Kitobdagi bir saboq ibratli hikoyat bilan to'ldiriladi. Ahdidan keltirilgan hikmatli iboralaryoki donishmand ajdodlarimiz merosidan olingan purmano parchalar bilan isbotlanadi. Kitob to'lasicha «YAxshi xulqlar» va «Yomon xulqlar» ta'rifidan iboratdir. SHu ma'noda kitobning kompozitsion tuzilishi ham ibratlidir. U dastlab «Axloq» va «Tarbiya» deb atalgan odoblardan keyin 31 xil «YAxshi xulqlar» deb atalgan bo'limlardan tashkil topgan. Har bir bobning oxirida Avloniy qalamiga mansub ulkan tarbiyaviy ahamiyatishga ega bo'lgan bir necha bayt she'r beriladi.

Asardagi har bir dars o'quvchiga ibratli saboq beradi.yozuvchi qanday xulq to'g'risida so'zlamasin o'z qarashlarini Suqrot, Aristotel, Aflotun, Luqmoni Hakim, Ibn Sino singari ulug' allomalarning firklari bilan boyitadi. Bu asar to'la ma'nodagi «Odobnoma»dir.

«Turkiy gulistonyohud ahloq» kitobi asrimiz boshlarida shakllanib kelayotgan pedagogik fikrning rivojlanishigagina emas, balki umuman o'sha davr ijtimoiy estetik tafakkuri taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bundan tashqari Avloniydan «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va siz» kabi dramalar ham qolgan. Bu sahna asarlarida muallif zamondoshlari singari davrning dolzarb muammolari – johillik, ilmsizlik, madaniyatsizlik, ongsizlik oqibatida ro'yobga chiqayotgan illatlarga qarshi o't ochadi. Masalan, maktab o'quvchilariga mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan «Advokatlik osonmi?» dramasida Avloniy xalqining savodsiz, madaniyatsiz haq huquqlarini anglamay qolayotganligidan afsuslanadi. Asar qahramoni Davronbek rus shaharlarida yetti yil o'qib, advokat bo'lib kelgan. Uning niyati «huquqdan mahrum, aholi olamdan xabarsiz» xalqining huquqlarini himoya qilish, ko'zini ochish edi. Biroq «xalq orasida ilm ma'rifat chuqur tomiryoyib, madaniyat taraqqiy qilmaguncha» Davronbekka o'xshagan bir ikki odamning sayi harakati» yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmoqa o'xshash hayoliy narsa bo'lib qolaveradi. Buning uchun ko'plashib harakat qilmoq kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Abdulla Avloniyning ma'rifiy asarlarida ilgari surgan orzu- niyatlari bugun mustaqil yurtimizda amalga oshayotganligi kuyunchlidir. Avloniyning ishlari ham, o'zi ham g'oyat qadrlanmoqda. Respublika o'qituvchilari malakasini oshirish instituti, bir necha pedagogika bilim yurtlari, ko'chalar ma'rifatparvar alloma nomi bilan atalmoqda. Ularni ko'rib millatparvar bobomizning ruhlari shod bo'lsa ajabmas...

Muammoli masalaga javoblar: Avloniy dramalarining o'rganishda ijodidan «o'q tomir» bo'lib o'tgan g'oya jaholat, nodonlik, ilimsizlik mutaassiblikni qoralashdir. O'z davri uchun dolzarb bo'lgan bu muammolarning Avloniy tomondanyoritilishi bejiz emas edi. CHunki ular har bir dasr uchun muhitligini yo'qotmagan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Jadidchilik harakatida Avloniyning o'rni.
- 2 Tarjimai holi haqida gapiring.
- 3 Avloniy qanday sohalarda faoliyat ko'rsatdi?
- 4 Avloniy ochgan maktablar vayozgan darsliklar to'g'risida gapiring.
- 5 Avloniydan qanday adabiy meros qoldi?
- 6.Avloniyning ijtimoiy faoliyati to'g'risida nima deya olasiz?
- 7.Avloniy va matbuot.
- 8..Avloniy qanday dramtrura tashkil qilgan?
- 9.«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plamining asosiy mavzusi nima?
10. Avloniy she'rlarda qanday tahallus ishlatgan.
11. Avloniy she'rlarida millat taqdiri.
12. Avloniy va teatr.
- 13.Avloniyning qanday dramalarini bilasiz?
- 14.«Advokatlik osonmi?» va «Pinak» dramalarining asosiy g'oyasi nimadan iborat?
- 15.«Turkiy Gulistonyohud axloq» qanday asar?
- 16.Axloq deganda nimani tushunasiz?
- 17.Qanday «YAxshi hulqlar» haqida gapirilgan?
- 18.«Yomon hulqlar» nimalardan iborat?

19. Tarbiya haqida nima deydi?
20. Avloniy ijodining ahamiyati?

2-MA'RUZA: AVLONIY – DRAMATURG. PEDAGOGIK RISOLALARI.

DARS REJASI:

1. Avloniy darsliklari haqida ma'lumot.
2. "Turkiy guliston yohud Axloq" asari.
3. Avloniy dramalari haqida.

ADABIYOTLAR:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., 1999.
2. A. Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. T., Ma'naviyat, 1998.

TAYANCH IBORALARI:

1. Mohir pedagog.
2. Pedagogik risolalar.
3. Usuli savtiya.
4. Dramaturgik mahorat.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Avloniyning pedagogik faoliyati haqida so'zlang.
2. Avloniyning pedagogik risolalari qaysilar?
3. "Turkiy Guliston" asarida inson tarbiyasi masalasi qanday qo'yilgan?
4. Avloniy teatrchilikka qanday hissa qo'shdi?
5. Avloniyning "Advokatlik osonmi?" dramasi dagi obrazlar qaysilar?
6. Avloniyning "Biz va siz" fojiasi mavzu va obrazlari haqida so'zlang.
7. Avloniy dramalarida horijiy mavzu qanday aks etgan?
8. Avloniy va hozirgi dramaturgiya.

Abdulla Avloniy o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining Mahmudxo'ja Behbudiydan keyingi eng yirik vakilidir. Bu davr adabiyotining o'ziga xos etakchi xususiyatlari Avloniy ijodiy g'oyaviy yo'nalishi va mo'iyatini belgilab berdi. Maktab va maorif orqali o'zbek xalqining milliy-ijtimoiy ongini uyg'otishni o'zining bosh maqsadi deb bilgan. Avloniy boshqa maslakdosh do'stlari singari faoliyatini ma'rifat sohasidagi ishlardan boshladi. Uning jurnalist, shoir, dramaturg va teatr arbobi sifatidagi faoliyati ham shu maqsadga yo'naltirildi. O'zbek ziyolilari orasida dastlab professor ilmiy unvoniga musharraf bo'lganligidan biri Avloniy o'zining pedagogik, ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimiz madaniy saviyasini bir pog'ona yuksakka ko'tarishga munosib hissa qo'shdi.

Abdulla Avloniyning adabiy-ijtimoiy faoliyatida maktab va maorif ishlari g'oyat katta o'rinni egallaydi. O'zining pedagogika sohasidagi izlanishlarini 1904 yili Miroboddag "usuli savtiya" maktabini ochishdan boshlagan Avloniy 1912-1917 yillar mobaynida shu tipdagi maktablar uchun "Birinci muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yog'ud Axloq", "Maktab Gulistoni" singari darsliklarni bir necha marotaba qayta nashr etdi.

Avloniy 1913 yildayoq birinchi o'zbek teatr to'dasi «Turkiston» ("Turon")ga asos soldi. U o'zbek teatrining murg'ak bir faslida tajribali tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy va ozarbayjon teatrining taniqli arbobi Sidqiy Ruhilloni to'da ishlariga jalb etib, ular ko'magida dastlabki milliy sahna asarlarinimaydonga kelishiga erishdi. To'da rahbari Avloniy o'z atrofiga Nizomiddin Xo'jaev, birinchi o'zbek rejissyori Mannon Uyg'ur, Mirshohid va Mirhamid Miroqilov singari san'at ishqibozlarini to'plab, o'zbek teatri poydevoriga birinchi g'ishtni qo'ydi. O'zi "Turkiston" to'dasi uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki sevgi", "Biz va siz", "Portugaliya inqilobi" singari pyesalarni yozdi. Ozarbayjon va tatar dramaturglarining "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bosh shakli", "Xiyonatkor oila", "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar" singari asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.

Asar bir pardali komediya bo'lib, asosiy qahramoni 24 yoshli huquqshunos Davronbekdir. U Yevropada o'qib kelgan, etti yildan so'ng Turkistonga qaytdi. Lekin "eski hammom, eski tos" ekanini, xalqning ilm- ma'rifatdan yiroqligini ko'radi. Elning toshdek qotganligidan, ilm va madaniyatdan yiroqdaligini ko'radi, iztirob tortadi.

“Pinak” bir pardali komediya boʻlib, 1915 yil 25 fevralda yozilgan. Ushbu asar Turkiston maishatidan olib yozilgan boʻlib, qahramoni 62 yoshli koʻnori Tursundir.

“Biz va siz” 4 pardali fojia boʻlib, 1923 yil 28 iyunda yozilgan. Asar Kamolning uyi tasviri bilan boshlangan. Kamol Yevropada oʻqib kelgan 25 yoshli yigit. Uning otasi 50 yoshdagi Karimboy, onasi 45 yoshlardagi Jamila eski fikrlovchi odamlar. Asar Kamol monologi bilan boshlanadi. U 10 yil Yevropada boʻlib, Turkistonga qaytgach hech oʻzgarish koʻrmaydi. Uningcha, «oʻzgarish elning koʻchasidangina oʻtib, uyning ichiga aslo kirgan emas”. Kamol burunni sassiq deb kesib boʻlmasligini anglagach, turmushda yangilik qilmoqchi boʻladi. Kamolning ota-onasi uni bir qizga uylantirmoqchi, Kamol esa u qizni hatto koʻrgan emas. Kamol amakisi Salim qurumsoqning qizi Maryamni sevadi. Maryam oʻqimishli qiz. Kamolning ota-onalari Ortiqboyning qiziga uylantirish harakatida. Hatto Jamila Ortiqboyning qiziga uylanaver, keyin Maryamni ikkinchi xotin qilib olib beramiz deydi. Iztirobda qolgan Kamol Maryamdan uni sevishi haqidagi xatni olgach xushidan ketadi.

Ikkinchi pardada esa toʻy kechasining ikkinchi kuni tasvirlandi. Kamol Ortiqboyning qizi Jamilaga uylangan. Jamila kelin juda koʻrimsiz, choʻtir yuzli, axloqsiz qizi boʻlib 18 yoshlarda. Kamol esa telbavor holatda. U kelinning ismini Jamila emas ajina, alvasti deb qoʻyish kerak deydi. Maʼlum boʻlishicha, Ortiqboy boshqa qizni koʻrsatib sovchilarni aldagan ekan.

Uchinchi parda Kamolning sevgilisi Maryam uyi tasviri bilan boshlanadi. Uning otasi Salim, onasi Fotima, uning ukasi Iskandar ham oʻqimishli, madaniyatli shaxslar. Lekin boy emas. Kamolning telbavor holatidan Maryam iztirob tortadi. Bu holatga jaholatli muhit sababchi boʻlganligini biladi. Bundan qattiq iztirobga tushar ekan, zahar ichadi. Oʻlimi oldidan quyidagi satrlarni takrorlaydi:

Gulim ketdi, gulim ketdi, qoʻlimdan bulbulim ketdi,

Meni gʻamxonaga tashlab, oʻzi sayri chaman ketdi.

Toʻrtinchi pardada Kamolni savdoyi deb oʻylab, uning oyogʻiga kishan soladilar. Kinnachi Xumorni olib keladilar. Uning yuziga qon chiqarib surtadilar, elkasiga shapatilab, quloqlarini choʻzadilar. Karimboy qari domla (azoyimxon)ni olib keladilar. Unga turldi dorilarni beradilar. Doʻsti Ahmad esa doʻxtirni boshlab keladi. Doʻxtir Kamolning holatidan ajablanadi, kishanni olib tashlashni buyuradi. Ular ketgach Maryamdan uning ukasi Iskandar xat olib keladi. Ushbu maktubda Maryam oʻzining soʻnggi xatini yozayotganligini aytgan edi. Karimboy esa unga Maryamni zahar ichib oʻlganligini aytadi. Kamolni kravatga bogʻlatib qoʻyib, oʻzi esa Komiljon boyning ziyofatiga ketadi. Soʻng Kamol singlisi Habibadan echib qoʻyishni soʻraydi. Habiba qum-toshdek uxlasangiz roziman deydi. Kamol shunday uxlashga rozi boʻladi. Kamol iztirobga tushadi: “bizni bir-birimizdan ayirgʻon Kim? Siz? Siz? Siz? Siz? Yoʻq sizlarni yoʻldan urgʻon shayton, azozil, iblis!” u payt shayton paydo boʻladi, u kuladi. U tilga kiradi: “Siz odamlar, bizni, shaytonlarni tushiga kirmagan gunohlarni qilursiz! Uyolmasdan hamasini bizning boʻynimizga agʻdarasiz! Deydi. Anovi muzdek suvni ich, anovi arqonni ol, oʻzingni os. Shunda Maryam oldiga borasan va u bilan qoʻshilasan deydi. Soʻng Kamol arqonni olib boʻyniga soladi. Maryam pari suratida koʻrinadi. Kamol oyogʻidagi kursini tepib yuboradi.

7-MAVZU: MUHAMMADSHARIF SOʻFIZODA IJODI.

(1869-1937)

DARS REJASI

1. Tarjimai holi.
2. Sheʼriyatining oʻziga xosligi.
3. Soʻfizoda asarlarida davrning dolzarb muammolari talqini.

ADABIYOTLAR

1. I..Abdullaev, J.Xalilbekov. Xalq shoirining taqdiri. OʻzAS., 1988. 2. 12.
2. Soʻfizoda. Taronalar. Sheʼrlar. T., 1968.

TAYANCH IBORALAR

1. Tarjimai holi.
2. Soʻfizoda – muallim.

3. So'fizoda chet ellarda.
4. So'fizoda vatanparvar shoir.
5. Hajviyalari.
6. So'fizoda va zamon.

Darsning maqsadi: So'fizoda tarjimai holini, faolyati va ijodini kengyoritib berish.

Birinchi «O'zbekiston xalq shoiri», «Kuldirguvchi xushchaqchaq shoirlarimizning eng o'tkiri», «Farg'ona» gazetasi, 1925y. 13.08. Muhammadsharif Egamberdi pichoqchi o'g'li So'fizoda 1869 yil 29 yanvarida Namanganning CHust shahrida tug'ilgan. Otasi hunarmand va dindor odam bo'lganligidan hamqishloqlari uni «so'fi» deb chaqirishardi. Muhammadsharif dastlab qo'shni ayol Manzura otin qo'lida savodini chiqargan, keyin mahallasidagi maktabda o'qigan.yoshligidan boshlab, Firdafsiy, Navoiy, Turdi, Turdi, Mahmur, Gulxaniy kabi shoirlarning ijodini qunt bilan o'qigan. 1893-98 yillarda Qo'qon shahriga kelib, bu erdagi madrasalardan birida o'qiydi. Bu erdagi adabiy muhit bo'lajak shoirni ahm o'z davrasiga tortadi. So'fizoda Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyio kabilar bilan shaxsan tanish bo'lgan Qo'qon adabiy muhitning dovrug'i zo'rligini biz ilk mustamlakachilik davri adabiy jarayonini o'rganganimizda ma'lumot berganmiz. Bu haqda shoir Furqat quyidagichayozgandi: «Digar she'r arboblari bizlar suhbatimizni orzu qilib, kelur erdilar. Agar biror marg'ub g'azal zodai taboi bo'lsa, tabiatli kishilar nusxa so'rab olur erdilar».

Bu adabiy muhitda So'fizodaning zo'iga xos o'rni va obro'si bo'lgan. Aytishlaricha, tili achchiq, kamchiliklar va zulmga qarshi beayov kurashchi hamda boy-amaldorlarga bo'yin egmaydigan fazlatlarini hisobga olib, Muqimiy domla Muhammadsharifga «Bahshiy» tahallusini nisbat bergan ekan. Qo'qonda bo'lgan davrida u shu taxallusi bilan mashhur bo'lgan va «Aying bu so'zimni», «Daqaning», «Bedanang», «Burgalar» singari satirik g'azallarini yaratgan. Afsuski, So'fizoda hayoti va ijod bilan shug'ullangan adabiyotshunos T.Raslov nashrga tayyorlagan shoirning «Taronalar» to'plamiga yuqoridagi nomi zikr qilingan asarlaridan faqat «Burgalar» radifli g'azali kiritilgan xolos. Qolganlari topilmagan va yana shunisi achinarliki, 30 yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa So'fizodaning boshqa majmuasi chop etilmadi.

«Burgalar» g'azalining o'zi ham So'fizodanimng hayotda, tabiatda ro'y bergan oddiy voqealardan muhim ijtimoiy xulosalar chiqara olganligini, uning satirik tili chuqur kinoya, kesatiq, qatoiy ohangli inkor, kuchli fosh etish quvvati bilan ajdralib turishini ko'rsatadi. SHoir burgalar timsolida jamiyatda xalq qonini so'rayotgan kimsalar nazarda tutiladi, «berahm, bag'ritosh, jafokor» zolim burgalar kinoya bilan fsh qilinadi.

Albatta, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabilarning achchiq satiralariga chidolmay, tish qayrab yurgan boy-amaldorlar, ruhoniylar uchun So'fizoda-Vahshiyning qahrli ovozi katta tashvish tug'diradi. Ular astoydil urinib So'fizoda Qo'qon shahridan badarg'a qilishga erishadilar, shoir 1899 yili CHustga qaytib keladi, ammo tili o'tkir shoir CHustga ham sig'maydi, chunki bu erda ham shoir amalda va ruxoniylarni qattiq tanqid qiluvchi sheorlaryozadi. SHuning uchun ham «Ul beadab va badfeol» dahriyni CHustdan ham haydab chiqaradilar.

Quvdi meni johillar o'shandoq vatanimdan,

Lekin quva olmas suxanimni dabanimdan

Degan niyatiga qattiq amal qilgan shoir 1900 yilda CHustdan chiqib ketadi. U bir necha muddat Ozarbayjonda yashaydi va bu yerda Jalil muhammadqulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodiy kabi davrining taraqqiyparvar kishilari bilan tanishadi, ulardan ko'p yangiliklarni o'rganadi. bu yerda u ozodlik uchun kurash shabadalari esayotganini sezadi. Bokudan Tibilisiga keladi. Bu yerdan Turkiyaga, so'ng Hindiston, Afg'oniston, Arabiston kabi mamlakatlarga jo'naydi. So'fizoda qayerda bo'lmasin, hayotga sinchkov shoirona ko'z bilan qaraydi, oddiy xalqning tashvishlarini ko'radi va qalamga oladi. CHet el sayohatidan olgan taassurotlari goh mayin lirik goh achchiq satirik she'rlarida o'z ifodasini topadi. SHoirning bu davrdagi asarlari «Turkiston viloyatinng gazetasi», «Sadoi Turkiston» gazetalarida, shuningdek tatar, ozarbayjon tillarida bosilayotgan matbuot nashrlarida peshma-pesh bosilib turadi. «Vatan», «Muslimalar», «Xonimlar isminda», «O'zbek xonimiga» kabi g'azallari shular jumlasidandir.

Soʻfizoda 1913 yilda CHustda qaytib keladi. CHet ellarda boʻlish Soʻfizodaning ijodida ham, amaliy faoliyatida ham maʼrifatparvarlik yoʻnalishining paydo boʻlishiga olib keldi. U xalqining koʻzini ochish, ilmiy qilish ishi bilan CHustda yangi maktab ochadi va bu maktab peshtoqiga: «Men ul boʻyoqchimanki, maktab humida rang berib, qora chappalarni oʻn ikki oyda oksidlanish-qaytarilish qilaman» degan eʼlon zib qoʻyadi. Bu maktab oʻz uslubi bilan jori usulida boʻlib, eski maktablarning oʻqitishidan tubdan farq qilardi. SHuningdek shoir – muallim Hamza singari «doriyom» maktabi va kattalar uchun savodxonlik kursini ham ochadi. CHustda uning maktabi tez mashhur boʻlib ketadi. SHuning uchun ham uni «kofir» deb eʼlon qilib maktabiniyopadilar va oʻzini yana CHustdan haydaydilar. Soʻfizoda oʻz xalqining kelajagini oʻylamay, uni barbod qilayotgan bunday munofiq johillar va maʼnaviy koʻr kimsalarni quyidagi gʻazalda qattiq foy qiladi:

Muallimni quvib, maktabniyopgan chutilar – bizlar,
Berib pora pristavlarni topgan chustilar – bizlar.
Sotib xovli, xaramni, nechamiz baytul haram ketdik,
Hamisha oʻtgan ishlardan pushaymon chustilar – bizlar.
YAKub ilmu adabni oʻrganib avlodimiz netsun?
Falonsiz, ilmsiz, savdoga chaqqon chustilar – bizlar.
Qalandarxonamiz bor, takyamiz bor, boshqamiz ham bor,
Faqat olamda bir muhtoji kappon chustilar – bizlar.
Hudoyo shukur, sonsiz mardikor bozorimiz obod,
CHopiq chopmoq, oʻroq oʻrmoqqa polvon chustilar – bizlar.
YOSin toʻqlar, eshik oldida tursin termulib ochlar,
SHu odatda chiqargan xoʻp purdon chustilar – bizlar.

Adlbatta, Soʻfizodaning bunday achchiq til va maʼrifatparvarlik harakatlari mahalliy maʼmuriyatga maʼqul tushmasdi. SHu sababdan shoir doimo qattiq tazyiq va taoqib ostida yashashga majbur boʻladi. Ulamolar xalqqa «Vaʼshiy uchun baqqol mol sotmasun, sartarosh sochini olmasun, koʻchadan yoʻl berilmasun, choxona va yigʻinlarda uni tag joydan mahrum qilsinlar!» deb fatvo beradilar. Nihoyat, yana 1915 yilda Soʻfizoda oʻz ona yurtini yana tark etib, xorijga ketishga majbur boʻladi. Soʻfizoda avval Hindistonda, soʻng Afgʻonistonda yashadi, maktablar ochib, muallimlik qildi. Uning maktablari oʻqitish usulining yangiligi va tezkorligi bilan Afgʻonistonda ham mashhur boʻlib ketdi va podshoh Omonulloxon tomonidan xalq maorifi vazirligiga ishga olindi. U bir necha vaqt Afgʻoniston xalq maorifi vazirining oʻrinbosari boʻlib ishlaydi.

Bu paytda Rusiya oktyabr toʻntarishi amalga oshirilgan, Toshkentda toʻla sovetlar hukumati oʻrnatilgan edi. 1918 yilda Afgʻonistonning yangi sotsialistik mamlakatini tanishi munosabati bilan delegatsiya yuboriladi. Bu delegatsiyaning tarjimoni Muhammadsharif Soʻfizoda edi. Soʻfizoda Toshkentga kelgach, oʻz vatanida «ijobiy» hodisalar roʻy berayotganini koʻrdi va bolpsheviklarning otashin shoirlariga ishonib Toshkentda qoladi. Tez orada ona qishlogʻi CHustga kelib, bu yerda «firqa tashkilotchisi» chifatida yacheyka tuzadi. Soʻfizoda shoʻrolar hukumatiga sidqidildan xizmat qila boshlaydi. CHustda batraklar qoʻmitasini tashkil etadi, partiya yacheykasi tuzadi, 1921 yilda partiya safiga kiradi. Bu haqda oʻzining «Tarjima holida» oʻz tushuncham va oʻz xohishim bilan firqaga kirganman va shu yillari CHustda firqa tashkilotchisi boʻlib ishladim debyozadi. Mafkuraviy jihatdan sovetlarga astoydil ishongan Soʻfizoda maxsus boʻlinmaga osobiy otdel kirib oʻsha davrda «bosmachilar» debyomonotliq qilingan milliy ozodlik harakati qatnashchilariga qarshi kurashadi. Qishloq dehqonlarini birlashtirib, yer shirkati ochadi. SHirkat binosining peshtoqiga:

Jahon savdogari, qalloblarga munda yoʻl yoʻqdur,
Qoʻl qadoq, tozsiyoriq, eski choponlar xush kelibsizlar.

debyozib qoʻyadi, bu shoirning butun umri mehnat bilan, mehnatkash xalq bilan oʻtganligi, oʻziningbutun faoliyatini xalqining ogʻirini engil qilish, birinchi navbatda arki, maʼrifat, farovonligi yoʻlidagi kurashiga bagʻishlanganligini isbotlaydi. Axir shoir 10-yillardayoq dadillik bilan:

Kambagʻallar yigʻilib, boyni quving dunyodan,
Oʻt qoʻyib sallasiga, qoʻlni yuving mullodan degani maʼlum.

Kambag'alparastligi, haqgo'yligi uchun «kofir» nomini olib, Vatandan badarg'a qilinib, 15-20 yil sarson-sargardonlikda yurganini, imkoniyat bo'lishi bilan yurtiga qaytib, «qo'li qadoq», «tovoniyoriq»lar 'imoyasiga bel bog'laganligini, oktyabr va Leninni, «SHonli sho'ro»ni hamma narsadan muqaddas bilganligini yashirib o'tirishning hojati yo'q. Mana shu xizmatlari uchun unga 1926 yil 26 fevralda O'zbekiston Markaziy ijroya qo'mitasining farmoni bilan «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

So'fizoda bu yuksak unvonga yarasha yangi asarlaryozdi. Jamiyatning illatlarini fosh etuvchi satirik she'rlar yaratdi. Uning ijodida g'ayritabiiyligi, sohtaligi bilan o'quvchda shubha uyg'otadigan she'rlar deyarli yo'q. Buning sababi shundaki, aksariyat hajviyalarida So'fizoda o'zi yaxshi bilgan, o'z ko'zi bilan ko'rib ishongan salbiy holatlarni qalamga oladi. Bu shoirning muhim estetik printsiplaridan biridir. SHoirning «Qalaysizlar», «Radifli musaddasi» shular jumlasidandir. Unda So'fizoda ulus boshiga kulfat keltirgan «Bo'ri boylar, tulki eshonlar» satira qamchisi ostiga oladi.

Quturgan bo'ri boylar, tulki eshonlar qalaysizlar?
Jahon chodir hayolin ruchi shaytonlar qalaysizlar?
Ulus boshiga kulfat, elga tovonlar qalaysizlar?
Qurumsoq, ro'dapo, eski musulmonlar qalaysizlar?
Haqiqat dushmani, cho'li biyobonlar qalaysizlar?
Jamoat haykali manqus nodonlar qalaysizlar?

SHoir yangi tuzum odamlarini erkin ko'rishni, ahillikda farovon yashashini orzu qildi. Manabu misralar o'z davri uchun ham, hozirda ham muximligi bilan e'tiborni tortadi:

Och ko'zingni kambag'al, g'aflatni boshingdan oshir,
Bermagil fursatni, iligingdin xarifingni shoshir.
Har kim o'z boshini o'z barmog'i birla qashir,
Ichki dardingni agaryod bo'lsayoringdin yashir.
Do'stim aldanmagil begonadan, bo'lmas dadang,
Tolyog'ochidin bo'lurmu luku doninga madang?!
CHorlangiz majlisga mehnat ko'yida aftodani,
Sipqoring birlikda So'fizoda sumsum bodani,
Bazmdin quvlang ikki yuzli xaramzodani.
CHunki teroqi buzoq bulg'ar tamomi podani,
Xalqani, yo'ldoshlar ifloslardan tozalang,
Bo'lmasin ozodalarnign ishratiga ko'ndalang.

So'fizodaning 20-yillarda yaratgan ko'pgina she'rlari singari «Mushtum» jurnalining 1925 yil 2-sonida bosilgan «hurjun» sarlavhali she'ri ham sohtalik va maddohlikdan holiligi, davrning xilma-xil ohang va ranglarini ziddiyati va murakkabligini o'zida mujassam eta olgani, ammo har qanday sharoitda ham mehnatkash xalqning manfaatini diqqat markazida tutganligi bilan muhimdir. Bu she'r shoirning yurak iztiroblaridan tug'ilganidek, nazarimda. CHunki uni sinchiklab o'qilsa, ishlar hurjunda bo'lganligiga ishora seziladi. Zero, sovetlar bergan vaodalarning ustidan chiqmay ishlar o'lda-jo'lda qolganligi ishora qilinadi.

Ey, haqiqat qani sen, biz yana bo'ldik hurjun,
Qayda qoldi fuqaro rahbari, yangi qonun?!
O'lturub xum boshiga bo'ldi bo'yoqchi maymun,
Oldi «partiyani» bo'lub ko'p kishi ikki xotun,
Jenotdeldagi xom nasixa - bibi otun...
Kambag'al yaktagini yuvvani topmas sovun,
O'ldi kosib ochidan axli tijorat – Qorun.
Oh, maslak, meni sen boy nazaridin otding,
Julxa tun, chorug'u juldur qatorig'a otding.

Bu parchadagi mazmunni talabalarga birma bir tahlil qilib beraman. Ularning tagzaminida shoirning o'sha davrdagi hayotdan noroziligi yashiringanini partiyaga kirib olib, element yurt

ustidan xohlaganini qilayotgan kimsalarni fosh qilganligini tushuntirib, oxirida bu gaplarni aytishga shoir o'zida jasorat topganligini quyidagicha izohlanganligini aytaman:

Invalid bir kishisan, qo'rqma, adibi sodda,

To tiriksan berulur pensiya So'fizoda.

1932yilning mudhish qatag'on tegirmoni qariyb invalid bo'lib qolgan shoirni ham ayab o'tirmadi. Xotining guvohlik berishicha, shoir So'fizoda kasalxonada davolanayotgan paytda qamoqqa olingan va otuvga hukm qilingan.

Muammoli masalaga javob: So'fizoda sheoriyatida XX asr boshlarida jamiyatda, Turkiston hayotida xukmron bo'lgan illatlar: jaholat, ilimsizlik, axloqsizliklar («CHustilar»radifli g'azalida), mahalliy va chor amaldorlaridagi zulmkorlik («Qalaysizlar» radifli g'azalida), sho'ro mafkurachilarining kirdikorlari tanqidi o'ziga xosyoritilgandir.,

NAZORAT SAVOLLARI:

1. SHoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.
2. So'fizoda qachon qayerda tug'ilgan?
3. Uning hayot yo'li tekis kechdimi?
4. Nima uchun o'z yurtidan quvg'in qilingan?
5. Afg'onistonda qanday vazifani bajardi?
6. Toshkentga qaytgach, yurtida qadr topdimi?
7. SHoirning ijodiy merosi to'planganmi va u qanday asarlardan iborat?
8. Uning ijodi asosan kimlarga qarshi qaratilgan?
9. SHE'rlarida millat va yurt taqdiri qanday ifodalangan?
10. So'fizoda ijodining o'rganilishi.

8-MAVZU: IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MAFKURAVIY KURASHLAR DAVRI ADABIYOTI (1920-40 YILLAR)

Dars rejasi:

1. SHu davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va jadidchilik harakatining tugatilishi.
2. Oktyabr to'ntarishi, proletariat mafkurasi va adabiyo jarayon.
1. Bu davr adabiyotiga xos muammo va munozaralar.

ADABIYOTLAR

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
2. O'zbek adabiyoti. XI sinf uchun darslik. T., 1996.
3. Milliy uyg'onish. Ilmiy to'plam. ToshDU, 1993.
2. Y. Solijonov. Tong yulduzlari. F., 1995.

Tayanch iboralar

1. Ijtimoiy -siyosiy sharoit.
2. Inqilob ozodlik emas, fojia sifatida.
3. Partiyaning adabiyotga yakkahokimligi ko'rinishlari.
4. yozuvchilarning bo'linishi.
5. Adabiyotda paydo bo'lgan yangiliklar.
6. Asosiy xulosalar.

Dars maqsadi: adabiy muhit, ishtimoiy-siyosiy vaziyat hamda ijodiy jarayonni kengyoritish.

20-40-yillar xalqimiz boshidan eng og'ir kunlarni kechirgan davr bo'ldi. Qisqa muddatda o'zbek xalqi ham birin-ketin ikkita - 1917 y. fevral va sakkiz oy o'tmay oktyabr to'ntarishini boshidan kechirdi. Fevral to'ntarishining mohiyatini hali anglab etmasdan turib, Oktyabr to'ntarishi ro'y berdi. 1 jahon urushidan g'oyat toliqib chiqqan, 1916 yilgi milliy-ozodlik qo'zg'olonining shafqatsiz bostirilishi, qishloqlarga o't qo'yilishi, haddan ziyod zulm va kamsitish xalqning chorizmga nisbatan cheksiz nafratini qo'zg'atgandi. Ana shunday sharoitda ro'y bergan fevral inqilobi Turkiston ahli o'rtasida kuchli aks-sado berdi. Jadidlardan iborat ilg'or ziyolilar fevral voqealarini hursandchilik va xayrixohlik bilan kutib oldilar, matbuotda ko'pdan ko'p maqolalar e'lon qilib, el-yurti ozodlik bilan qutladilar. Biroq ozgina fursat o'tmay xalqning inqilobdan kutgan umidi puchga chiqdi. SHundan keyin o'lkada haqiqiy ozodlik uchun kurash boshlandi.

Vaqtlik hukumatning va'dalari amalga oshmaganligi, xalqqa hech narsa bermaganligi Turkistonda siyosiy boshboshdoqlikni keltirib chiqardi. Oqibatda bu o'lkada Rusiyaning o'zidan ham avval Kerenskiy hukumatiga qarshi kurash boshlandi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, bizning ziyoli jadid bobolarimiz ozodlik, mustaqillik uchun ancha erta kurash boshlanganliklari ma'lum. SHu boisdan hali Peterburgda "Avrora" zali bermay turib ancha oldinroq Toshkentda ishchi-dehqonlar hukumati o'rnatildi. Bu haqda milliy mustaqilligimiz bayroqdorlaridan biri M.CHo'qayning yozishicha, "Bopsheviklarning hukumatni qo'lga olish tajribalari ilk bor Toshkentda ro'y berdi. 1917 y 13 sentyabrda Toshkent ishchi va soldatlarining bolsheviklashib va so'l eserlashib yuruvchi tabaqasi qo'lga o'tib qoldi.

Ammo oktyabr to'ntarishi ham yurtga haqiqiy ozodlik bermadi. Buni anglab etish uchun ko'p vaqt kerak bo'lmadi. Dastlab qip-qizil shiorlari bilan ko'zlarni qamashtirgan oktyabr inqilobi keyinroq o'zining qora niyatlarini amalga oshira boshladi. M.CHo'qay yozganidek, "Inqilob bizning umidimizni yiqdi, ishonchlarimizni bitirdi, aldanganimizni ochiq ko'rsatdi. Sevinch umidlari bilan qarshi olingan inqilob umumiy milliy fojiamiz shaklini oldi". Darhqiqat, inqilob fojiaga aylandi. Erli xalq ziyolilariga ishonchsizlik bilan qarash, ularni turli ijtimoiy faoliyatdan cheklash, davlat boshqaruv idoralariga mahalliy millat vakillarini kiritmaslik odat tusiga kirdi. Buning ustiga ruslar tomonidan yerli axolini mensimaslik, kamsitish bolpsheviklar zamonida yanada avjiga chiqdi. Agar 1917 yilda proletar diktaturasi o'rnatilgan bo'lsa, o'zining ilk hukmronlik kunlaridan boshlab o'zbek xalqini o'z tarixidan, madaniy-adabiyodgorliklaridan mahrum qilish maqsadini astoydil amalga oshirishga kirishdi. Eng avvalo, xalqning tili vayozuviga hujum boshlanli. Ma'lumki, xalqimizning ming yillikdan ortiqroq tarixi, adabiyoti arabyozuvida bitilgan edi. 1929 y arabyozuvi tugatilib, lotin alifbosiga o'tildi. II yildan keyin esa rus alifbosi hukmron bo'lib qoldi. Qisqa muddat ichidayozuvning ikki marta o'zgarishi xalqni tarixidan judo qildi. Bu tadbirlarning qanday og'ir oqibatlarga olib kelganligini to'laroq tushuntirib beraman.

O'z-o'zini boshqaruv borasida ham tazyiq va taoqiblar davom etdi. Bolsheviklar o'zi tuzgan ishchi-dehqonlar hukumati tarkibiga milliy o'lka vakillaridan sanoqli kishilargina kiritdi xolos. Rus mustamlakachilarining mana shunday shovinistik tadbirlariga qarshi milliy boshqaruv tizimini yarata boshladilar. SHulardan biri va birinchisi 1917 y noyabr oyidayoq tashkil etilgan Qo'qon muxtoriyatidir. Muxtoriyat mustaqillikning ilk qadami sifatida dunyoga kelgan. Biroq u tez orada proletar diktaturasi tarafidan qonga botirildi. Muxtoriyat umri bir oyga ham etmadi. Muxtoriyatni "tinchitgach", rus qo'mondoni Kolesov endi Buxoro bilan Xevaga otlandi. Qisqa muddat ichida kichik ko'hna shaharni to'pga tutib, inqilobni amalga oshirdi, talon-taroj qildi. Qisqa muddat Respublika deb e'lon qilingan bu o'lkalar keyin O'zbekistonning viloyatlariga aylantirildi. 1924 yilda O'zbekiston SSRni tashkil etgan sovet hukumati "tenglar ichra teng" Respublikani o'z xo'ishicha idora qila boshladi. 1926 yilda bir yo'la ikki kompaniyani o'tkazi: yer-suv islohoti bilan "hujum" kompaniyasi uyushtirildi.

O'sha davrning ongli ziyolilari bo'lgan jadidlar ataylab uyushtirilayotgan bu tadbirlarga befarq qarab turolmadilar. Ular xalqning ko'zini ochish, o'z milliy urf-odatlaridan kechmaslikka chaqirdilar, proletar diktaturasi va bolpsheviklar partiyasining mudhish kirdikorlarini dadil fosh etishga kirishdilar. SHuning uchun ham sovet hukumati ularni jilovlash, o'z siyosatiga bo'ysundirish yo'llarini izlay boshladi. RKPBNing 1923-24 yillarda bo'lib o'tgan 11-12 soezdlarida adabiyotning vazifalari belgilab berildi, bundan so'ng adabiyot va san'at partiya siyosatini og'ishmay amalga oshirishi shart qilib qo'yildi. Bu ham kamlik qilganidek, 1925 yil 18.VI da "Partiyaning adabiyot sohasida siyosati to'g'risida" maxsu qarori qabul qilindi. Bu qarordan keyin proletar adiblarining gegimonligi, adiblar o'rtasida turli bo'linishlar yuz berdi. yozuvchilar o'rtasidagi bunday bo'linishlar ularni asosiy maqsaddan chalg'itdi, ijodni bachkanalashtirdi. Bir - birlariga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Turli oqimlar dunyoga keldi. SHulardan "CHig'atoy gurungi", "Yo'lovchilar", "Qizil qalam" to'g'risida ma'lumot beraman.

Mana shunday og'ir vaziyat, ichki qarama-qarshiliklarga qaramay, adabiyot yangilanish yo'lidan dadil boraverdi. To'g'ri, g'oyaviy jihatdan ijodkorlar ikki oqimga ajralib qolganligi yaqqol sezildi. Bir tomonda Hamza hakimzoda boshchiligidagi inqilob kuychilari - So'fizoda, G'ayraty, G'.G'ulom, H.Olimjon, Uyg'un, Botu, Elbek, Mirtemir, S.Ayniy kabilar, boshqa tomonda esa,

Fitrat boshchiligidagi A.Qodiriy, CHo'lpon, Munavvarqori, Tavallo, U.Nosir kabilar o'zaro g'oyaviy kurashni avj oldirdilar. O'rtada yana bir oqim - SH.Sulaymon, Oybek, G'.Zafariy va boshqa "Yo'lovchi" nomini olganlar ham bor edi. SHunday qilib, sovet hukumati o'ziga sadoqatli ijodkorlarni saralashga kirishdi, ularni ajratib olib, "eski" yozuvchilarga, ya'ni inqilobni qabul qilmayotganlarga qarshi qayradi. Natijada ular o'rtasida ham ijodiy, ham mafkuraviy, ham siyosiy kurash avj oldi. Natijada inqilobiy ruhdagi ijodkorlar oqni qora, qorani qizil qilib ko'rsata boshladilar. O'sha davrda partiyaning bosh yo'lini targ'ib etish, o'z sinfining ko'z-qulog'i bo'lishiga intilish sovet shoiri G'.G'ulom ijodining bosh maqsadiga aylandi va bu haqda u shunday yozadi:

Aqlarni partiyaning bosh yo'liga solamiz,
Qamlarni kun dorig'inyozmoqlikka istaymiz.

Ushbu bilangina cheklanmay, G'.G'ulom bu davrning shoiri "proletar mazolangan qo'llarining ko'z nurlari" bo'lish kerak deb ta'kidladi. H.Olimjon ham G'.G'ulom fikrlariga hamohang ravishda:

Partiyaning irodasi bizning yo'limiz,
Jumla jahon ishchisiga ko'rsatajakmiz:
Qanday qilib odimlarni tashlamak kerak

deya hayqiradi.

Matbuot sahifalari ham kurash maydoniga aylantirildi. Bir tomonda CHo'lponning "Buzilgan o'lkaga" she'ri bosilgan bo'lsa, ikkinchi sahifada unga qarshi G'ayratiyning "Tuzalgan o'lkaga" she'ri berildi. Fitratning "Mening kecham" she'riga qarshi Botuning "Mening kunduzim" she'ri bosildi. Bularning barchasi tjribali. Obro'li, xalqning suyuqli, ammo proletar diktaturasining aytganidan bo'yin tovlayotgan, xalqning dardini, mustqillik qo'shig'ini kuylayotgan ijodkorlarning obro'sini to'kish, ijoddan bezdirishga qaratilgan bo'lib, oxir-oqibatda ularni yo'qotishga zamin hozirladi.

30-yillarga kelib, partiya o'zining ko'pgina niyatlariga erishdi. Ko'pchilik ijodkorlarni o'zi tuzgan nota asosida kuylashga o'rgatib oldi. Endi bu ishni yanada musta'kamlash, yozuvchilarni rasmiy bir tashkilotga birlashtirish, ijodiy metodini belgilab berish zarur edi. SHu maqsadda partiya 1932 yil 23.04 da "Adabiyo-badiiy takiltlarni qayta qurish to'g'risida"gi qarorini e'lon qildi. Qarorda aniq qilib sovet hokimiyatini tutgan yo'liniyoqlovchi va "sotsialistik qurilishda ishtirok etishga intiluvchi barchayozuvchilarni yagona sovet yozuvchilari soyuziga birlashtirish" kerakligi ta'kidlandi. Demak, ijod qilishni istabsanmi, soyuzga kirasan. Soyuzga kirdingmi, so'zsiz sotsializmni kuylaysan, chizgan chizig'imdand chiqmaysan, vassalom!, degan edi bu. To'g'ri, bu qaror boshqa tjribali, etakchi qalam ahlining xayrixohlikka sabab bo'ldi. CHunki RAPP, VOAPP tashkilotlari tomonidan chetlatib qo'yilganyozuvchilar uchun o'zini namoyon qilish imkonini berar edi. Masalan, A.Qodiriy bu qarorni o'zi uchun "kutilgan go'zal sovg'a" deb bildi. Fitrat shu qaror munosabati bilan "O'zbekistonningyosh, rivoj topayotgan adabiyoti zo'r yuksalish" yo'liga chiqib olganligini tan oldi. Natijadayozuvchilar o'rtasida partiyaga sadoqat, sotsialistik voqelik va qurilishni kuylashga ishtiyoq har qachongidan ham avj oldi. Mana shunday ko'taringki sharoitda O'zbekistonyozuvchilarining 1 va SSSR zuvchilarining 1 soezdlari bo'lib o'tdi va unda sovet yozuvchisi uchun yagona qolip - sots.realizm metodi qabul qilindi. Bu metodning adabiyotimizga etkazgan dahshatli zararlari to'g'risida so'zlab beraman.

Adabiyotni aslida o'zi yo'q ko'taringkilik, hali barpo etilmagan qurilishlarni ko'rsatish, ochlik, vayronalikni farovon va baxtli turmush deb tasvirlashga majbur qilish shakl hamda mazmunning qashshoqlashuviga olib keldi. Zavod va fabrikalarda ishchi shoirlar otryadi paydo bo'ldi. Ular adabiyotga stanoklar, mashinalar, kranlar ovozini, ritmini, ohangini olib kirishga urindilar. Natijada shaklbozlikka berilib, mazmun unutildi. SH. Sulaymon, U.Ismoil, G'ayratiy kabilar bu borada faollashdilar. Ularning she'rlaridan misollar keltiraman. Natijada o'zbek adabiyotida futuristik, simvolistik she'rlar ko'plab paydo bo'ldi, "Usti yaltiroq, ichi qaltiroq she'rlar" yaratildi.

YAXshiki, adabiyotimiz baxtiga sadoqatli, kuyunchak ijodkorlar bor. Ular bunday nojo'ya qalqishlarni o'z vaqtida fosh yetib, to'g'ri yo'lga solib, ogohlantirib turadilar. Futurist shoirlar

avjiga chiqqan paytda A.Qodiriy, S.Ayniy kabi chinakam ijodkorlar ularni ogohlantiruvchi masqaraomus “futurist” she’rlar e’lon qildilar. Ularni o’qib beraman. Bunday fidoiy sanoatkorlar har qanday vaziyatda ham adabiyotning xalqchillik ruhini saqlab qolishga, uni yangi, chinakam umri uzoq badiiy asarlar bilan boyitishga harakat qilaveradilar. A.Qodiriy birinchi o’zbek romanini yaratdi. Fitrat o’zbek dramaturgiyasini yangi bosqichga ko’tardi, uni tarixiy va xorijiy mavzu bilan boyitdi. CHo’lpon she’riyatda ehtiros va dardni uyg’unlashtirdi, istiqlool muammosini olib kirdi; U.Nosir o’zbek she’riyatini sonet janri bilan boyitdi va h.k. Bu, shubhasiz, o’zbek adabiyotining ko’p ovozli bo’lib rivojlanayotganidan, ifodalash uslubi rang-barang bo’layotganidan dalolat berardi. Aslida adabiy jarayon shunday bo’lishi kerak.

Ammo adabiyot va sanoatga rahbarlik qilishni o’zining burchi deb bilgan kom partiya bu tabiiy va qonuniy jarayon bilan murosqa qila olmadi. Unga ko’p ovozli va rang-barang uslubdagi adabiyot emas, balki “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” adabiyot kerak edi. Partiyaning 1932 yil 23.04 dagi “Adabiy badiiy tashkilotlarni qayta qurish to’g’risidagi qarori, yozuvchilarning 1 soezdi adabiyotdagi ko’p ovozlilikka barham berdi. Adabiyotda bir guruhning, bitta g’oyaning, yagona metodning hukmron bo’lishiga zamin yaratgan bu hujjatlar o’zbek yozuvchilarning ijodiy taqdiriga ham salbiy ta’sir ko’rsatdi. Xullas, 1937 yil boshlangan qirg’in bilan o’zbek adabiyoti ham umum sovet adabiyoti singari bir ovozli adabiyotga aylantirildi. SHunday qilib, 30-yillarning ikkinchi yarmida adabiyotimizda monologizm tendentsiyasi tantana qildi va unda moslashuv davri boshlandi.

qoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. 20-40-yillar adabiyoti jiddiy ijodiy va siyosiy qarama-qarshiliklar bilan rivojlandi. Bu rivoj yo’lida ko’p qonlar to’kildi, ijodkorlar ovozi dag’allashdi.

2. Asarlarning mavzu yo’nalishi bir qolipga solina boshlandi. Inqilobning hali amalda ro’y bermagan afzalliklarini kuylash shart qilib qo’yildi. Ijodkorlardan o’tmish va hozirga faqat biryoqlama munosabatda bo’lish talab qilindi.

3. Klassik adabiyot va folpklor an’analarigayondashishda ham biryoqlamalikka yo’l qo’yildi. An’anaga munosabat printsiplari buzildi, uni sotsialistik maqsadga bo’ysundirishga ‘arakat qilindi.

4. Ijod erkinligi yo’q qilindi. Erkinlik partiyaning dastyori bo’lishda deb belgilandi. Adabiyot sovet mashinasining varragi va vintiga aylantirildi.

5. Badiiy adabiyotga partiya yakka hokimligi oqibatiga publitsistika suqulib kirdi va u adabiyotni yuksak badiiylilikdan, obrazli fikrlashdan, ehtirosli qochirimlardan yiroqlashtirdi. Badiiy adabiyot davrning aravasiga chiqib, uning qo’shig’ini aytishga moslashtirildi.

6. 20-40-yillar adabiyoti o’zining bosh konseptsiyasini inson va jamiyat tarzida emas, aksincha, jamiyat va inson sifatida belgiladi. Buning oqibatida adabiyotning bosh qahramoni inson ijtimoiy voqealar fonida ifodalana boshladi.

Muammoli masalaga javob: Mustaqillik sharofati bilan ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri o’zbek adabiyotining o’ziga xosliklari, yutuq va nuqsonlar, partiya va mafkuraning yakkaxokimligi yo’nalishlar, oqimlar, uyushmalar to’g’ri bahosini olmoqda. Turli partiyaviy qarorlarning adabiyotga ko’rsatgan salbiy ta’siri faktlar asosida ko’rsatib berilmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bu davr «Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti»ning nechanchi bosqichi?
2. Bu davr sharoiti haqida gapiring?
3. Inqiloblar xalq taqdirida qanday rol o’ynadi?
4. Ziyoli-jadidlar inqilobni qanday kutib oldilar?
5. Adabiyotning bo’linishi nimaga olib keldi?
6. SHu davrda partiya adabiyot sohasida qanday siyosat olib bordi?
7. Sotts.realizm metodining adabiyotga etkazgan zarari.
8. Sovet hukumatining jadidalarga munosabati qanday edi?
9. Repressiya uyushtirilishining sabablarini bilasizmi?
10. Jadid bobolarimiz qachon oqlandi va ulug’landi?
11. SHu davr she’riyatini tahlil qiling?

12. SHu davr she'riyatining mavzusi qanday edi?
13. Til vayozuv masalasini hal etilishi.
14. «Qo'qon muxtoriyati» va uning taqdiri qanday tugadi?
15. SHu davrdagi adabiy oqimlar haqida nima deya olasiz?
16. Publitsistika qanday mavzu va muammolarni ko'tardi?
17. Hikoya janrining shakllanishi qanday kechdi?
18. Qanday qissalar dunyoga keldi va qanday voqealar ifodalandi?
19. SHu davr romanlari haqida ma'lumot bering?
20. SHu davr adabiyoti haqidagi asosiy xulosalarni ayting.

9-mavzu: BOTU (MAHMUD HODIEV) IJODI (1904-1938).

Reja:

1. Botuning tarjimai holi.
2. She'riyatining mavzu va obrazlari.
3. Prozasi.

ADABIYOTLAR:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., 2001.
2. Botu. Tanlangan asarlar. T., 2004.

TAYANCH IBORALARI:

Adabiy muhit.
Ijtimoiy – siyosiy hayot.
She'riyatdagi mavzu va obrazlar.
Hikoyachilik mahorati.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Botu tarjimai holi haqida nimalar bilasiz?
2. Uning jamoat arbobi sifatidagi faoliyati.
3. Botuning san'at va adabiyot rivojidagi o'rni qanday?
4. She'riyatining mavzu va obrazlari haqida so'zlab bering.
5. Botuning qanday prozaik asarlari bor?
6. Shoir dostonchilik mahorati nimalarda ko'rinadi?
7. Botu maqolalari haqida so'zlang.
8. Botu qanday qatag'on etilgan?
9. Botu haqida kimlar xotiralar yozganlar?

DARSNING MAQSAD VA VAZIFALARI: Botu tarjimai holi, faoliyati, adabiy meros, ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida ma'lumot berish. Asarlarining mazmuni bilan tanishtirish. Tahlil etish.

Insoniyat tarixida bo'lib o'tgan 14 ming 613 ta urushda 364 million kishining yostig'i qurigan. Birgina XX asrning o'zida bo'lib o'tgan urushlarda esa million kishi nobud bo'lgan. Ular orasida qanchadan-qancha komil insonlar bo'lgan, betakror iste'dod egalari bo'lgan. Mutabid Sho'ro hukumati qanchadan-qancha komil insonlarni qatag'on etdi, yostig'ini quritdi.

O'zbek xalqining ana shunday yorqin siymolardan biri, 26 yoshida “aksil-inqilobchi”, “millatchi” sifatida qatag'on etilgan shoir va damoat arbobi Botudir.

Botu (Mahmud Hodiev) 1904 yil 16 mayda Toshkent shahri Shayxontohur dahasining Qatortarak mahallasida bo'zchi oilasida tug'ildi. Uning otasi Maqsud Hodiev katta ilm egasi bo'lmasa-da, ulkan qalb egasi, ilmiy taraqqiyparvar odam edi. U sarrojlilik kasbini ham egallagan edi. Maqsud aka kambag'al bo'lganligi bois 30 yoshida 13 yashar To'xta ismli qizga uylanadi.

Botu 6 yoshidan eski maktabda o'qidi. So'ng Toshkentdagi rus-tuzem maktabida ta'lim oladi. Bu orada g'alayonli 1917 yil kirib keldi. Botu 1918 yilda “Vatan” maktabi qoshida Said Axroriy tashabbusi bilan tashkil etilgan “Izchi” to'ldasining, 1919-1920 yillarda esa Fitrat tashabbusi bilan tashkil etilgan «Chig'atoy gurg'ini» tashkilotining faol a'zosi edi. Botu bu davrda Fitrat ta'sirida bo'lib, “Tong” jurnalining nashr etilishiga kotib sifatida ishtirok etdi.

Botu 1921 yildi “Farg’ona” gazetasiga muxarrir etib tayinlanadi. 1922 yilda esa Moskvaga Pokrovskiy nomidagi institut qoshidagi ishchilar fakultetiga o’qishga yuborildi. Botu o’qishni tugatgach, 1923-1927 yillar mobaynida 1-Moskva Davlat universiteti ijtimoiy fakultetining iqtisod bo’limida tahsil ko’rdi.

Falakning gardishi bilan shu yillarda Fitrat va Cho’lpon ham Moskvaga borib qolgan, ularning biri Jonli Sharq tillari institutida, ikkinchisi esa O’zbek dram studiyasida tahsil olayotgan edilar.

Botu hayotida uning umr yo’ldoshi Valentina Petrovna Vasilevaning o’rni katta. U Botu bilan 1923 yilda tanishgan. V.P. Vasileva bilan Moskvada tanishadilar. 1924 yilda turmush quradilar. 1926 yil 3 yanvarda ular to’ng’ich o’g’il farzandlarini ko’radilar. Unga Cho’lpon dastlab “Ozod” deb ism beradi. Lekin ular bu ism ruschada unda yaxshi quloqqa chalinmasligini aytadilar. Shunda Cho’lpon “Erkli” deb ism beradi. Ularga bu yoqadi.

Moskvadagi yoshlar bu davrda N.Gumelev, A.Axmatova, S.Esenin, V.Mayakovskiy, A.Bezimenskiy, A.Jarov singari shoirlarning asarlari bilan yaxshi tanish edilar.

1929 yil 28 avgustda Xalq maorif komissari o’rinbosari etib tayinlandi.

Botuning «Sevgan qiz» deb nomlangan sachma she’ri Sora Eshonto’raevaga bag’ishlangan. U Boboxon Sharipova, Tursunoy Saidazimova singari iste’dodlarni Moskvaga o’qishga borishlariga bosh-qosh bo’ldi.

30-yillarda yo’qsil taxallusi bilan ijod qilgan Bahrom Ibrohimovning eslashicha Botu o’zi muxarrirlik qilgan «Alanga» jurnalida ilk bor Xasan Po’lat she’rlarini e’lon qildirgan.

Botu 1930 yil 5 mayda Farg’ona pedagogika oliy o’quv yurtini ochilishida bosh-qosh bo’lib, Farg’onaga kelgan hamda zobitlar uyida bo’lgan tantanali kechada nutq so’zlagan. Bu o’quv yurti ta’lim tarbiya texnikumi bazasida tashkil etilgan edi. Unda Botu “Farg’ona yoshlariga” degan she’rini o’qib bergan.

Farg’onaning etim-esir, dardli yo’qsil yoshlari,

“Yurtimizning ko’p baholi tuproqlari, toshlari.

Bir necha yil qon emdi”, deb bo’lmang sira umidsiz.

Umidsizlik yo’qliklarga yo’l boshlaydir, shubhasiz.

Ilgariga yuguringiz, yuksalingiz, uchingiz!

Qarshi chiqsa, tog’ni yanching, tanda borkan kuchingiz!

Botu har tomonlama go’zal, mehribon, jonkuyar, tashkilotchi, irodali, bir so’zli inson bo’lgan.

Andijon viloyati xalq maorifi bo’limi mudiri Nosir Saidov 1930 yil 23 iyun kuni Samarqanddan poezdda kela turib, Toshkent vakzaliga tushadi va akasi Obid Saidov uyida mehmon bo’ladi. U kechasi bezovtalanib vafot etadi. Tekshir-tekshir natijasida Nosir Saidov zaharlangan deb topiladi. 20 kishi qamoqqa olinadi. 1930 yil 23 iyul kuni Botu ham aksilingqilobchi va millatchi guruhning rahbari sifatida qamoqqa olinadi. Mahbuslar Moskvaga olib ketilib, Butirka qamoqxonasiga qamaladilar. 1933 yil 31 mart kuni Mannon Ramziy, Nosir Saidov, Sobir Qodirov, Qayumxo’ja Aliev, Qamchinbek (Abdulla Gaynullin)ni dastlab o’lim jazosiga hukm etiladilar. Ular orasida Botu ham bor edi. So’ng jazo 10 yil qamoq bilan almashtiriladi. Botu jazo muddatini o’tash uchun solovest orollariga jo’natiladi.

1937 yilning mudhish voqealari boshlangandan keyin Botuni yashirin ravishda Moskvaga olib boriladi va 1938 yil 9 may kuni o’shro davlatining ashaddiy dushmani sifatida otib tashlanadi.

1925 yili “Umid uchqunlari”, 1929 yili esa “To’lqin tovushlari” to’plamlarining nashr etilishi ham Botu o’zbek yoshlarining eng sevimli shoirlari qatoridan o’rin egalladi.

Ko’nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,

Yosh yo’llar, yosh kuchlar izlayman.

Ortga tortganida hadyam – tosh,

Har choq men ilgari undayman.

“O’zbek qiziga” she’ridan olingan bu satrlarda Botuning shu yillardagi ijodiy dasturi, dunyoqarashining asosiy yo’nalishi o’z ifodasini topgan. Chindan ham jamiyat shu yillarda o’zgarib borayotgan, yangilik bilan eskilik o’rtasidagi jadid yozuvchilar tufayli boshlangan kurash yangi tarixiy sharoitda davom etayotgan edi. Modomiki, yoshlar yangilikning nafaqat tarafdorlari, balki eng avvalo yaratuvchisi sifatida dunyoga kelar ekanlar, Botu ham o’z asarlari bilan ana shu yoshlar

hayotiga kirib bormoqchi, ularga o'z orzu va intilishlarini yuqtirmoqchi, shu yo'l bilan yangilikning g'alaba qozonishiga o'z hissasini qo'shmoqchi bo'ldi.

Botu she'rlari bilan bir qatorda dostonlar, hikoyalar va maqolalar ham yozdi. "Hayit harom bo'ldi", "Tong qizi", "Yo'l", "O'tmishdan bir ertak" kabi doston qissalarini yozdi. Botu she'rlarida 20-yillarning dolg'ali voqeliklarining aksi o'z ifodasini topgan.

So'rma o'rtoq, ko'zlarimda o'tli yosh qaynashganin,
So'rma hech bir yuzimdan qayg'ular o'mashganin.
So'rma bu majnun ko'ngilning dard ichida yonganin,
So'rma bu mahzun xayolning qay ochunda yurganin...
Dardlilar dard anglatolmas dardsiza so'zlov bilan,
Ko'rsatib bo'lmas quyoshni ko'zsiza maqto'v bilan.

Botu mumtoz adabiyotimiz namoyandalari Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Sakkokiy, Furqat, Ado, Xatif kabilar ijodidan ta'sirlanadi. Botuning sevgan shoirlaridan biri Fuzuliy edi. Botu ilmiy, adabiy, siyosiy-ijtimoiy masalalarga, ayniqsa, til bilishga qiziqadi. Hech bo'lmasa ruschadan boshqa Sharq tillaridan arab, fors, tojik, G'arbdan Franstuz yoki ingliz tilini bilishi zarur der edi.

10-MAVZU: FITRAT HAYOTI VA IJODI

1-ma'ruza

DARS REJASI

1. Tarjimai holi.
2. She'riyati.

ADABIYOTLAR

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
2. Y.Solijonov. Tong yulduzlari. F., 1995.
3. Fitrat. CHin sevisi. T., 1994.
4. Fitrat ijodini o'rganish borasidagi muammo va munozaralar.

TAYANCH IBORALAR

1. Fitratning tarjimai holi.
2. Fitrat merosi.
3. She'riyati.
4. Fitrat - dramaturg. Tarixiy va zamonaviy dramalari.
5. "Abulfayzxon" dramasi: mavzu va muammo.
7. Fitratning xorijiy mavzuga sayohati.
8. Fitrat va istiqloq.

Darsning maqsadi: Fitrat tarjimi holi, faoliyati, adabiy merosi tug'risida talabalarda mustaqil fikrla uyg'otish.

XX asrda milliy uyg'onish davrining yirik nomoyondalaridan biri, o'zbek adabiyotining she'riyati va dramalari dramaturgiyasida ham shaklan, ham mazmunan isloh yasagan ijodkor bu - Fitratdir. Uning taqdiri nihoyatda chigal, tufon va to'lqinlar kurashida kechdi. Abdurauf Abduraxim o'g'li Fitrat (arabcha yaratilish, tabiat, tug'ilish) o'zining yozishicha, 1884 yilda Buxoroda tug'ilgan. SHu paytgacha Fitratning tavallud topgan yilini 1886 yil deb ko'rsatib kelinardi. Darhaqiqat, repressiya yillaridagi Fitrat shaxsiga oid hujjatlarda, savol javob varaqalari, xukm haqidagi qarorda bepisandlarcha ismi sharifi ham qisqartirilib Rauf Raximovich Fitrat 1886 yilda tug'ilgan deb berilgan. Keyingi izlanishlar tufayli topilgan "YO'pishmagan gajjaklar" maqolasida o'zi tug'ilgan yili aniq 1884 yil deb ko'rsatadi. Biz hamyolg'onchi sovet hukumatining soxta hujjatlariga emas, balki uning nohaq qurboni Fitratning o'ziga ko'proq ishonamiz.

Fitratning bir nechta she'rlari va dostoni e'lon qilingan. Istanbul dorilfununidagi tahsil yillarida kamolga etdi. U adabiyotga shoir sifatida kirib keldi. Ilk to'plami Sayxa 1911 yili Istambulda nashr qilingan. YUrtiga qaytgandan keyin Uchqun nomli she'rlar to'plami bosildi. 1922 yilda chop etilgan vayosh o'zbek shoirlari majmuasida ham Fitratning bir necha she'rlari va dostoni e'lon qilingan.

Fitratdan juda katta adabiy meros qoldi. Uning bu merosi shartli ravishda she'rlar, nasriy asarlar, dramalar, ilmiy tadqiqotlar kabi to'rt guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Bunga yana uning tarjimalari va publitsistik asarlari kirmaydi. Ammo afsuski, bu ulkan meros hali to'la topib jamlangan emas. Ayrim she'rlari "Abulfayzxon", "Xind istiqlochlilari" dramalari hamda "Xind sayyohi" qissasining "SHarq yulduzi" jurnali sahifalarida e'lon qilinganligining bundan qariyb o'ttiz yillar muqaddam bosilganu yig'ishtirib olingan Qismat nomli nasriy asarini hisobga olmaganda Fitrat xamon bizga nomaolum bo'lib turibdi. Biz muxlislari mutolaa qilishga ulgurgan ana shu ozgina asarlariyoq Fitratning mustaqilligimiz bayroqdori, badiiy adabiyotda istiqlol g'oyasining boshlovchisi bo'lganligidan dalolat beradi.

SHoir Fitrat "Mening Vatanim", "SHarq", "SHoir", "Mirrix yulduziga", "YUrt qayg'usi" kabi o'nlab she'rlarida mustamlaka zanjirida azob chekayotgan xalqining taqdiriga ochinadi, uning hayot ekanini zolimlar qo'lidan ajratib olish uchun kafanimni bo'ynimga olib olganman, deb qasamyod qiladi va umrining oxirigacha ana shu qasamiga sodiq qoldi. SHoirning hech qanday izohlarsiz birgina Mirrix yulduziga she'rini keltirishning o'zi yuqoridagi fikrlarni izohlaydi:

Go'zal yulduz erimizning eng qadrlil tungoni
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarga tushib sen
To'lgoningga nechun sira gapirmasdan turibsan
So'yla yulduz holing nadur? Nechuk topding dunyoni
Bizning erda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar.
So'yla yulduz sening doxiy quchog'ingda bo'lurmi
Bormi senda bizim kabi insonlar
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar
O'rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar
Qardosh etin to'ymay egan qoplonlar?
Bormi senda o'qsiz yo'qsilning qonin
Gurunglashib dogit kabi ichganlar
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O'z qopchig'in to'dirgani buzganlar
Bormi senda bir o'lkaniyondirib
O'z qozonin qaynatuvchi hoqonlar
Bormi senda qorin kursoq yo'lida
Olib yurtin borin yo'g'i sotganlar?

Mana shu she'rni tahlil etishning o'zi ham Fitrat ijodining mag'zini chaqib olishgayordam beradi.

2-ma'ruza: FITRAT – DRAMATURG.

Dars rejasi:

1. Dramalari. "Abulfayzxon".
2. Fitrat ijodini o'rganish borasidagi muammo va munozaralar.

ADABIYOTLAR

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
2. Y.Solijonov. Tong yulduzlari. F., 1995.
3. Fitrat. CHin sevish. T., 1994.
4. Fitrat ijodini o'rganish borasidagi muammo va munozaralar.

O'zbek dramaturgiyasining oyoqqa turishi va keng miqyosda rivojlanishiga ham juda katta xissa qo'shgan sanoatkordir. U o'zbek dramaturgiyasiga tarixiy, xorijiy mavzularni olib kird va ular orqali shu kunning dardini orzusini aks ettirdi. Fitrat kuyi bilan ularning unosi yillar orasi o'zbek adabiyotini "Temur sag'anasi", "O'g'uzxon", "Abomuslim", "Abulfayzxon" "Umar Xayyom", "Vosp" singari tarixiy, "Xind ixtilochilari", "CHin sevish" kabi xorijiy, "Kon", "To'lqinlar" deb atalgan inqilobiy ruxdagi "Arslon", "Begijon" "Ro'zalar" va boshqa zamonaviy mavzudagi dramalar bilan boyitdi. SHuningdek u "SHaytonning tangriga isyoni" nomli baquvvat she'riy dramaning mualifi hamdir.

Ko'rinadiki, Fitrat adabiy merosining kattagina qismini dramalar tashkil etadi. Umumtaolim maktablarining XI sinf dasturiga Fitratning "Yo'qsk o'lkasining tarixidan besh pardali fojia" deb izohlangan "Abulfayzxon" dramasi kiritilgan. Xind ixtilochilari dramasi esa mustaqil o'qish uchun berilgan. Bu dramalar hali alohida kitob holida bosilib chiqmaganligidan u o'qituvchi va o'quvchilar, umuman, keng kitobxonlar ular haqida to'la tasavvurga ega emaslar. Buning ustiga XI sinf uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasid dramadan uch parda berilgan xolos. G'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan muallifning g'oyaviy niyatlarini ochishga ko'maklashadigan ko'rinishlar darslikdan o'rin olmay qolgan. SHuni nazarda tutib biz buyorda Abulfayzxon dramasi yaxlit holda tahlil etishni vazifamiz deb bildik.

Abulfayzxon dramasi 1924 yili Moskvada shu erga o'qishga kelgan o'zbekiyoshlarining tashabbusi bilan o'zbek tilida bosilib chiqqan. Bu tarixiy drama o'zining mukammalligi, syujet va kompozitsion qurilishidagi o'ziga xosligi, ziddiyatlarga boyligi hamda keskinligi, xarakterlarning to'laqonli talqini bilan huddi A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani singari o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunasi bo'lib qoldi.

Dramada muallif qonxo'rlikni kasb qilib olgan kimsa hech qachon mamlakatni uzoq boshqara olmaydi, yakka hokimlik, diktatura xalqni holdan toydiradi. Oqibatda xalq bunday zolimlarga qarshi kurashga ko'tariladi degan fikrni ilgari suradi. To'g'rirog'i dramaning so'nggi pardasi shunday fikr bilan yakunlanadi. Fitrat faqat sharq adabiyotinigina emas, ayni paytda G'arb adabiyoti sirlarini ham puxta bilgan sanoatkor edi.

Ushbu dramasida SHEkspirona usullardan o'rinli va unumli foydalanganligini ko'ramiz. Unda Siyovush timsolidagi xayol timsoli beriladi. Fojea so'ngida kirib keluvchi bu ramziy timsol xalqning xonlikka qarashini, nafratini munosabatini aks ettiradi. Xonlikning ashaddiy illatlarini fosh etib tashlaydi.

Bu tisol shuning uchun ham ramziyki, Siyovush ham o'z zamonida arzimagan kelishmovchiliklar, Tojikiston taxt talashish borasidagi ishonchsizliklar qurboni bo'lgan edi. SHundan kelib chiqib, Fitrat Siyovush ... hayol nutqi sutkali begunoh qon tukishlarga bosh aybdor taxtdir demakchi bo'ladi.

Abulfayzxonni o'ldirib endi uning o'g'li Abulmumaynni zaharlagan Raximbeni g'alaba nashidasini surayotganda hayol kirib keladi. U 17 yashar o'smir Abulmo'minxonning jasi ustida shunday faryod chekadi. "XAYOL: Ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo'lmagan bolalardan, tog'" kabi yigitlardan millionlari sen uchun qurbon bo'lib ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilgan minglarcha tangrining eng buzuq boshi eng shumi! Ey, qop-qora saodat sanasi. Ostingda qolganlarni ezguvchi bir falokat yuki bo'lg'oning kabi ustiga chiqqonlarning borlariniyondirguvchi bir olov tepsipdursan!

Sen fazilatlik bilimlarning kul, qanotlarini uzib tashlading. Inju tuzguvchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog'i bilan bolalarni bo'g'izlading. Bola hanjari bilan otlarni yiqitding. Do'stlarni bo'g'ishtirding, o'rtoqlarni urushtirding, dalaning erkini, shaharlarning tinchini, erlarning g'ayratini, xotunlarni ismatini talatding. Ey boyqushlar qafasi, bunday dev ishtaxalik hayvonlarning qo'li bilan qachongacha dunyolarni bir biriga urib turasan. Tinchlik saqlamoq baxonasi bilan millionlarcha inson kumasidan chuqurdan chuqurga yumalatmog'ingni zamoni xanuzgacha bitmadimi?!

Fitratning ushbu fojiasi orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini xayol monologidan ilg'ab olish qiyin emas.

Dramaning bosh qahramoni Abulfayzxon - nihoyatda dahshatli shaxs. Qariyb bir asr davomida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi xoni bo'lgan Abulfayzxon davrida Buxoro o'lkasida juda keskin va og'ir vaziyat vujudga keladi. Abulfayzxon xonlik taxtini qonli zina poyalarni bosib o'tib egalladi. Bu yo'lda otasini, aksini qarindoshlarini o'ldiradi. Taxtga o'tirgandan keyin ham ha kimdanki, shubhalansa tafakkur tortmay o'ldiraverdi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: "Bir dushmanimning qoni qurimay yana bittasi chiqib kaladur. Qachongacha o'lduraman bularni? O'lduraman O'lduraman! Dunyoda bitta dushmanim qolguncha qon to'kaman. Ulfatning so'zi to'g'ri. Podsholik qon bilan sug'oriladigan biryog'ochdur. Abulfayzxon ana shunday qonxo'r, zolim va shafqatsiz hukmdor bo'lgan. Mehnatkash xalqning eng yaxshi

farzandlarini ham, o'zi ozgina shubhalangan bek-u amaldorlarni ham ikkilanmasdan jallod qo'lga topshirgan.

Uning ongini! Butun jandallarni faqat o'lim bitiradir" degan mudhish fikr chirmab olgan.

Ayni paytda drama Abulfayzxonning kechinmalari ham haqqoniy ifodalangan. Gulnozxon ko'p qon to'kislardan xoning o'zi ham sezadi, vasvasaga tushadi. Qon to'kmoqdanda bezdim deydi u Ulfatga. Akamni o'ldirdim. Ko'p do'stlarimni o'ldirdim. Meni birikmalar ota kabi asragan Farxod otaliqni boshini oyoqlar ostida ko'rdim. Uf, ko'zlarim qonga to'ldi. Kechalari uxlay olmayman. Xonning bu holati xos xonasidagi xarakatlar orqali yanada ishonarli ko'rsatilgan.

Xoning yaqin beklaridan hakimbey otaliqqa uning o'g'li Raximbey to'qsabo Eron shoxi Nodirshox bilan aloqa bog'lashib, uningyordami bilan taxtni egallaydilar. 11-Sinf uchun chiqarilgan 2"O'zbek adabiyoti majmuasida berilmagan 3-pardada hakimbey Abulfayzxon Nodirshoxning qudrati bilan qurqitib, unga bo'ysuntiradi. O'zini mavqeini tag'in ham mustahkamlab oladi. Hakimbey ham, Raximbey ham taxni shaxsiy manfaati, amal yo'lida qo'lga oladilar. Abulfayzxon ham, Abulmo'min xonni ham, o'ldirib Raximbey xon bo'ladi. Ammo u ham xalqning axoli bilan qiziqmaydi. Zulm va qon to'kishdan qaytmaydi. Xonlik ichida o'zaro kelishmovchilik, fitna va qatag'on davom etaveradi.

Dramada birgina xalqparvar, adolatparvar, kurashchan obraz Ibroxim Inoqdir. Ibroxim inoq katta tarbiyaviy ahamiyatiga molik personajdir. Afsuski, uning ana shu tomonlarini ko'rsatadigan 5-parda darslik majmuada berilmagan. Abulfayzxon o'zi o'ldirgan Farxod otaliq o'rniga Ibroxim inoqni tayinlaganda noilojlikdan ko'nadi. Lekin dadil: "Bir kun borib meni o'limimga xukm chiqarursiz" deb bashorat qiladi. CHunki xon uning nazarida o'ta qonxo'r va Ulfat bilan Davlatning qo'g'irchog'iga aylangan shaxsdir. Xonga yaqin bo'lmoqni istaganlar avvalo Ulfat va Davlatning nafsini qondirmog'i dardkor.

Ibroximbey Abulfayzxon zulmiga qarshi ongli ravishda kurashga o'tlanadi. Toqqa chiqib ketib lashkar to'plab ko'p yillar Abulfayzxonni taxlikaga soladi. Oxir qo'lga olinib zindonband qilinadi. Zindon azoblari uni jismonan engsada ma'nan eng olmaydi. Raximbey taxtga o'tirgach, uni xuzuriga olib keladi, o'zi bilan ishlashga undaydi. Bu paytda u ancha keksayib, ko'rmaydigan bo'lib qolsada, Ibroximbey o'z niyatlaridan qaytmagan bo'ladi. Adolatning ro'yobga chiqishi el - yurt osoyishtaligi uchun kurashni davom ettiradi.

Ibroximbeyning fikricha, xonni qurultoy yo'li bilan saylash kerak. Qasdma qasdiga taxtni egallash element yurtga zarar, mamlakatga vayronalik keltiradi. Ibroximbey taxtni shaxsiy adovat, boylik va obro' orttirish niyatida egallagan Raximbeyning hali ko'p qon to'kishiga ishonadi. Uning yuziga aytadi: Siz shu kun erta Abulmo'minni ham otasining orqasiga yuborib taxtni olarsiz. Men Abulfayzxon bilan urushdim. CHunki u xaqsizlik qilgan edi. Siz undan ham ortiq haqsizlik qilib turibsiz. Ko'zim ochiq bo'lganda edi siz bilan ham urushar edim".

SHubhasiz bu so'zlar o'quvchilar ongida xalqparvarlik, adolat, mustaqillini asrab qolish tuyg'usini mustahkamlaydi.

Dramadagi Ulfat va Davlat qonxo'rlik bosqinchilik va zulm timsolidir. Ular aslida Abulfayzxonning otasi tomonidan egaligida sotib olingan qullar bo'lib xonga itday sadoqat bilan xizmat qiladilar. Ulfat - xonning xar yerda, har qanday xizmatiga tayyor turgan do'sti. Davlat esa ana shu bazmu ishratlariga mablag' etkazib beradigan ochko'z kimsalardan biri. Ibroxim inoqning Abulfayzxonni ogohlantirib: Ulfat bilan Davlatni rozi qilmoq mumkin emasdir deydi. Ulfat xon saroyida katta mavqega ega, xo'ja saroy lavozimini egallagan. Uning aytgani aytgan, degani degan. Ulfat xonning shafqatsizlikka, qonxo'rlikka undaydi. Uning shiori: "Podshohlik qon bilan sug'oriladigan biryog'ochdir. Qon oqmaganyog'och qurib qolishi aniq. Abulfayzxon ham bunga ishonib to'la amal qiladi.

Hindiston mavzusi Fitrat ijodida muhim o'rin tutib, keng ishlangan. Adibning "hind sayyohi", "hind ixtilochilari", "CHin sevish" dramalari shu mavzudayozilgan. Bu mavzudagi asarlarida Fitrat mustamlakachilikka qarshi kurash g'oyasini ilgari suradi. Proletar diktaturasini qatl tegirmoni jadal ishlab turgan bir sharoitda xushyor sanoatkor, istiqlool muammosini o'z yurtidan olingan voqealik tizimida ifodalay olmasdi. SHu bois Fitrat ataylab hindistonga safar qiladi. Uzoq hindiston tuprog'ida ro'y bergan voqealarni ifodalash orqali dramaturg har ikki dramasida ham

istiqlol dardini aytmoqchi bo'ladi. Mustamlakachilik siyosati tufayli oddiy fuqaro boshiga cheksiz jabr zulmlaryog'ilayotganligi, bunga qarshi ko'tarilishi, osyonkirlik g'azabi va nafrati asardagi personajlari faoliyati, taqdiri va buyuk etiqodi orqali ko'rsatiladi.

Dramalarning g'oyaviy asosini hindistonlik vatanparvarlarning o'z yurtini ingliz mustamlakachilarini zulmidan ozod qilish orzusi, kurashiga intilishini tashkil etadi.

Dramaturg Raximbaxsh, Dilnavoz, Karimbaxsh, Nuriddin, Zulayxo kabilarning obrazlari orqali hindiston Milliy ozodlik kurashchilarini fidoiyligini ta'sirchan ifodalaydi. Hind ixtilochilari dramasining bosh qahramoni Raximbaxshning butun fikri zikri inglizlarni hindiston tuprog'iga quvib chiqarishdir. Bu ishni u ezgu ishlarni eng birinchisi deb biladi. Uning nutqida Fitrat istiqlol dardi bilan og'rigan ixtilochilarning tuyg'ularini junbushga keltiradigan so'zlarni topib ishlatadi. Uning aytishicha, Quroon betiga hayvon oyog'i tegmak na esa, hind qizining yuziga ingliz ko'zi tushmak ham shudir. SHuning uchun ham Vatan tuprog'idan mustamlakachilarni haydab chiqarish ezgu ishdir.

Xullas, o'zining har bir asari bilan Fitrat xalqimiz uchun og'ir sinov davri hisoblangan 20-30 yillarda chin vatanparvar, haqiqiy istiqlol kuychisi va kurashchisi sifatida namoyon bo'ldi.

Bugun uning qadriga etish, ardoqlash vasiyatlarini amalga oshirish, mustaqilligimizni mustahkamlash, biz, farzandlarning muqaddas burchidir.

Muammoli masalaga javob: J.Boybo'latov, H.Olimjon maqolalarida Fitrat ijodiga berilgan baholarda o'z davri mafkurasi, adabiy muhit ta'siri mavjud. Natijada uning adabiy merosi haqqoniy bahosini topmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fitratning o'zbek adabiyotda tutgan o'rni
2. Fitrat o'zbek adabiyotida qanday islohotlarni amalga oshirgan?
3. Fitratning tarjimai holi to'g'risida gapiring.
4. Fitrat inqilobni qanday kutib oldi va umidi amalga oshdimi?
5. Fitratning adabiy merosi qanday guruhlariga bo'linib o'rganiladi?
6. Fitrat she'riyati va uning asosiy g'oyasini aniqlang.
7. Nima uchun Fitrat o'z asarlarida tarixga murojaat qiladi?
8. Fitratning qanday nasriy asarlari yetib kelgan?
9. Ma'rifat va ozodlik – Fitrat ijodining bosh g'oyasi sifatida.
10. Fitratning ilmiy merosi to'g'risida ma'lumot bering.
11. Inqilobdan keyin Fitrat hayoti tekis kechdimi?
12. Repressiya va Fitrat taqdiri.
13. Fitrat ijodining o'rganilishi, asarlarining nashr qilinishi haqida.
14. Fitrat - o'zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri.
15. Fitrat dramalarining mavzu doirasini belgilang.
16. Fitratning qanday tarixiy dramalari bor?
17. «Abulfayzxon» dramasining mavzusi va asosiy g'oyasi nima?
18. Dramaning janri qanday belgilangan.
19. «Abulfayzxon» dramasidagi asosiy obrazlarni sanang.
20. Abulfayzxon fojiasining sabablarini aniqlang.
21. «Taxt qon bilan sug'orilaturg'on daraxtdir» deb aytgan kim?
22. Fitrat Ibrohimbey obrazi orqali qanday g'oyani ilgari suradi?
23. Rahimbey va Hakimbey - sotqin shaxslar sifatida.
24. Xayol ramziy timsoli haqida gapiring.
25. Fitratning horijiy mavzudagi dramalarini ayting.
26. «Hind ixtilochilari» dramasida qanday g'oya ilgari suriladi?
27. Dramaning asosiy obrazlarini sanab bering.
28. «CHin sevish» dramasining g'oyasi va asosiy obrazlarini aniqlang.
29. Fitratning zamonaviy dramalari. «Arslon» haqida gapiring.
30. Istiqlol davrida Fitrat ijodiga munosabat.

11-MAVZU: HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODI, SHERUYATI (1889-1929)

1-MA'RUZA

DARS REJASI:

1. Hayoti va ijodi.
2. Hamza lirikasi va uning asosiy xususiyatlari.

ADABIYOTLAR

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
2. Hamza zamondoshlari xotirasidan. T., 1989.
3. Hamza - dramaturg. Maqolalar to'plami. T., 1989.
4. H.Niyoziy, Mukammal asarlar to'plami. 5 jildlik. T., 1988-90.
5. H.H.Niyoziy, mukammal asarlar to'plami. 5 jildlik. T., 1988-90.

TAYANCH IBORALAR:

1. Tarjimai holi.
2. Ma'rifatparvarlik faoliyati.
3. Darsliklari va ularning mazmuni.
4. Hamza lirikasi, mavzusi, o'ziga xos xususiyatlari.
5. Hamza - dramaturg.
6. "Zaharli hayotyohud ishq qurbonlari" dramasi - fojia janrida.
7. Hamza komediyalari: "Maysaraning ishi".
8. Hamza prozasi xususida.
9. Hamza va milliy uyg'onish jarayoni.

Darsning maqsadi: Hamza faoliyati, adabiy merosini o'rganish borasidagi yangicha qarashlar bilan tanishtirish. Asarlarning tahlil etib berish.

O'zbekiston xalqozuvchisi Hamza Hakimzoda Niyoziy XX asr o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan san'atkorlardan biridir. U mumtoz adabiyot an'analari asoslangan she'riyatni hayotga, xalqqa yaqinlashtirish, realistik o'zbek nasirini yaratish, ayniqsa, dramatik turning barcha janrlarini yuqori bosqichda rivojlantirish borasida katta mahorat va navatorlik ko'rsatgan sanoatkordir. Ayni paytda Hamza kompazitor, rejisser, teatr arbobi, jurnalist, pedagog sifatidaham shuhrat qozongan. U o'zning serqirra ijodi va qizg'in ijtimoiy- siyosiy faoliyati bilan o'zbek madaniyati, adabiyoti va tarixida sezilarli iz qoldirgan yirik shaxsdir.

Hamza 1889 yilning 7 martida Qo'qon shahrida tabib oilasida tug'ilgan. Otasi hakimcha tabib nomi bilan mashhur bo'lgan savodli, ma'rifatli, ziyoli kishi bo'lgan. Hamza avval shahardagi eski maktabda, so'ng rus maktabida o'qidi. Maktabni tomomlab, avval Qo'qon, keyin Namangan shaharlaridagi madrasalarda ta'lim oldi. Yoshligidan boshlab, fors-tojik, arab, rus tillarini puxta o'rgandi. Keyinroq bu tillar qatoriga turk va tatar tillari ham qo'shilgan. Zamonning qalqib turishi, inqilobiy hodisalar Hamzani judayoshligidan boshlab ijtimoiy- siyosiy voqealarga qo'shilishiga olib keldi. O'zining tarjimai holidayozishicha, 14-15yoshlaridan boshlab, turli hil gazeta va jurnallarni o'qib, kundan kun eski xurofotlarni, madrasa o'qishlarini, xalq tirikchiligidagi o'zgarishlarni, madaniyat, iqtisod degan masalalarni tushuna boshladi. Namanganda taxsil olib yurgan kezlarda ma'rifatparvar Abdulla To'qmullin bilan tanishib, undan ko'p yaxshi narsalar o'rgandi. Uning ta'sirida ma'rifatparvarlik faoliyati bilan shug'ullana boshlaydi. SHu erdayoq 16 kishilik kurs ochib, o'qita boshladi.

Hamza 1910 yili Toshkentga kelib, Qashqar darvoza mahallasida "usuli savtiya" maktabini ochdi. Endi uning haqiqiy ma'rifatparvarlik faoliyati boshlangan edi. Bir yil o'tgach, Qo'qonga qaytib, 1911 yilda yangi maktab ochdi. Ammo bu maktab bir yil faoliyat ko'rsatdi xolos. Maxalliy ruhoniylar va amaldorlar qarshiligiga uchragan maktabyopilib, Hamzaning o'zi ta'qib ostiga olinadi. 1912 yilda u haj safariga o'tlanadi. Qo'qondan Samarqand, Boku, so'ng Istambul orqali Afg'oniston, Hindiston, Makka, Madina, SHom, Bayrut shaharlarida bo'ldi. Bu haqda keyinroq bir she'rida shunday yozadi:

O'yladim kezgan yerimni ko'rmadim sendek pari
Misr, Istambul, Arab, SHomu, Aojam Kashmirda

1914 yilda Qo'qonga qaytib kelib, yana darhol maktab ochadi. Gazetada bergan e'loniga qaraganda bu maktabga faqat kambag'allarning bolalarini qabul qilgan va ularga o'quv qurollari bepul berilgan. Hamza maktab ochib, unda o'zi dars beribgina qolmay, zamondoshlari singari darsliklar ham yaratib, nashr ettiradi. Uning "Engil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklari o'z vaqtida ancha mashhur bo'lgan. Demak Hamza o'zining bunday ma'rifatparvarlik faoliyati bilan jadidlar safiga qo'shilgan. O'sha davr gazetalarida uning talay maqolalari- "Bidpatmi, majusiyatmi?", "Faqirlik nedin hosil o'lur?", "Maktabi doril- aytom", "Juma qandoq kun?" sarlovhasi bilan e'lon qilingan. Ularda muallif yurtning hamma tabaqasiga-boy-u kambag'aliga, ziyoli-yu, din peshvolariga murojaat qilib, xalqni jaxolatdan, tutqunlikdan, har- xil yaramas ilatlardan qutqarishning yagona yo'li faqat o'qitish, savodni chiqarish, ma'rifatli qilish ekanligini ta'kidlaydi. Keyinroq u Marg'ilonda ham ana shunday maktab ochadi. SHu bilan birga muallimlarni ko'paytirish maqsadida 6 oylik o'qituvchilar kursini ham tashkil qilgan. Bu maktablarni mablag' bilan ta'minlash uchun shaharda kitob do'konlari tashkil qilgan. Ammo bu maktablari Farg'ona viloyati maorifining rahbari Andreev tomonidanyopilgan. Hamza yana Qo'qonga qaytishga majbur bo'ladi. Bu yerda ham ochgan maktablari ko'p davom etmaydi, yo mablag' etishmasligidan, yoki ta'qib qilinganligidanyopiladi. Hamza irodasi kuchli, maqsadi yo'lidan qaytmas odam bo'lgan. 1916-17yillarda bir necha gazeta va jurnallar nashr etadi. Biroq ularning ham ko'pi bilan 5-6 soni chiqqach, yopilaveradi.

Ana shunday iqtisodiy, ham ma'naviy qiyinchiliklar Hamzaning 1917 yil. Fevral inqilobini g'oyat hursandchilik bilan kutib olishiga sabab bo'ldi. Uning xizmatiga kirib, astoydil ishlay boshladi. Oz o'tmay oktyabr to'ntarishi ro'y berdi. Bu inqilobning shiorlari undan-da, qizil, undan-da xayrli bo'lganligidan Hamza darhol inqilob g'alabalarini kuylaydigan inqilobchi shoirlar qatoriga qo'shildi. Eski jadid larning barchasi- Fitrat ham, Qodriy ham, CHO'lpon ham shu safda edi. 1918-20 yillarda Hamza dramtruppa va agitbrigada tashkil qilib, harbiy qismlarda qizg'in faoliyat ko'rsatdi. 1921-24 yillarda Hamza Buxoro, Xorazm, Xo'jayli tomonlarda yashab, ishlaydi. Sog'ligiyomonlashgach, qaytib, Avvalda ijodiy ish bilan shug'ullana boshlaydi.

O'zbekiston MIQ_g farmoniga muvofiq 1926 yil 27 fevralda Hamzaga "O'zbekiston xalqyozuvchisi" faxriy unvoni berilgan, shoir yana qizg'in mehnatga shung'iydi. Endi u SHohimardonga borib, kolxoz tuzish, maktablar ochish, xalqni savodli qilish, dinga qarshi kurashish uchun o'tlanadi. Ammo u bu yerda ham qattiq qarshilikka duch keladi va 1929 yilning 18 martida halok qilinadi.

Hamzaning ijodi o'z tarjimai holidayozishicha, o'nyoshlaridan boshlangan. U dastlab "Nihoni" taxallusi bilan g'azallar, muxammaslar, murabbariyozgan. Albatta, Hamza ilk ijodidayoq zamonning hamma nobopliklarini to'g'ri tushungan va she'rlarida bu nobopliklar mohiyatini haqqoniy ochib berolgan deyish qiyin. Hamza dasavval mumtoz adabiyot an'analari doirasida ijod qilganligini, asosan, muhabbat mavzusida asarlar yaratganini ko'ramiz. Bora- bora shoirning lirik qahramoni ma'shuqa etkazayotgan jabru sitamlar zamona nobopliklari tufayli ro'y berayotganini anglab eta boshlaydi. Lirik qahramon- shoirning anglab etishicha, oshiqqa javo toshlarini otib, uning vujudini majruh qilayotgan ma'shuqa aslida "buzilgan, rasvo bo'lgan zamon ahlining biridir:

Darig'o, bu zamon ahli buzildi, bo'ldi ko'p rasvo,
Tuman turlu kasofat ham sharoratlar bo'lib parvo.
Haqiqat so'zga boqmas, hech kishi bermas qulog'ini,
Tariqi bandalikdin barcha bir yo'l o'ldi beparvo.

Hamza Hakimzoda ijodida birinchi jahon urushi va oktyabr to'ntarishi arafasida yaratgan yetti bo'limdan iborat "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" aloyida o'rin tutadi. Bu majmuaning birinchi bo'limi nomlanmagan, qolganlari "Oq gul", "Qizil gul", "YAshil gul", "Sariq gul", "Pushti gul", "Safsar gul" deb atalgan. Bu to'plamlarning har biriga kiritilgan she'rlar mazmuni, xususiyatlari, ohangi, obrazlari to'g'risida misollar bilan gapirib beraman, kitobdan misollar o'qib beraman.

1917 yil oktyabr to'ntarishini xayrixohlik bilan qarshi olgan Hamza uning alvon shiorlariga mahliyo bo'lib, "inqilob kuychisi" aylandi. Qisqa muddat ichida "YAsha sho'ro", "hoy, hoy

otamiz”, “ishchilar, uygʻon”, “hoy, ishchilar”, “Berma erkingni qoʻldan” singari oʻnlab inqilobiy ruhda sheʼrlarni yozdi. Bu sheʼrlarning oqibati va kimlarga kerak boʻlgani toʻgʻrisida talabalarga soʻzlab beraman.

2-MAʼRUZA: H.H. NIYOZIY DRAMALARI

DARS RELASI:

1. Hamza - dramaturg.
2. Hamza va jamiyat.
3. Hamza-dramaturg. Dramaturgiyasi tahlili borasidagi munozara va muammolar.

ADABIYOTLAR

1. N.Karimov. “Boy ila xizmatchi” dramasi ijodiy taqdiri. – H.H.Niyoziy ijodi problemalari. T., Fan nashriyoti 1988.
2. Hamza zamondoshlari xotirasidan. T., 1989.
3. Hamza - dramaturg. Maqolalar toʻplami. T., 1989.
4. H.Niyoziy, Mukammal asarlar toʻplami. 5 jildlik. T., 1988-90.
5. H.H.Niyoziy, mukammal asarlar toʻplami. 5 jildlik. T., 1988-90.

Hamzaning adabiy ijodi asosan ikki yoʻnalishdan - sheʼriyat va dramaturgiyadan iborat. Endi uning dramaturgik faoliyatiga toʻxtalamiz. Uning adabiy ijodida dramaturgiya katta mavqega ega. Xalq yozuvchisi unvonini olishi munosabati bilan tayyorlangan hujjatlarida Hamza 150 ga yaqin dramatik asar yaratganini aytadi. Bunga shubha qilib boʻlmaydi. Zero, Hamza inqilobdan keyinroq ham ijodiy ham ijtimoiy jihatdan juda faollashgan. Ayniqsa, oʻzi drama guruhini tashkil qilib, 2- agit foiz bilan qizil jangchilariga xizmat qilishi, soʻngra Buxoro, Xorazm, Xoʻjaylida boʻlgan paytlarida oʻquvchilar va mahalliy aholi ishtirokida kichik drama guruhlarini tashkil qilib, ularga oʻzi bir pardalik pʼesalar yozib berib, sahnaga qoʻyganligi haqida maʼlumotlar bor. Ammo Hamza ularni qayta yigʻishtirib olmagan. Natijada koʻpi yoʻqolib ketgan.

Bizga yetib kelgan birinchi dramatik asari “Zaharli xayotiyohud ishq qurbonlaridir. 1915 yildayozilgan, 1916 yilda bosilgan bu toʻrt pardali asar dramatik turning fojea janrida yaratilgan. Bu yerda shuni alohida taʼkidlash lozimki, Hamza Hakimzoda oʻzbek dramaturgiyasining har uchchala janrida ham baquvvat asarlar yaratdi. Uning “Muxtoriyatiyohud avtonomiya”, “Kim toʻgʻri”, “Maysaraning ishi” asarlari komediya janriga mansub boʻlsa, “Zaharli xayotiyohud ishq qurbonlari”, “Loshmon fojeasi”, “Fargʻona fojiasi” asarlari tragediya janrida yaratilgan. “Paranji sirlaridan bir lavha”, “Boy ila xizmatchi”, “Burungi saylovlar” drama janrining namunalari sifatida uzoq yillardan buyon yashab kelmoqda. SHu bilan birga Hamza sheʼriy dramalar ham muallifidirki, bu uning ulkan salohiyat sohibi ekanligini isbotlaydi.

Hamza tabiatan maʼrifatparvar ziyoli boʻlib, butun umrini oʻz xalqi, millati ravnaqi yoʻliga, uni maʼrifatli qilishga baxshida qilgan inson edi. Biz buni oʻtgan darslarimizda sheʼriyatni taxlil qilish, darsliklarini oʻrganish jarayonida chuqur bilib oldik. SHoir oʻzi sodiq boʻlgan maʼrifat gʻoyasini faqat sheʼriy asarlaridagina emas, balki nasriy va dramatik asarlarida ham ilgari suradi. “Zaharli xayot” pʼesasi aynan mana shu gʻoyani ilgari surishi bilan qimmatlidir. Bu dramaning mavzusi, bosh gʻoyasi toʻgʻrisida toʻlaroq maʼlumot beraman.

- drama koʻtarilgan muammo:

- Maryamxonim obrazi, uning asosiy maqsadi, faolligi, sadoqati, qatʼiyligi. Eshonga munosabati va zahar ichishi. Mahmudxonga boʻlgan muhabbati va sadoqati. Oʻlimi oldidan aytgan gaplari va uning asar gʻoyasini berishdagi oʻrni.

- Mahmudxon obrazi. Ijtimoiy kelib chiqishi. Mahmudxon maʼrifatli yigit; Mahmudxonning milliy xarakter sifatidagi chizgilari; Maryamxonimga boʻlgan muhabbati va sadoqati; oʻlimi oldidan aytgan gaplari.

- Eshon obrazi. Eshon tasvirida satirik yoʻnalishining kuchliligi. Hamzaning dinga va din kishilariga munosabati.

Drama toʻlasicha maʼrifatni ulugʻlab, jaholatni qoralaydi. Qahramonlar tilidan aytilgan quyidagi soʻzlardramaning bosh gʻoyasini ifodalaydi: “Qanday jaholat zamon bu? Qanday vahshat zamon bu?! Ilmsiz, vijdotsiz kishilar, insoniyatsiz, madaniyatsiz kishilardan iborat qanday

zamon?!” Bu soʻzlar qahramonlarning oʻz davri zamonasiga isyonidir. Bu bilan Hamza ham oʻz zamondoshlari Behbudiy, Avloniy, Qodiriy, Hoji Muin, Mirmuhsin singarilar bilan hamohang boʻlganligini sezish mumkin. Dramaning badiiy xususiyatlari va ahamiyati haqida gapirib beraman.

SHuningdek, Hamza dramatik turning tragediya janrida “Loshmon fojiasi”, “Fargʻona fojiasi” singari trilogiya va tetralogiyalarini ham yaratdi. Afsuski, u asarlar oʻz vaqtida bosilmagan va qoʻlyozmalari ham saqlanmagan. Faqat “Loshmon fojialaridan “Istibdod qurbonlari” deb atalgan qismigina saqlanib qolgan xolos.

Maʼlumki, Hamza sovet davri adabiyotida oʻzbek dramaturgiyasining asoschisi deb tan olinardi. Va bunga uning koʻproq “Boyila xizmatchi” dramasi asos qilib olinardi. Aslida esa, bu pʻesadan bir yarim sahifagina yetib kelgan boʻlib, u shoirning 50 yillik yubileyi munosabati bilan K.YAshin tomonidan qayta ishlangan. Biz yaqin-yaqingacha YAshin yaratgan nusxani Hamza asari sifatida oʻrganib keldik. Bu dramaning tarixi, mazmuni, asosiy obrazlari sovetlashuv haqida soʻzlab beraman. Uni tiklashda YAshin ustozining “Burungi saylovlar” dramasidan ham unumli foydalanganligini, natijada oʻsha davrda muhim hisoblangan sottsealizm metodiga toʻla javob bera oladigan dramaga aylantirilganligini aytib, uzoq yillar shu drama bilan Hamza oʻzbek dramaturgiyasining asoschisi sifatida oʻrganib kelinganligini tushuntiraman.

Hamzaning “Kim toʻgʻri?”, “Muxtoriyatyoki avtonomiya”, “Tuxmatchilar jazosi”, “Maysaraning ishi” kabi komediyalarida sanoatkorning ideali, niyatlari, kulgiga, asarlarning umumiy pafosiga singdirilgan. Ayniqsa, “Maysaraning ishi” dramasi muallif oʻz niyatlarini ijobiy qahramonlar zimmasiga ham yuklaydi. Ular chalsalbiy qahramonlar va illatlarini fosh qilishda faol qatnashadilar. Bu dramani quyidagicha tahlil qilib boraman.

- “Maysaraning ishi” dramasi janr xususiyatlari;

- Dramada xalq ogʻzaki ijodi materiallaridan foydalanishi; oʻrni; roli;

- dramadagi Maysara, CHoʻlpon, Oyxon, Mulladoʻst, Qozi, Mullaroʻzi, Xidoyatxon timsollari; salbiy obrazlar tasvirida satirik yoʻnalishning kuchliligi Hamza komediyalari, dramalari va umuman ijodida oʻzbek milliy tafakkuriyotining namunasini koʻrish mumkin.

Milliylik, milliy oʻziga xoslik, bir soʻz bilan aytganda, milliy joziba har bir xalqning badiiy adabiyotini boshqa xalqlar adabiyotidan ajratib turuvchi va jahonning son -sanoqsiz adabiyotlari davrasida teng huquqli bir aʼzo sifatida yashashga kafillik beruvchi bosh omildir. Zotan, milliy adabiyotlar betakrorligi bilan qimmatlidir. SHu jihatdan qaraganda, Hamzaning dramalari oʻzbek xalqining milliy urf-odatlarini gʻoyat aniq tasvirlaydi. Binobarin, haqiqiyyozuvchi, chin talant chohibida u mansub xalqning ham, adabiyotning ham milliy xususiyatlari, belgilari aks etadi. Jumladan, Hamzada oʻzbek xalqining qalbi, yuragi, ruhi, xarakteri, psixologiyasi, tili, dard-armonlari toʻla mujassamlashgandir. SHuning uchun ham uning asarlarida oʻzbek xalqining milliy oʻziga xosligi tiniq va ravshan aks etgandir. Uning asarlarida XX asr boshlaridagi oʻzbek xalqining hayoti, turmushining koʻpgina manzaralari, kayfiyati, ruhi, intilishlari, ilgʻor qarashlari va ayni paytda, psixologiyasidagi illatlari ravshan ifodalangan.

Hamzashunos olim L.Qayumovning aytishicha, Hamzaning “Paranji sirlaridan bir lavhayoki holixon” dramasi shu jihatdan eng mukammal va ibratli asardir. Bu asarning janr xususiyatlari asosiy obrazlaridan Toʻlaxon- Xolisxon va jamiyatdagi illatlarning ramzi sifatida mamat singarilar xususida soʻzlab beraman. SHundan soʻng X.H.Niyoziy faoliyati va ijodiga xulosa yasayman. Uning ijodiga bugungi qarashlar, munosabatlar haqida gapirib beraman.

Muammoli masalaga javob: Adabiyotshunoslar N.Karimov, S.Meliev maqolalarida «Boy ila xizmatchi» dramasi yaratilish tarixi, obrazlari, turli variantlar bilan K.YAshin tomonidan qayta ishlangan nusxasi solishtiriladi va asosli xulosaga kelinadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Hamzaning oʻzbek adabiyoti va madaniyatida tutgan oʻrni qanday?
2. Hamza ijodining sovet davrida oʻrganilishi.
3. Mustaqillik yillarida Hamza ijodiga munosabat.
4. Hamzaning tarjimai holi haqida gapiring.
5. Hamza va jadidchilik harakati.
6. Hamza - mohir pedagog sifatida.

7. Hamzaning darsliklarini bilasizmi?
8. Hamzaning inqilob va sovet hukumatiga munosabati qanday bo'ldi?
9. Hamzaning inqilob kuychisi sifatida ulug'lanishining sabablari.
10. Hamza taqdirining fojiali tugashi haqida nima deya olasiz?

12-MAVZU: ABDULLA QODIRIY IJODI, HIKOYALARI (1894-1938)

1-MA'RUZA DARS REJASI:

1. Tarjimai holi.
2. Ilk ijodi, hikoyalari.

ADABIYOTLAR

1. X asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
2. H.Qodiriy. A.Qodiriyning so'nggi kunlari. T., 1994.
3. "O'tkan kunlar". Hayrati. U.Normatov. T., 1994.
4. I.Solijonov. Iliq kurtaklar. "SHarq yulduzi" j. №5-6, T., 1994.
5. I.Solijonov. Aniqlik fazilati. "O'ZAS" gazetasi. 9.12.1994 y.
6. A.Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon". T., 1992.

TAYANCH IBORALAR:

1. Qodiriyning hayot yo'li, qismati
2. Ilk ijodi namunalari.
3. Roman va zamon.
4. "O'tkan kunlar"ning mavzu va muammosi.
5. Otabek va YUsufbek 'oji.
6. "Mehrobdan chayon" fazilatlar.
7. Solih Mahdum xarakteri.
8. Anvar va Ra'no.
9. Obid ketmon - o'zbek adabiyotida yangi xarakter sifatida.
10. A. Qodiriy hikoyalari.

Darsning maqsadi: A.Qodiriy hayoti va ijodini o'rganish. Adabiy merosi, ulardagi obrazlar, mahorat masalalarini tahlil etish. Talabalarni badiiy asarni mustaqil o'rganishga o'rgatish.

XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga realistik hikoyalari, hajviy asarlari, publitsistik va adabiyo tanqidiy maqolalari, badiiy tarjimalari, hayotiy mantiqa asoslangan qissalari, xalqimizning birinchi muhabbatiga aylangan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari bilan munosib xissa qo'shgan A. Qodiriy ko'p asrlik milliy adabiyotimiz rivojida tub burilish yasagan sanoatkordir. Adibning ijodiy merosi, shonli va fojiali umr yo'li avlodlar uchun ham ibrat, ham achchiq saboqdir. Xalqimiz A. Qodiriy shaxsiga, merosiga hamisha katta ehtirom va qiziqish bilan qarab kelgan. Afsuski, mustabid sovet tuzumi uzoq yillar o'zbek xalqining ana shu qiziqishi va ehtirom yo'liga g'ov solib uni Qodiriydan judo qilib keldi. Haqiqat ro'yobga chiqib, farzandi o'z xalqi bag'riga qaytdi. YUz yildan so'ng Qodiriy mamlakatimizda o'zining haqiqiy o'rnini va qadrini topdi. 1994 yil Qodiriy yili deb e'lon qilindi, adibning 100 yillik to'yi juda katta tantanalar bilan nishonlandi. Unga "Mustaqillik Ordeni" mamlakatimiz istiqlolining fidoiysi sifatida birinchi bo'lib berildi. Adabiyotimizda yaratilayotgan eng yaxshi asarlarga "A. Qodiriy nomdagi Respublika Davlat mukofoti" ta'sis etildi.

A. Qodiriy o'z tarjimai holidayozishicha, "mustabid Nikolayning taxtiga o'tirgan yili" - 1894 yilda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. Ular oilada ko'pchilik edilar va barchasi ham birgina bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan otasining topganiga qarab o'tirardilar, bog'da meva-cheva yaxshi bo'lsa, durust hayot kechirishar, bo'lmasa, "butun qish ichi jovrashib" chiqardilar. Iqtisodiy qiyinchilikka qaramay, A. Qodiriy mahallasidagi maktabda o'qidi. So'ng davr taqozosiga ko'ra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. Uni tamomlab, muhammad Rasulboy degan sahovatli odamning qo'lida ish yurituvchi sifatida xizmat qildi. 1917 yil inqilobiy hodisalar A. Qodiriy hayotida ham o'zgarishlar yasadi. Ayniqsa, oktyabr inqilobi A. Qodiriy uchun haqiqiy "jasorat berdi". Dastlab xalq militsiyasi, keyin oziq-ovqat qo'mitasida tashkil etilgan gazeta muharriri, turk

ROSTA” muharriri bo’lib ishladi. 1922 - 24 yillarda K.Alievning taklifi bilan Moskvada o’qib keldi. Xullas, sovet hukumatining barcha topshiriqlarini sidqidildan ado eta boshladi. Biroq yil sayin inqilobdan kutgan umidlari puchga chiqar, jasorat o’rniga hayiqish, mustaqillik o’rniga zulm iskanjasi qattiqroq bog’lanardi. Boz ustiga 1926 yilda qamoqqa olinib, bir muddat hibsda tutdilar. So’ng 10 yil davomida uning shaxsi, asarlari tevaragida shov shuv, baxslar davom etdi. Nihoyat 30-yillarning mudhish dovuli A. Qodiriy xalq orasidan yulib ketdi, 1937 yil 31 dekabr kuni qamoqqa olinib, 1938 yilning 4 oktyabr kuni sud qarorisiz otib tashlandi. Qaror esa 5.10 da chiqarildi. A. Qodiriy haqsiz ravishda sovet qatag’oni tegirmonining qurboni bo’ldi. Uni yo’qotish nega kerak bo’ldi? Bu haqda siz bilan “Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti” fanini o’rganishdagi kirish darslarimizda bilib oldik. Endi adibning romanlari va kichik asarlarini tahlil etish jarayonida yanada chuqurroq o’rganamiz. SHunday qilib, A. Qodiriy adabiyotga XX asrning boshlarida, to’g’rirog’i, 1 jahon urushi yillarida kirib keldi. “Sadoi Turkiston, Samarqand, “Oyna” kabi gazetalarini o’qib yurgan Qodiriyda ijodiy intilish boshlanadi. Padarkush” p’esasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” dramasi yozadi. 1915 yil YAna shu yilda tatarlarda chiqib turg’on hikoya va ro’monlarga taqlidan juvonboz” otlig’ hikoyachani yozib, noshir topilmog’onidan o’zim nashr qilib yubordim. Endi chin musannif bo’ldim - ov, deb quvonar edim, debyozadi adim ilk ijodiy intilishi to’g’risida. SHuningdek, o’sha davr matbuotida uning “Axvolimiz, “Millatimga” kabi talay she’rlari ham bosilgan. SHu erda talabalarga A. Qodiriyning she’rlaridan o’qib, o’zim ilk bora rus alfavida nashr qildirgan adibning “Juvonboz” hikosi, uning mazmuni, obrazlari, Sadulla. Rahimjon, Madrasa xayoti haqida gapirib beraman.

A. Qodiriy yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan ijodiy namunalari bu 20-yillarda dunyoga kelgan “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, Toshpo’lat tajang nima deydi?” kabi hajviy asarlari bo’ldi. Ular A. Qodiriyning “Kichik asarlar 1969 kitobida hikoya deb berilgan. Biroq keyinroq u Normatov ularni qissa sifatida baholaydi. Va 11-sinflaruu chiqarilgan darslikda qissalardeg’ ko’rsatilgan, nima bo’lganda ham A. Qodiriy bu asarlarida “xarakter” kuychisi” asosida davrning jamiyatning illatlarini tagmatin orqali ochib berishga harakt qilgan muallif hayotidagi, odamlar tabiatidagi muayyan sabiy hodisalarni sof makuraviy nuqtai nazardan turib emas, ya’ni nuyaul biryoqlama qoralash, fosh etish yo’lidan bormaydi. Xarakter va hodisalarni xolis turib, butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko’rsatishga erishdi.

“Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” asari 1923-27 yillar oralig’idayozilgan va peshma-pesh “mushtum” jurnalida bosilib borgan. Bu yillar davomida hayotning o’zida, qolaversa, A. Qodiriy qismatgida ko’p o’zgarishlar ro’y bergan. U bir bor qamalib, sovet hukumatining zug’umini tortib ko’rgan, “Yig’indi gaplar” asari bilan jamiyatdagi illatlarni keskin fosh etgan, demak, qarashida ham ma’lum yangiliklar paydo bo’lgan edi. Bu hol asarda o’z ifodasini topmay qolmasdi. A. Qodiriy “Kalvak Maxsuznig xotira daftaridan” asarida “Ko’pdan beri haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan, madrasa xurofoti bilan miyasi g’ovlagan” mahalla imomi Kalvak Maxzumning kulgili sarguzashtlarini hikoya qilib bermochi bo’ladi. Ana shu hikoyaning mazmuni, Qodiriyning niyati matn ostidagi ma’no, Maxsum xarakterining ishlanishi, adibning ma’orati haqida talabalarga batafsil so’zlab berib, eng muhim o’rinlarni yozdirib qo’yaman.

“Toshpo’lat tajang nima deydi?” asarining qahramoni Toshpo’lat xarakteri ham ziddiyatli. U aslida chapanilar toifasidan bo’lib, tabiatida ko’p nobop jihatlar mavjud. Toshpo’lat bolaligidan yaxshi tarbiya ko’rmagan. Maktabdayolchitib o’qimagan, savodsiz, omi, hayotda yo’lini topa olmagan omadsiz odam. Marifatsizlik oqibatida u ko’p narsalarning maonisiga tushunmaydi, turmush chigalliklarini yecha olmaydi va tasvirda kulgili vaziyatga tushib qoladi. Toshpo’lat adib tasvirlaganidek, ishsiz, biri ikki, biti sirka bo’lmagan va shu faqirlik orqasidayomon yo’llarga kirib qolgan shaxs. Toshpo’lat tajang xarakteriga xos mana qirralarini asardan keltirilgan misollar asosida tushuntirib beraman.

Har ikkala hajviy asarda ham muallif asar bosh qahramonlari sarguzashtlari tasvirlash orqali o’quvchini 20-yillar hayotining ziddiyatli dramatik hodisalariga, davrning o’tkir muammolariga ro’baro’ qiladi. Masalan, Kalvak Mahzumning kutubxonadagi “taftishi”, yo’lda o’quvchi qizcha bilan bo’lgan suhbat, Toshpo’latning mardikor bozoridagi ko’rganlari, do’sti Salim so’tak bilan uchrashuvi, suhbatlari orqali yozuvchi kulib turib, o’sha davr hayotining mungli, ayanchli haqiqatini

aytgan. Fojiali hodisalar mohiyatini ochishga uringanligini ko'rsatadi.yozuvchining hajviy yumoristik mahorati, "xarakter kulgisi" yaratish sanoati uning yirik asarlarida, xususan, "O'tkan kunlar" romanidagi O'zbek oyim, Xushro'ybibi, Sodiq, Jannatxola, "Mehrobdan chayon"dagi Soliq mahdum, "Obid ketmon" qissasidagi Xatib domla va Mulla Muxsin obrazlari tasvirida yanadayorqinroq namoyon bo'lganki, buni o'sha asarlarini o'rganganimizda aytarmiz.

2-MA'RUZA: A.QODIRIY ROMANLARI

1. "O'tkan kunlar" romani.
2. "Mehrobdan chayon" romani.
3. Qodiriy asarlari tahlili borasidagi munozara va muammolar.

ADABIYOTLAR

1. "O'tkan kunlar". Hayrati. U.Normatov. T., 1994.
2. A.Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon". T., 1992.
3. H.Qodiriy. Otam haqida. T., 1983.
4. A.Aliev. Ijod va izlanishlar. T., 1976.

A. Qodiriy o'zbek romanchilik maktabining asoschisidir. Y.E.Bertels bahosi "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotida shu janr talablariga to'la javob bera olgan birinchi asardir. Bu asarni muallif 1919 yildayoza boshlagan. Romandan parchalar 1922 yilda "Inqilob" jurnalida bosilgan. 1925 yilda asarning bo'limlari alohida-alohida, so'ng 1926 yili yaxlit holda kitob bo'lib chiqqan. "Moziyga qaytib ish ko'rish hayrlidir" deb adib bu romanida xolis turib, XIX asr o'rtalaridagi Turkiston tarixining, o'zbek xalqi hayotining haqoniy manzarasiniyoritadi, muhim tarixiy - ijtimoiy hodisalarni chuqur badiiy tahlil qiladi, davrning etakchi ijtimoiy kuchlari mohiyatini ochadi. Bu niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun "Mavzuni moziydan, tariximizning tariximizning eng kirlik qora kunlari bo'lmish keyingi xon zamonlaridan" belgilaydi. O'sha zamon kishilarining axvol-ruxiyasi, orzu-intilishlari, quvonchu-tashvishlarini zo'r mahorat bilanyorqin obrazlar orqali ochib beradi.

Adib asaryozilgan paytdagi hukmron mafkuraning ta'siriga, o'zining o'sha paytdagi sinfiy maillariga berilmay, realizmning bosh printsiplaridan kelib chiqib, hayot haqiqatiga sodiq qoladi, voqea-hodisalarni bo'yamay. Bezamay, rostgo'ylik bilan tasvirlaydi. Aynan shu roman orqali o'zbek xalqi ilk bor o'z bisotini, asl qiyofasini, milliy o'ziga xosligini ichki djunyosini, kuchli va ojiz tomonlarini bor bo'yicha go'yo tiniq ko'zgudagidek aniq ko'rdi. Roman o'zbek o'quvchisi tomonidan chanqoqlik va katta qiziqish bilan kutib olindi, el orasida "Kumushbibining kitobi" nomi bilan mashhur bo'lib ketdi. Natijada qisqa fursatda qayta-qayta chop etildi, bir necha tillarga tarjima qilindi. Afsuski, oddiy o'quvchigayoqqan bu roman o'sha davr adabiyo tanqichiligiga, sho'rolar hukumatiga, bolsheviklar mafkurasiga ma'qul tutishmadi. Roman xususida ko'p tanqidiy maqolalar bosildi. Bular haqida to'laroq keyingi kursda o'tiladigan "Adabiy tanqid tarixi" fanidan bilib olasiz. Hozir esa men qisqacha ma'lumot beraman. M.SHeverdin, S.Xusayon, O.SHarafiddinov, Oybek muloxazalari haqida aytaman.

Endi roman to'g'risida batafsilroq ma'lumot olamiz. Avvalo, asarning mavzusi va muammosi haqida. Roman mavzusi xususidayozuvchining o'zi "YOzuvchidan" deb berilgan kirish so'zida aytib o'tgan va buni yuqorida keltirdim. Muammosi esa davr uchun ham, keyingi yillar uchun ha, xozir uchun ham g'oyat zarur bo'lgan masaladir. Unda bir-biriga bog'langan ikki xil muammo ko'tarilgan.

1. Muhabbat va oilada erkinlik.
2. Mamlakatning milliy taqdiri masalasi.

Har ikkala muammoning mohiyati, bir-birisiz tasavvur etib bo'lmasligi mamlakat erkinligiga erishmasdan turib, oilada erkinlikka erishish mumkin emasligi, shuning uchun ham sevishtganlar turmushi fojiali tugaganligi haqida gapiraman.

Romanning syujeti va g'oyaviy mazmuni. Roman 3 bo'limdan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir birini to'ldiradigan voqealar tizimiga egadir. Har bir bo'lim boblarga ajratilgan va bu boblar sarlavhalangan. Romanning mazmunida istiqlol masalasi ko'zga alohida tashlanib turadi. Buning isboti uchun asarning "istiqlol dardi", "Toshkent ustida qonli bulutlar"

boblarini. YUusufbek Hoji va Otabek, YUusufbek Hoji va Mirzakarim qutidor suhbatlarini eslatib o'taman.

Romanning asosiy qahramonlari Otabek, YUusufbek Hoji bo'lib, ularni tahlil qilganda, Kumushbibi, Zaynab, O'zbek oyim, ayniqsa, hasanali, shuningdek, homid va boshqa personajlarni ham esdan chiqarib bo'lmaydi. CHunki ularning har biri romanda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, adibning ma'lum bir g'oyaviy niyatini ochishga xizmat qildiriladi. Avvalo, shuni aytish lozimki, sovet hukumati adabiyot oldiga addiy podshoh xalq vakilining obrazini yaratish masalasini qo'yayotgan o'sha yillardayoq adb hayot haqiqatidan chekinmadi. Asari markaziga yaxshi vayomon odamlarni olib chiqdi. Ular sinfiylikdan holi. YUusufbek hoji Toshkent bosh maslahatchisi. Otabek savdogar. Ammo ular g'oyat insonparvar bo'lib, xizmatkorlari hasanali va boshqalarga inson sifatida qaraydilar, muomala qiladilar va qadrlaydilar. Endi ana shu obrazlarning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

1. YUusufbek hoji - romanning bosh qahramoni, adibning mustaqillik haqidagi niyatlarini ifodalovchi obraz. Misollar.

2. Otabek -yosh savdogar, dunyo ko'rgan, yangicha fikrlaydigan xalqparvar, millatparvar yigit, sevgisiga sodiq, jasur va qat'iyatli obraz.

3. Kumushbibi - suvgi mabudasi.

4. O'zbek oyim - milliy xarakter va boshqalar.

So'nga romanning keyingi taqdiri to'g'risida ma'lumot beraman.

"Mehrobdan chayon" romani haqida. Romanning yaratilish tarixi 1928 yili birin ketin ko'p nushada bosilgan, el orasida bu asar ham sevib o'qilgan. Romanning mavzusi va unda tasvirlangan voqelik to'g'risidayozuvchining o'zi aytib qo'yibdi. Bu roman "O'tkan kunlar"iga qaraganda boshqacharoqyozilgan. Buning sabablarini ochishga harakat qilaman. "O'tkan kunlar" romani ustida kechgan mojarolar adibni qo'rqitibroq qo'ygan bo'lsa kerak, tarixiy voqealarga ehtiyotkorlik bilanyondashadi. Avvalo, bu asarida bosh qahramonni. "Mehnatkash xalq" orasidan tanlaydi. Ammo o'zi niyat qilgan Qo'qon xonligi saroyidagi illatlarni fosh etish maqsadida Anvarni etaklab saroyga olib kiradi". SHu jihatdan "Mehrobdan chayon"da davr zug'umi, ta'siri muayyan darajada seziladi. Adibda tarafkashlik tedentsiozlik mayinllari ko'rinadi. Ammo baribir amaldaryozuvchi realizm yo'lidan chekinmaydi. Tarixiy haqiqatni mumkin qadar haqqoniy ifodalashga erishgan. Asar qahramonlarini o'zi ta'kidlaganidek, "O'zbek tarixining hazimi ko'targan qadar o'z xolicha olishga" tirishganligini sezish mumkin.yozuvchining realistlik mahorati ayniqsa, Solih mahdum obrazidayorqin ko'rinadi. Iloji boricha, "uning shaxsiga hiyonat va bo'xton qilishdan saqlanib, orttirmay va kamitmay o'quvchiga taqdim" etadi. SHu boisdan ham bu obraz xarakter darajasiga ko'tarilgan va ishonarli chiqqan. Talablarga Anvar, Ra'no, Solih Mahdum, Sulton Ali Mirzo, Abdurahmon domla, Safar bo'zchi obrazlari to'g'risida alohida-alohia ma'lumotlar beraman.

Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish mavzusida bitilgan "Obid ketmon" qissasi ham o'zbek adabiyotida o'zining talay fazilatlari bilan e'tiborga loyiqdir. Avvalo adib qissada Obid ketmon, Berdi tatar, Xatib domla, Domla Muxsin singari barkamol xarakterlar yaratadi. Ikinchidan,yozuvchi inson shaxsigayondashishda o'sha davrda odat tusiga kirgan tor "Sinfiylik" doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni asrash, ardoqlashga kuch topa oldi. Bu jihatdan romanning bosh qahramoni Obid ketmon xakteri ibratlidir.

- Obid ketmon - tadbirkor dehqon;

- Obid ketmon - kolxoz raisi;

- Obidning dinga munosabati;

A. Qodiriy ana shunday umrboqiy asarlari bilan oramizda yashab yuribdi.

Muammoli masalaga javob: M.SHevrlin, S.Xusayn, O.SHarafiddinov, Oybek maqolalarida A.Qodiriy ijodi tanqidiy tahlil etiladi. Barcha munaqqidlar uning ijodiga qatag'on davr mafkurasi va vulgar sotsializmi ta'siridayondoshganlar va baho berganlar. Faqat Oybek qarashlarida boshqa munaqqidlardan farqli ravishda tarixiy asar, tarixiy qahramon yaratish borasidagi o'ziga xos kontsepsiya borligi sezilib turadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. A.Qodiriyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rmini qanday baholash mumkin?

2. A.Qodiriyning hayot yo'li qanday kechdi?
3. A.Qodiriy qachon va qayerda, qanday oilada tug'ilgan?
4. Qodiriy inqilobni qanday kutib oldi va qayerlarda ishladi?
5. A.Qodiriyning sovet hukumatiga va sovet hukumatining Qodiriyga munosabati qanday bo'ldi?
6. Qodiriy nega qatag'on qilindi?
7. Qodiriyning ijodi qachon boshlandi?
8. Ilk she'rlari va nasri haqida gapiring.
9. Qodiriy jadidchilik harakatiga qo'shilganmi?
10. «Juvonboz» hikoyasining mavzusi va asosiy g'oyasi.

13-MAVZU: ABDULHAMID CHO'L PON IJODI. HIKOYALARI, DRAMALARI

1-ma'ruza

REJA:

1. CHo'lponning tarjimai holi. Uni o'rganish borasidagi munozara va muammolar
2. CHo'lpon she'riyatining mavzu va obrazlari, badiiy xususiyatlari.
3. CHo'lpon prozasi.

ADABIYOTLAR:

1. Ozod SHarafiddinov. CHo'lpon.T., 1991.
2. Naim Karimov. CHo'lpon.T., 1991.
3. Laziz Azizzoda. CHo'lpon kim edi? //«YOshlik» jurn.,1988 yil10-son
4. CHo'lpon.Adabiyot nadur.T., 1994.
5. CHo'lpon. Asarlar. 3-jildlik.T.,1994.

TAYANCH IBORALAR:

- 1.Tarjimai holi.
- 2.SHe'riyati. Mavzu va obrazlari.
- 3.CHo'lpon – erk kuychisi.
- 4.CHo'lpon hikoyalari.
- 5.«Kecha va kunduz» romani mavzu va muammosi.
- 6.Asosiy obrazlari: Zebi, Akbarali, Miryoqub.
- 7.Romanning badiiy xususiyatlari.

Darsning maqsadi: CHo'lpon tarjimai holi, faoliyati, adabiy merosi haqida ma'lumot berish.

CHo'lpon 1897 yili Farg'ona viloyatining Andijon shahriga qarashli Qatortarak mahallasida tug'ildi. CHo'lponning otasi Sulaymon Mulla Muhammad YUnus o'g'li /1874-1929/ Andijonning obro'li kishilaridan bo'lib, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullangan. U ko'proq gazlama savdosi bilan shug'ullangani bois rus savdogarlari bilan ham aloqa bog'lagan. SHarqiy Turkistonda-Qashqarda ham savdo ishlarini keng yo'lga qo'ygan. O'sha davrdagi andijonliklar tili bilan aytganda Sulaymon bazzoz o'z davrining ilg'or ziyolilaridan bo'lib, «Rasvo» taxallusi bilan she'rlar hamyozgan. SHu she'rlari asosida devon tuzgan. CHo'lponning onasi Oysha aya 14 farzand ko'rgan, ammo ulardan 4 nafarigina omon qolgan, boshqalari go'dakligidayoq nobud bo'lgan. Abdulhamid oilaning to'ng'ich farzandi bo'lib, Komila /1902/, Fozila/1905/ va Foiqa/1908/ kabi singillari bo'lgan.

CHo'lpon dastlab madrasada, so'ng rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. V.YAnning 1933 yilga oid kundaliklarida CHo'lpon xotiralari berilgan bo'lib, unda aytilishicha, shoirning otasi uni ruhoniylar davrasiga olib kirmoqchi bo'lgan. Madrasada Istambuldan kelgan Quroonniyod bilgan bir turk qo'lida saboq olgan. Saboqlardan so'ng yangi ro'znomalar sotib olib, uning mutoalasi bilan shug'ullangan. So'ng Toshkentga milliyyozuvchi bo'lish niyatida ketadi. Bu voqea 1913-1914 yillarda ro'y beradi. Mutaxassislar CHo'lpon ijodining boshlanishini ham huddi shu yillardan belgilaydilar. CHo'lponning o'zi esa shu yillarda Fitrat ta'sirida bo'lganligini, o'zbek she'r tuzilishini islohotchisi sifatida eski arab-forscha shakllar va shablonlardan holi bo'lgan jonli, real xalq tilida she'rlar yaratganliginiyozadi.

CHO'lpon 1917-1918 yillarda Ubaydullaxo'ja, Mirmuhsin va buxorolik Abdulhamid Orif o'g'li birgalikda Orenburgga borib, Boshqirdiston hukumat raisining sekretari vazifasida xizmat qilgan. Orenburg safaridan qaytgach, 1919-1920 yillarda Toshkentda «Ishtirokiyun» /1920 yildan «Qizil bayroq» deb atalgan/ gazetasida va boshqa vaqtli nashrlarda publitsistik maqola hamda sheorlari bilan qatnashadi. 1919 yilning kuz oylaridan boshlab Farg'ona viloyatining milliy ishlar jumxuriyatining organi – «YAngi SHarq» gazetasida so'ng, 1921-1922 yillarda Fitratning taklifi bilan «Axrori Buxoro» gazetasining muxarriri lavozimida ishladi. Baxtga qarshi Buxoro inqilobini tayyorlagan kuchlarga qarshi kurash boshlanib, Buxoro Xalq Jumhuriyatining O'zbekiston bilan qo'shish harakati avj olganida Fitrat o'z hayotini saqlab qolish maqsadida Moskvaga ketadi va Lazerev nomli institutda ilmiy ish bilan shug'ullanadi. SHu munosabat bilan Buxoroni tark etishga majbur bo'lgan CHO'lpon Toshkentga kelib ijodiy ishlarini davom ettiradi. 1923 yilda Andijonga borib, «Darxon» gazetasida ishlay boshlaydi.

1924 yilda juhuriyat rahbarlarining tashabbusi bilan xavaskor truppalarida qatnashayotgan 24 nafar o'zbek yigit va qizlari Moskvada o'zbek maorifi uyida tashkil etilgan o'zbek teatr studiyasiga o'qishga yuboriladi. Ular orasida Abror hidoyatov, Etim Bobojonov, Mannon Uyg'ur bilan birga CHO'lpon ham bor edi. CHO'lpon bu yillarda teatr studiyasida tarjimon, badiiy rahbarlik lavozimlarida ishlar edi. bu davrda Moskvadagi adabiyot va sanoat instituti yoxud akademiyada ta'sil olganligi haqida ham ma'lumotlar bor.

CHO'lpon 1932 yilda Moskvaga boradi. SSSR Xalq Komissarlari Kengashida tarjimon bo'lib ishlaydi. CHO'lponning o'z taqdiri ustida qayg'urishi va havotirlanishi uchun barcha asoslar bor edi. Botu ishi yuzasidan qamalgan mahbuslar boshqa o'zbek ziyolilari qatorida CHO'lponni ham ayblab, uni badnom etuvchi ma'lumotlar bergan edilar. Oltoy /Boks Koriev/ jumhuriyatidagi ikkinchi aksilinqilobiy guruh a'zolarini sanar ekan CHO'lponning nomini ham unutmagan edi.

CHO'lpon 1934 yilda Toshkentga qaytib keladi. O'zbekistonyozuvchilar uyushmasi safiga qabul qilishlarini so'rab ariza beradi. Uyushmaga qabul qilinmagach, O'zbekiston partiya tashkilotining sarkotibi Akmal Ikromovga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

CHO'lpon 1934 yilning 13 iyulida – Usmon Nosirdan bir kun avval NKVD hodimlari tomonidan qamoqqa olindi. 1938 yil 4 oktyabrda esa Toshkent yaqinidagi hilvat joylarning birida otib tashlandi.

Ma'lumki, CHO'lpon adabiyotning barcha janrlarida ijod qildi. Uning deyarli barcha asarlari yuksak saviyada yaratildi. Ammo 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab CHO'lpon asarlarini teskari talqin etuvchi maqolalar e'lon qilina boshladi.

CHO'lponni «xalq dushmani» sifatida «fosh etish»ga urunish 1927 yildayoq boshlangan edi. O'sha yili Ayn /Olim SHarafiddinov/ning «Qizil O'zbekiston» gazetasining 14 fevralp conida «O'zbek shoirlari CHO'lpon» nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda shunday deyiladi: «CHO'lpon yo'qsul xalqning shoiri emas. U millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir. Ruslarni hech qanady guruhga ajrata olmaydi. Butun ruslar uning nazarida mustamlakachilardir. CHO'lpon inqilobdan rozi, faqat ruslardan, ruslarning vatanda qolishidan rozi emas» Ushbu maqola barcha jamoatchilikning diqqatini jalb etdi. «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1937 yil 17 may sonida Oybekning «CHO'lpon. SHoirning qanday tekshirish kerak?» nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda O.SHarafiddinov maqolasi metodologik jihatdan talabga javob bermasligi, muallif badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlarini e'tibordan soqit qilganligi isbotlab berildi. Oybek CHO'lpon she'riyati ayrim qusurlardan holi emasligini e'tirof qilgani holda uni Pushkin bilan taqqoslaydi. Pushkin ijodini qanday printsiplar asosida tekshirilsa, CHO'lpon ijodiga ham shundayyondoshish zarurligi ta'kidlanadi.

CHO'lpon atigi 40 yil umr ko'rdi. U o'z davrining nurli siymosi sifatida zamondoshlari xotirasida qoldi.

CHO'lpon deganda ko'z oldimizda tiniq va musaffo osmondayerqin nur sochayotgan porloq yulduz namoyon bo'ladi. CHO'lpon deganda xayolimizda adabiyot dunyosining so'nmas va yil sayin qalbimizga iliqlik, tarovat, ko'zimizga nur, ongimizga tiniqlik baxsh etayotgan, huzumizga tobora yaqinlashib kelayotgan tong yulduzidek shoir jonlanadi. Totalitar sovet tuzumi XX asr adabiyotining tongida paydo ana shu eng yirik nurli yulduzlaridan birini mahv etmoqchi bo'ldi.

Ammo CHo'lpon yulduzi so'nmagan edi, u shu kunlarda yanada ravshanroq, yanada iliqroq ziyo taratmoqda. Uning ravshan va iliq nurlari qalbimizga orom bag'ishlamoqda.

CHo'lpon ko'proq she'riyatda ijod qildi va bu borada o'zbek she'riyatining qatti bastini ko'targan, unga yangicha shakl va mazmun, yangicha ohng va libos kiydirgan shoir sifatida mashhr bo'ldi. U o'zining «Uyg'onish» nomli birinchi to'plami bilan oq muxlislarining e'tiborini tortdi. Majmuaning nomlanishidanoq shoirning estetik ideali millat taqdiri, xalq ozodligi, erki ekanligi anglashiladi. CHo'lpon shu ilk to'plami bilan millatning uyg'otishni, o'zlikni anglashni istadi. Zero, adabiyot, avvalo, o'zni tanish, o'zlikni tanitish ko'zgusidir. Ana shu ko'zguda aks etishi lozim bo'lgan mo'jiza faqatgina haqiqat bo'lmog'i shart. Haqiqatni ifoda etish uchun esa ijodkor qalbi 'ar qanday cheklovlardan, zanjirlardan holi bo'lishi darkor. Ana shundagina badiiy tafakkur erkinligiga erishish mumkin.

CHo'lpon she'riyatga erk kuychisi sifatida kirib keldi. Rus chorizmining millatni tahqirlovchi, xalqni kamsituvchi tadbirlarini ko'rgan, qirg'inlarga guvoh bo'lgan shoir Oktyabr inqilobining xursandlik bilan kutib oldi. Inqilobiy hodisalardan quvona-quvona she'rlar bitdi, ularda millatini, ayniqsa, yoshlarni tezroq o'zligini anglashga, xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilishga, ona Turkistonni gullatishga chaqirdi. SHoir o'zining «O'zbekiyoshlariga», «Qizil bayroq», «Birinchi may», «Uch yildirki...», «Oktyabr qizi» singari sotsialistik tuzumni tarannum etuvchi she'rlari bilan zamondoshlari Hamza, Avloniy, So'fizoda kabilarga jo'rovoz bo'ldi. CHunki CHo'lpon Oktyabr o'zbek xalqiga ham ozodlik beradi, millat o'z taqdirini o'zi hal qiladi deb kutgandi. Bu umidi asta-sekin puchga chiqa boshladi va shoir qalbida Vatan mustaqilligi, millat ishq, o'lka ravnaqi, ozodlik dardi kuchaya boshladi.

Bu jihatdan shoirning, ayniqsa, «Aldanish» va «Erkinlik istagi» she'rlari g'oyat ibratlidir. 1922 yildayozilgan har ikkala she'rning sarlavhasidan ham ko'rinib turibdiki, shoir oktyabr to'ntarishining aldamchi tuzog'ida besh joni qiynalganini angladi, uning barcha orzulari sarob bo'lib chiqdi:

Men uni hayoliy, totli bir sevish,
Ilohiy bir muhabbat, ishq bilan sevdim.
Besh yil, shuning uchun besh angalayish..
YOnish, kuyishlarim oh, endi bildim.

Oh, endi bildimki, barchasi hayol,
Barchasi bir totli rohat tush ekan.
Ket, yo'qol ko'zimdan, haqiqat, yo'qol,
Bag'rimga botmoqda og'uli tikan.

CHo'lpon ona yurtining begona qo'l tegmagan momiqday oppoq bo'yniga istibdod zanjiri yanada qattiqroq tortilganligini anglaydi. CHinakam xalq shoirining erkin ko'ngli esa «bu siqiq, bu bog'langan, bu egalik» asosiga qurilgan turmushga ko'nikolmaydi va endi «tor qafasdan o'zini qutqargali» urinayotgan, intilayotgan xalqini «Qo'zg'olish»ga, erkinlik, o'zboshlilik yo'lida o'lim bo'lsa-da, qaytmaslikka chaqiradi. Yigirmanchi yillarda yaratilgan she'rlarida CHo'lpon mustamlakachilik sifatida «kishan» obraziga ko'p murojaat qildi. Uning zang bosgan halqalaridan azob chekayotgan xalqini qo'zg'olishga da'vat etadi. SHoirning «Ko'ngil», «Xalq», «Kuz», «Ko'klam keladir», «Men va boshqalar», «Go'zal», «Buzilgan o'lkaga», «Binafsha» kabi she'rlari ozodlik tuyg'ulari bilan to'ydirilgan, o'quvchi qalbida istiqloлга cheksiz muhabbat uyg'otadigan asarlardir. Bu she'rlar mazmunan bir-birini to'ldiradi, boyitadi, istiqloл dardi biridan ikkinchisiga kuchayib, ozodlik to'liqini po'rtanaga aylana boradi.

1921 yiladyozilgan «Kuz» she'ri shoirning ilk to'plami «Uyg'onish»dan o'rin olgan. SHE'r sirtidan qaraganda tabiat tasviriga, kuz faslining turfa ranglarini ifodalashga bag'ishlangandek tuyuladi. Aslida esa mustamlaka zanjirida azob chekayotgan «og'riq, mag'lub, tutqun SHarq»ning ayanhli ahvoli, uning bahori tugab xazon faslini boshidan kechirayotgani tasvirlanadi. Mustamlakachi «g'olib g'arb qonga to'lgan ko'zlari»ni o'ynatib, kuz timsolida namoyon bo'ladi. U shu qadar daxshatliki, qonga to'lgan ko'zlarini bo'ron kabi o'ynatib, qora bulut to'dasini etaklab

kelib butun SHarqning ustigayopgach, «og'u to'la o'qlarini » ortgan qo'shini bilan SHarqozining barini jarohatlaydi. Ko'kda uchayotgan qarg'alar esa balo-qazoday ochko'zlik bilan o'lja izlaydi.

Ko'ramizki, she'rda qo'llanilgan har bitta badiiy unsur katta ijtimoiy ma'no tashiydi. Undagi har bir bayt tugal bir manzaradir. Tabiatning rangin lavhalari ko'z o'ngimizda quyuqlashib, hayotning aniq suratiga aylanadi. Kuzning o'ziga xos belgilari, ranglari, ko'rinishi tabiiy faslning manzaralarini emas, balki tutqunlikda kechayotgan xalq hayotining achinarli holatini namoyon qiladi. Natijada SHarq, g'arb, Bo'ron,yoz, Kuz, Qarg'a, Qish timsollarining ijtimoiy ma'nosini tez tushunib olamiz. SHE'ning so'nggi ikki misrasi juda katta ahamiyat kasb etadi. SHoir:

Butun borliq chog'liq o'chish oldida,

Sovuq!.. qora qishga ko'chish oldida

der ekan, istibdod iskanjasida so'nggi nafasini olayotgan Turkiston SHarqining ertasidan dahshatga tushadi.

CHo'lpon o'zining mashhur g'azalllaridan biri «Qalandar ishq»da «Muhabbat osmonida go'zal CHo'lpon edim, do'stlar» deya murojaat qilgan edi. Bu muhabbat, menimcha, intim ma'nodagi sevgi emas, balki birinchi galda ona yurti – go'zal O'zbekistonga bo'lgan buyuk muhabbati, dil izhoridir. SHu ma'noda shoirning eng e'tiborli «Go'zal» she'rda ko'zda tutilgan ma'shuqa ham, avvalo, yurtdir. Ha, shoir «suygan suyuqli shunchalar go'zal»ki uning husni jamoli, tarovati ta'rifga sig'maydi, tasviriga qalam ojiz. Xalq ta'biri bilan aytganda «Oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi!» SHE'rdagi lirik qahramon holati o'quvchi qalbiga tez o'tadi. Boisi CHo'lpon she'riyatining ruhiyati hamisha shoirning tabiiy kayfiyati bilan uyg'un tarzda ifodalanadi.

CHo'lponning ona yurtiga bo'lgan muhabbati uning har bir daraxtiga, undagi har bir novdaga, novdadagi kurtakka, tuproqdagi maysaga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, shoir she'rlarida tabiat unsurlari xalq hayoti haqidagi haqiqatni aytishga bir vosita vazifasini ado etadi. Bu jihatdan CHo'lponning yil fasllari sanalmish bahor,yoz, kuz va qishga bag'ishlangan she'rlari xarakterlidir. Inqilobdan so'ng o'zbek she'riyatida bahorni Oktyabrga, kuzni farovon, to'kin-sochin sotsialistik turmushga nisbat berish urfga aylanganligi bugun sir emas. SHunday paytdayolg'iz CHo'lponning kuz timsolida mustamlaka o'lkani xazonrezgi manzarasini, bahor ramzida esa sevinchi o'lgan, «Ko'zlarida har qayg'udan bir yig'i» otilgan («Ko'klam qayg'usi» she'rda) hasratlari, fig'onlari ortgan («Bahor va men») inson holatini aks ettirdi.

CHo'lpon elini, yurtini Majnun bo'lib sevgan shoir edi! Axir, bundayin dilrabo, bundayin bebaho, yulduz tushida ko'rib oshig'u shaydo bo'lgan, shamol bir marta ko'riboq aqlu hushini yo'qotib «tog'u toshlar ichra istab» yuradigan, quyosh esa o'ngida ko'rib ishqida kuygan «Oydan-da go'zal, kundan-da go'zal» Vatanni yer sharining qaysi nuqtasidan topib bo'ladi?! SHuning uchun ham uni asrab qolish shart. Xalq bunga qodirdir, faqat uni o'z qudratiga ishontira bilish darkor. CHunki:

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir!

Xalq esa jim, qullikka ko'nikkan. Negaki uning qudratini so'ndirdilar, olovga suv purkadilar, mutelikka o'rgatdilar, taqdirga tan berishga majbur qildilar. Natijada u kishanlar bilan oshno tutinyapti, isyonkorlik ruhi sustlashdi, o'zligini unutdi. SHoir shuning uchun uni hushyorlikka chaqirib hayqiradi:

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor

Nechun sen muncha sustlashding?

Ushbu she'rning oxirgi bandiga, ayniqsa, alohida urg'u berish lozim bo'ladi. Bir vaqtlar ingliz mustamlakachilariga qarshi istiqlool bayrog'ini ko'tarib chiqqan bengal shoiri Nazrul Islom mazlum xalqiga «Tug'ilgansan ozod, mangu ozod bo'lib qol!» deb murojaat qilgan, bu da'vatni qalbiga jo qilib kurashga otlangan hind xalqi esa Vatanini bosqinchilardan xalos etgandi. CHo'lpon ham xalq istagi yurti ozod qilish ekanligini angalb, unga:

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!

deya murojaat qiladi.

SHoirning «Buzilgan o'lkaga» she'ri o'sha davrda ham, keyin ham katta shov-shuvga sabab bo'ldi. CHo'lponning boshiga tushgan ko'p qora kunlar aynan mana shu she'r tufaylidir. CHunki unda shoir o'zbek tuprog'ida ro'y berayotgan fojiali voqealarni ro'y-rost tasvirladi. Xuddi shu asar bilan bir paytda yaratilgan «YOng'in» she'rida shoir sarlavhadan keyin «Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q. Go'daklar nayza boshida!» degan xabarni keltiradi. Nazarimda, mana shu xabar «Buzilgan o'lkaga» she'rining yaratilishiga turtki bergan. «YOng'in»da qizil askarlarning shafqatsiz qirg'inidan «SHunday katta bir o'lkada yiqilmagan, talanmagan uy» qolmaganligi, bosqinchi alvastilar esa o'z qilmishlaridan hursand bo'lib, «o'liklarni to'plashib o't» qo'yib isinayotganligi, tog'larga chiqib ketib panoh topgan butun-butun qishloq aholisini quvib tog'toshlarga ham chiqib borganligi, natijada «Podalarning yaylovida bo'rilar qonga to'yib» uvlayotgani tasvirlanadi. Bu fikrlar, shubhasiz, «Buzilgan o'lkaga» she'ri bilan hamohangdir.

Turkiston deb atalgan ulkan bir o'lkada amalga oshirilayotgan noxaqliklar, adolatsizliklar, zo'ravonliklar CHo'lponning qahrini qo'zg'atdi. Haqsizlikka qarshi ko'tarilgan xalq farzandlari ayovsiz jazolanayotganligini, bosmachilikka qarshi kurash bahonasida begunoh xalq boshiga ne-ne qora kunlar solinganligini CHo'lpon o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu she'r sarlavhasidan tortib oxirgi misrasigacha qizil mustamlakachilarning qabih siyosatini buyuk bir jasorat bilan ochib tashlaydi. Mana bu dahshatli manzaralarni shoir o'ylab chiqargan deb bo'lmaydi.

O'zining mazmun mohiyati, obrazlar tizimi bilan asrimizning 20-yillaridagi mislsiz tarixiy fojia dahshatlarini yuksak badiiy mahorat va haqqoniy tadqiq qilish ko'lami bilan bu she'r o'sha mashum badiiy solnomasiga aylanib qoldi.

She'r:

Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?

degan murojaat bilan boshlanadi. Bu «zo'r o'lka»ning bag'rida jannat kavsaridek pokiza, «Sadaflarning donasidek top-toza» buloqlar sharaqlab qaynab turardi. Tabiati musaffo edi, salqin suvlari orom baxsh etardi, tabiatdan qo'noqlar rohatlanardi. Endi esa bularning bari mungli va qayg'uli, bag'rida qo'rqinch bordek! Nega? Ammo shoir bu xayqirig'iga javob ololmaydi.

CHo'lponning «Jahon fotihlari changalida ezilibotgan SHarq o'lkalariga bag'ishlanadi» deb epigraf qo'yilgan ikkinchi to'plami «buloqlar»dan joy olgan mazkur she'r shoirning o'zi tomonidan «doston» deb nomlangan. To'g'ri, hajmi jihatidan (hamasi bo'lib 56 misradan iborat) doston deb belgilashga loyiq bo'lmas, ammo unda ko'tarilgan muammo, ohang va ifoda shakllarining o'ziga xosligi, Turkiston o'lkasida ro'y berayotgan dahshatli voqealarni keng ko'lamda tasvirley olishi uni lirik monolog asosiga qurilgan doston deb atashga asos bo'la oladi. Doston to'rt bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'limi o'ziga xos shakl, ritm va ohangga egadir. Birinchi bo'lim, boshidan oxirigacha to'la ma'nodagi so'roqqa yo'g'rilgan. Unda shoir – lirik qahramon ona yurti – qo'hna Turkistonni so'roqqa tutadi. So'roqning mantiqiy davomi ikkinchi bo'limdagi savol asosiga qurilgan murojaatga tayanadi. Bo'limning har bir misrasi «Nega?», «Nima uchun?» degan savollar bilan boshlanadi. O'quvchi beixtiyor bu savollarga javob izlaydi.

Uchinchi, to'rtinchi bo'limlarda esa hayqiriq, kurashga chaqiriq ohanglari kuchlidir. Dostondagi «ko'lanka» timsoli qoliplovchi unsur sifatida ishlatilganligi bilan diqqatga sazovordir. Aslida dastlabki ikki misra «Kirish», so'ng ikki misra esa «Xotima» tarzida keltirilgan. Ularni ana shu «ko'lanka» iborasi mantiqan bog'lab turadi. Ammo «Xulosa»da qo'llanilgan «ko'lanka» zimmasiga zalvorli mazmun yuklatilgan. Gap shundaki, «kirish»dagi «ko'lanka» zo'r o'lkani boshida, ya'ni tepalikda edi. «xulosa»da u xalqning bo'g'zidan bo'g'ibotgan ajdaho ma'nosini anglatadi.

20-30 yillar matbuotda CHo'lponning bu she'riga qarshi ko'plab tanqidiy maqolalar, undagi haqiqatni rad etishga urinuvchi javob she'rlaryoritildi. Tanqidiy maqolalarda «CHo'lpon bizning shoir emas», u badbin, «millatchi», «aksilinqilobchi» shoir deb xulosa chiqarilgan bo'lsa, javob

she'rlarda CHO'lponning ijodkor sifatidagi «kaltabinligi», shahar va qishloqlardagi bir necha uyning vayron bo'lganini ko'radi-yu, ammo shu vayronalar ustida barpo etilayotgan gigant qurilishlarni ko'rmaydi degan fikr ilgari suriladi. Bu jihatdan proletar shoiri G'ayratiyning «Tuzalgan o'lkaga» deb atalgan javob she'ri xarakterlidir.

Ana shu qarshiliklarning barchasi otashnafas shoir CHO'lponni jismonan mahv etishga olib keldi. Ammo rost so'z abadiydir. SHu bois CHO'lponni ma'naviy jihatdan yo'qotib bo'lmaydi. CHunki u ona xalqning bag'riga singib ketgandi.

CHO'lpon o'zbek adabiyotini ko'plab hikoyalar, dramalar hamda «Kecha va kunduz» romani bilan boyitdi. CHO'lponning «Jaholat qurboni», «Doktor Muhammadiyor» hikoyalari, «YOrqinoy», «Zamona xotini» dramalari to'g'risida batafsil so'zlab beraman. Keyinyozuvchining o'zbek romanchiligining eng yaxshi asari «Kecha va kunduz» (1934) romani haqida gapirib beraman. Romanning mavzusi, g'oyaviy muammosi, ifodalangan davr va uning asosiy qahramonlari Miryoqub, Akbarali mingboshi, Zebi, Razzoq so'fi kabilarning obrazi haqida studentlar bilan suhbatlashaman.

“Qurboni jaholat” Cho'lponning matbuotda e'lon qilingan ilk hikoyasi. “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yil 29 aprel sonida ilk marta e'lon qilingan. Hikoyaning qahramoni Eshmurod bo'lib, uning oldiga do'sti Mo'minjon kiradi. U o'g'ri edi. Uylarida soat bor edi. Mo'minjon ularni soatini o'g'irlab ketadi. Shu payt otasi soatni so'raydi. Shunda Mo'minjon kirganligini, soatni u olgan bo'lishi mumkinligini aytadi. Otasi bu gapga ishonmay uni do'pposlaydi. Eshmurod betob bo'lib yotib qoladi. Eshmurod o'lkaning jaholatga botganidan iztirob tortadi. Eshmurod o'qimishli bo'lib, gazeta o'qiydi. Mingboshiga saylov haqidagi materiallarni o'qib beradi. Ammo Mingboshi uning so'zlariga quloq solmay maishat bilan shug'ullanadi. Eshmurod Mingboshining uyida edi. O'g'ri (besoqol) bola uning soatini o'g'irlab ketadi. Politsiya uni o'g'rilikda gumon qiladi. Eshmurod bu tuhmatga chiday olmay o'zini otib o'ldiradi. Jaholat qurboni bo'ladi.

“Oydin kechalarda” hikoyasida Zaynab kampir bir narsadan cho'chigan kabi uyg'onishi tasviri bilan boshlanadi. YARim kechasi yig'i tovushini eshitgandek bo'ladi. Kim ekan bu? deya hayratga tushadi.

“Oktyabr qizi” hikoyasi qahramoni «Vannaychaxon. U eri tomonidan 20-yillarda o'ldirilgan aktrisa ayol bo'lgan.

“Nonvoy qiz” hikoyasida aldovning qurboni bo'lgan. O'lmasboyning changaliga tushib, hayoti barbod bo'lgan nonvoy qiz taqdiri hikoya qilinadi.

«Kleo'patra» hikoyasi sochma tarzda berilgan. Misrning go'zal malikasi muhabbat timsoli sifatida ko'rsatiladi.

“Oktyabr qizi” hikoyasining qahramoni sahnaning iste'dodli guli Vannaychaxondir. YOzuvchi uning o'ldirilishiga bo'lgan nafratini, uning iste'dodiga bo'lgan yuksak ta'rifini quyidagicha bayon qiladi.

“Vannaycha-erkinlikka intilguvchi bir o'zbek qizi.

Vannaycha –sodda bir osiya.

U – frantsuz huquq insoni (feminizm)ning timsoli majussamasi bo'lgan Juzanna Volantin emas...

Unda Juzanna Volantinning yuksak falsafiy, ilmiy qarashlari yo'q. U Juzanna Volantin kabi oila turmushiga, er-xotin bo'lib turishga qarshi qo'zg'olon emas.

U frantsuz muharrirasi Marsel Tindir o'ylag'oncha jahoniy alamlar bilan qayg'urg'on qiz emasdir.

U faqat Turkiston qullug'ig'a, musulmon an'anasining taassubiga qurbon bo'lg'on bir o'zbek qizidir...

Ushbu asar Oktyabr voqealariga 5 yil to'lishi munosabati bilan 1922 yilda yozilgan.

Muammoli masala javobi: Ma'lumki CHO'lpon tavallud topgan yil haqida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar berilgan. Uning tavallud topgan yili 1897,1898,1899 tarzda ko'rsatib kelingan. 1897 yili tavallud topgan yil sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. CHunki bu sana kup manbalarda qayt etilish bilan birga snglisi Foiqa Sulaymon qizi estaliklarida ham qayd etilgandir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. CHO'lponning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.
2. CHO'lpon ijodiga munosabat va uning o'rganilish tarixi.
3. Mustaqillik va CHO'lpon ijodi
4. CHO'lponning tarjimai holini gapiring
5. CHO'lpon ijodining boshlanishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?
6. CHO'lponning dastlabki asarlari qaysi?
7. CHO'lpon Oktyabr inqilobini qanday kutib oldi?
8. CHO'lponning qatag'on qilinishi sabablari nimada?
9. CHO'lponning adabiy merosi nimalardan iborat?
10. CHO'lpon va jadidizm.
11. "Qurboni jaholat" hikoyasining mavzu va obrazlari haqida nimalar bilasiz?
12. CHO'lponning ilk hikoyalari xls jihatlar nimalarda ko'rinadi?
13. CHO'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasida detallardan foydalanishdagi yozuvchi mahorati qanday?
14. "Qor qo'ynida lola" hikoyasi g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi haqida so'zlang.
15. "Do'xtir Muhamadiyor" hikoyasida jadidchilik g'oyalari ifodasi qanday?
16. "Oqqoshshoning in'omi" hikoyasida CHO'lpon qanday fikrni ifodalamoqchi?
17. CHO'lponning «Kleo'patra», "Oktyabr qizi" hikoyalari erk, ozodlik, muhabbat g'oyalari ifodasi qanday aks etgan?
18. CHO'lpon obrazi va XX asr o'zbek hikoyachiligi haqida so'zlang.
19. CHO'lpon an'analariga xos xususiyatlar hozirgi qaysi ijodkorlar ijodida ko'zga tashlanadi?
20. CHO'lpon hikoyalari va jahon adabiyoti haqida nimalar bilasiz?

14-mavzu: USMON NOSIR HAYOTI VA IJODI (1912-1944)

SHERIYATI. DRAMALARI

Dars rejasi:

1. Usmon Nosirning tarjimai holi.
2. Uning ilk ijodi.
3. She'rlarining mavzu va obrazlari.
4. Dostonchilikdagi mahorati
5. Usmon Nosir dramaturg.

ADABIYOTLAR:

1. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 1-2-tomlar. T., 1969-70.
2. Usmon Nosir. YUrak. T., 1984.
3. N.Karimov. Usmon Nosir. T., SHarq, 1993.
4. N.Karimov. Usmon Nosirning so'nggi kunlari. T., SHarq, 1994.
5. A.Rajabiy. Usmon Nosirning hayoti va ijodi. T., 1971.
6. N.Karimov. Assalomu alaykum dorning og'ochi. – «Fan va turmush», 1992, 2-son.
7. N.Rashidova, Usmon Nosir: «Men hayotga qaytishim kerak». – Yoshlik, 1988, 9-son.

TAYANCH IBORALARI:

1. Qatag'on davr fojialari.
2. Davr siyosati va shoir.
3. Ilk ijod.
4. She'riy mahorat.
5. Uslub va ijod.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. U.Nosir qachon va qaerda tug'ilgan?
2. U.Nosir qaerlarda tahsil oldi?
3. U.Nosir tarjimai holiga oid qanday yangi ma'lumotlarni bilasiz?
4. U.Nosir qanday she'riy to'plamlar nashr ettirdi?
5. U.Nosir she'riyatining o'ziga xos tomonlari haqida nimalar deya olasiz?
6. U.Nosir adabiy merosi haqida so'zlang?

7. U.Nosir ijodi va faoliyati haqida mustaqillik yillarida qanday maqolalar e'lon qilindi?
8. Shoir she'rlarining badiiyati haqida so'zlab bering.
9. U.Nosir qanday dostonlar yozgan?
10. Shoirning dostonchilik mahorati.
11. U.Nosirning «Norbo'ta» dostonining yaratilish tarixi va obrazlari haqida so'zlang.
12. «Nahshon» dostonining o'ziga xos tomonlari qanaqa?
13. U.Nosir qanday dramatik asarlar yozgan?
14. Shoirning «Atlas» dramasi syujeti va obrazlar tizimini tavsiflang.
15. U.Nosirning tarjimonlik mahorati haqida nimalar bilasiz?
16. U.Nosirning XX asr o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi nimalarda ko'rinadi?
17. U.Nosir ijodi va hozirgi yoshlar she'riyati.
18. U.Nosir adabiy merosi haqida ma'lumot bering.

DARSNING MAQSADI VA MUAMMOLI MASALANING QO'YILISHI: U.Nosir tarjimai holi, faoliyati, o'zbek adabiyoti tarqiyotiga qo'shgan hissasi, adabiy merosi, uslubiga xos xususiyatlar haqida ma'lumot berish. Hayoti va ijodi haqida e'lon qilingan muammoli masalalarga aniqlik kiritish.

U.Nosir 1912 yil 13 noyabrda Namangan shahrining Tanhogo'r mahallasida Maatxo'ja va Xolambibi oilasida dunyoga keldi. Uning otasi kosib edi. SHoir «Kechmish kunlari» she'rida o'z hayotining debochasini quydagicha tasvirlaydi:

Men o'ksiz tug'ildim,
Bir kosib otadan,
Bir g'arib onadan.
Turmush qiyindi
U vaqt bizga ...

1916 yilda shoirning otasi Mamatxo'ja 54 yoshida vafot etdi. 1921 yilda Usmon o'gay otasi Nosirhoji va onasi bilan Qo'qon shaxriga ko'chib keladi va «Yangi hayot» maktabida o'qiy boshlaydi. Uning o'gay otasi Nosir Masodiq o'g'li Rus tuzem maktabini bitirgan, uning avvalgi turmush o'rtog'i-xomiladorlik chog'ida Andijonga boradi va 1902 yilgi zilzilada tom bosib qolib halok bo'ladi. Shu voqeadan keyin Nosir tog'asi bilan hajga borib hoji bo'lib keladi.

Nosirhoji Holambibidan Ravzaxon (1918), Roxatxon (1919), Inobatxon (1920) degan farzandlar ko'radi. «Yangi hayot» maktabida Po'latxon Qayumovlar dars berar edi. U.Nosir chapaqay edi, tabiatan o't-olov edi. O'gay ota chiqishtiravermagach u Qo'qondagi «Dor ush shafaqa»da yotib o'qiy boshladi. SHoir shu davrlarni keyinchalik xotirlab yozadi:

Otam o'ldi-men sarson bo'ldim,
«Shum etim» deb so'ktilar meni.
Ajab kunga muhtalo bo'ldim,
Ko'chalarga quvdilar meni.
O'sha kunlar dilimda hayot
(Og'ir damni unitib bo'lmas!)
«Tur! – dedilar – Tur, yetimcha zot!»
Ilojim yo'q – turaman birpas.

1925-1929 yillarda Usmon Nosir Qo'qondagi ikkinchi boqich o'zbek maktabida tahsil ko'rdi.

1929-1930 yillarda u Moskvadagi kinomotografiya ilimgo'hrining 1-kursida tahsil oldi. U bu erda S.Esenin ijodi bilan tanishdi. Uning «Bogema» deb atalgan yig'inlaridan «Stello Pegasa» kafesini borib ko'rdi. Tatar shoir Musa Jalil bilan do'st tutindi. U bu davrda Maskva Davlat Universitetining 4-kurs talabasi edi. Amin Umari bilan ham Usmon Nosirning qalin do'stiligi bor edi. Shu yillarda V.Mayikovskiy tashkil etgan vistavka va sherxonlik kechalarini borib ko'rdi. Uni dafn etish marosimlarida qatnashdi. Musa Jalil Gitler turmasida, Usmon Nosir Stalin turmasida jon berishlarini bilmas edilar o'sha rayitldarda.

Moskvadagi tahsilni Usmon Nosir vaqtdan ilgari tugatishga majbur bo'ladi. U o'pkasini shamollatib qo'yadi va yurtiga qayitishga majbur bo'ladi.

1930-1933 y illarda Usmon Nosir Qo`qondagi ta`lim va tarbiya kurslarida o`qituvchi va ilmiy bo`lim mudiri xamda shahar teatrida adabiy emakdosh lavozimlarida ishladi.

1933 yilda Usmon Nosir o`zbek yozuvchilarning birinchi quriltoylarida qatnashdi.

1933 yil sentyabrdan 1934 yilgi mayiga qadar U.Nosir Samarqand pedagogika akademiyasi (Xozirgi SamDU) da o`qidi. U iste`dodli bo`lgani bois 1-kursdan birdan 5-kursga o`tkazganlar. Lekin u bu erda o`qishni tashlab ketgan, to``riro`bi o`qishdan haydadilar. Bunga turli sabablarni ko`rsatadilar. Domlalaridan biri bilan chiqisha olmay qolagan degan mish-mishlar ham bor.

1984 yilda u tojik va arman yozuvchilari birinchi quriltoyiga delegat sifatida qatnashish uchun 1-5 avgust kunlari otlanadi va Erevan, Boku, Tibilissi shaharlarida bo`ladi.

1937 yili fevral oyida u Moskvadagi A.S.Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan o`tkazilgan tantanalar ishtirokchisi sifatida qatnashdi.

1937 yil 12 iyulda U.Nosir O`bekiston yozuvchilar uyushmasi rayosat yig`ilishida uyushma a`zolidan chiqariladi. Unga turli siyosiy ayblar qo`yildi.

1944 yil 15 dekabrda O`rta Osiyo xarbiy okrugi harbiy prokraturasi SSR Itifoqi Oliy Sudi Xarbiy Kollegiyasining 1938 yili 5 oktyabridagi ayiblovini bekor qildi va U.Nosirni qamoqdan odod qilish haqida qaror chiqardi. Lekin jafokash shoir 1944 yil 9 martda, payshanba kuni soat 14<sup>00</sup> da o`pka silidan vafot etgan edi. Uning jasadi hastaxonaning muzxonasida qariyb bir hafta turgach, 15 mart kuni Sustlovo qishlog`i qabristoniga Dafn etiladi. Shu tariqa bu dunyoga sig`magan shoir 32 yoshida bu yoruh olamni tark etadi. Shu o`rinda shoirning quyidagi satrlari yodga keladi:

Bu yerda yotibdi Usmon Nosiriy
Qon sochar yulduzi o`zbek nazmining.
Tingla, ey she`rlari qolgan oh urib:
So`ngi manzilgohi shur yerda uning.
Faqat men bilmaymen: qayerda qo`li?
Oyog`i qayerda?

Qayda bosh chanoq?
Bu sovuq qabriston yalmog`iz ko`li
Bilmasen qayerda kim cho`kkan u chog`.
Manna bu maysalar uning qalbida
Bir payitlar jildirab oqqan sabrlar.
Mana bu chaqmoq-chi, uning labidan
Olov bo`lib chiqqan oltin satrlar.
Bulutlar ortida qolga u oftob-
Tuproq bilan to`lgan ko`zlari uning.
Jala bo`lib yoqqan ustumga shut ob
Faryod bilan aytgan so`zlari uning
Gar kelsang bu yerga, ta`zim et bajo
Shoiring shu erda bo`lgandir ado...

Usmon Nosirning singlisi Ravzaxon Nuriddin O`lmasboev degan odamga turmushga chiqqan. U ham Akmal Ikromovning safdoshi sifatida qamalgan. Rohatxon esa O`tkir Rashidga turmushga chiqqan.

U.Nosir lirik shoir edi. uning ilk she`ri 1927 yilda “Yangi yo`l» jurnalida “Haqiqat qalami” nomi bilan bosilib chiqdi.

1932 yilda shoirning “Quyosh bilan suhbat”, “Safarbar satrlar” nomli ilk she`riy to`plamlari chop etildi.

1935-1936 yillarda U.Nosirning “Yurak”, “Mehrim” to`plamlari nashr etildi. Shuningdek shu yillarda uning “Traktorobod” to`plami ham chop etilgan.

U.Nosir she`rlari jimjimadorlikdan, sun`iylikdan, g`alizlik va zo`rma-zo`rakilikdan holi bo`lgan she`riyat. Fikr-tuyg`u sodda, lirik harorat bilan o`ziga xos tashbehtar bilan ifodasini topadi:

She`rim, yana o`zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda.

Bir men emas hayot shaxsisan,

Jonim kabi yashaysan tanda.

(“Yana she’rimga”)

U.Nosir Geyne she’riyatidagi sevgi mavzusini, Lermontov falsafasini she’riyatida sintezlashtirdi. Uning “Yurak” (1933) she’rida shoirning ijodiy kredosiga xos muhim jihat o’z ifodasini topgan:

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo’r etding,

Ko’zimga oyni berkitding,

Yurak sensan ishqibozim.

Itoat et!

Agar sendan –

Vatan rozi emas bo’lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! mayli, tamom o’lsam!...

DARSNING MAQSADI VA MUAMMOLI MASALANING QO’YILISHI: U.Nosirning dostonlari, “Tojixon”, «Norbo’ta”, “Nahshon” dostonining mavzu va obrazlari, ularning yaratilish tarixi haqida ma’lumot berish. Dramalari, «Atlas” dramasi mavzu va obrazlarini tahlil qilish.

U.Nosir lirikaning hamma turida: grajdanlik lirikasida ham intim lirikada ham, siyosiy lirikada ham noyob namunalar yaratdi.

Uning Tojixon SHodieva bag’ishlangan “Tojixon” nomli dostoni bor. «Norbo’ta” dostoni 1932-1933 yillar oralig’ida yozilgan. Bu davoda shoir Moskvadan qaytib kelgan edi. U Moskvadaligida Nikolay Gumelyov guruhiga mansub yirik rus akmeisti shoiri Vladimir Norbut o’sha paytda «Zemlya i fabrika” deb atalgan ittifoqdagi ikkilamchi nashriyot rahbari hayoti bilan tanishgan edi. V. Norbut “30 dney” jurnaliga ham muharrir edi. Uning so’l qo’li yo’q bo’lib, u fuqarolar urushi jabhalarida qolib ketgan edi. U.Nosir uning og’ir, mashaqqatli hayotidan hayratga tushgan. Ma’lum bo’lishicha, u Rostov shahrida bo’lgan janrlarda oq gvardiyachilar qurshoviga tushib qolgan, oq gvardiyachilar razvedkasi esa undan muayyan ahamiyatga molik ma’lumotlarni olishga erishgan. Jangchi-shoir hayotining bu sahifasi 20-yillarda ma’lum bo’lib qolgach u ikki yilga Parim shahriga surgun qilingan. U.Nosir Moskvada tahsil ko’rgan yillarida V.Norbut surgundan qaytib, yirik nashriyot rahbari lavozimida ishlayotgan va ijod qilayotgan edi. U.Nosir uni Norbo’tia deb atar va u asosida asar yaratish fikriga tushadi. U.Nosir 1930-1931 yillarda «Norbo’ta” dostonini yozar ekan, V.Norbut asar qahramoni uchun prototip bo’lib xizmat qildi.

“Nahshon” dostoni (1934)dagi voqealar arman qizi Nahshon tilidan bayon qilinadi. Doston U.Nosirga xos bo’lgan chuqur lirizm bilan yo’g’rilgan satrlar bilan boshlanadi.

Nahshon ota-onasidan erta ajralib, qarovsiz qoladi. U ko’chalarda och-nahor, sarson kezadi.

U.Nosir qator dramatik asarlar muallifidir. Uning “Zafar” (1929), “Dushman” (1931), “So’nggi kun”, “Nazirjon Xalilov” (1930), “Atlas” (1934) kabi dramatik asarlar yaratdi. Lekin bu asarlara bizgacha etib kelgan emas. Nazirjon Xalilov revkom raisi bo’lib 20-yillarda Nayman qishlog’iga kolxoz tashkil qilish uchun borganda o’ldirilgan shaxs.

“Atlas” dramasi bizgacha U.Nosirning etib kelgan yagona dramasi. U o’n bir ko’rinishdan iborat. Ishtirok etuvchilar S.M.Mamontov-professor, Nozim Komilov-dotsent, Orzumand-student yigit, Atlas Rahimova, Qumri-studentkalar. Drama ham she’riy, ham nasriy yo’l bilan yozilgan.

Orzumand Atlasni sevadi. U a’lochi talaba. O’z navbatida Atlas ham uning sevgisiga moyillik bildirgan. Orzumand Atlasni professordan rashk qiladi. Lekin ularning sevgisi yo’liga Nozim Kamolov to’g’anoq bo’ladi. U shirin so’zlar bilan Atlasni aldab o’ziga og’dirib oladi. Uning ishonchini qozonadi. Orzumandning etisholmagan sevgisidan tortgan iztiroblari asarda mufassal chizilgan. Professor unga dalda beradi. Atlas Nozim Kamolovga turmushga chiqadi. Natijada qaynonasi va eri tomonidan siquvga oлина boshlaydi. Uni o’qitmaslik yo’lini qidira boshlaydilar. Atlas asar so’ngida Semyon Nikolaevichga hayotta qattiq qoqilganligini aytib aybiga iqrar bo’ladi. Orzumand bilan topishib, yangi ‘ayot boshlashga qaror qiladilar.

U.Nosir A.S.Pushkinning “Bog’chasaroy fantani”, Lermontovning “Demon” asarlarini o`zbek tiliga ma’orat bilan tarjima qildi. U Lermontovning “Ismoilbek” dostonini tarjima qilganligi haqida ham ma’lumot bor. Lekin shoir qamoqqa olinganida bu asar ham olib ketilib, yo`qotilgan. U.Nosir bir she’riy roman yozganligini ham NKVD hisobxonasida to`ldirgan anketasida aytadi. Bu asarning ham taqdiri noma’lum.

